

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM,  
FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**JIZZAX POLITEKNIKA INSTITUTI**

**Qo‘lyozma huquqida**  
**UDK: 334.722 (075)N-66**

**NARKUZIYEV ANVAR RUSTAMOVICH**

**KICHIK BIZNES VA TADBIRKORLIK FAOLIYATINI  
RIVOJLANTIRISHDA INFRATUZILMADAN  
FOYDALANISHNI TAKOMILLASHTIRISH**

**08.00.15 – «\_\_\_\_\_»**

Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (Doctor of Philosophy) ilmiy  
darajasini olish uchun yozilgan

**DISSERTATSIYA**

**Ilmiy rahbar: Xajiev B.D.**

**JIZZAX – 2024**

## MUNDARIJA

<b>KIRISH.....</b>		<b>3</b>
<b>I bob.</b>	<b>INFRATUZILMANI YAXSHILASHNING MAZMUNI VA UNING TADBIRKORLIK FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHDAGI AHAMIYATI.....</b>	<b>12</b>
1.1.	Infratuzilmaning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati va uning shakllanishi bo'yicha nazariy qarashlar.....	12
1.2.	Rivojlangan infratuzilmaning tadbirkorlik faoliyatiga ta'sirining ilmiy-nazariy asoslari.....	26
1.3.	Tadbirkorlik infratuzilmasining ishlab chiqarish samaradorligiga ta'sirini baholashning ilmiy-uslubiy asoslari.....	37
	1-bob bo'yicha xulosalar.....	47
<b>II bob.</b>	<b>O'ZBEKISTONDA KICHIK BIZNES VA TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING ISHLAB CHIQARISH INFRATUZILMASI BILAN TA'MINLANGANLIK DARAJASI TAHLILI.....</b>	<b>48</b>
2.1.	Kichik biznes va tadbirkorlik faoliyatining hududlar kesimida shakllanganlik holati tahlili.....	48
2.2.	O'zbekistonda kichik biznes va tadbirkorlikning samarali faoliyati uchun ishlab chiqarish infratuzilmasini yaxshilashning asosiy tendensiyalari.....	59
2.3.	Kichik va o'rta biznes sub'yektlari faoliyatiga ta'sir etuvchi ijtimoiy-iqtisodiy infratuzilma ko'rsatkichlarining ekonometrik tahlili.....	72
	2-bob bo'yicha xulosalar.....	
<b>III bob.</b>	<b>O'ZBEKISTONDA KICHIK BIZNES VA TADBIRKORLIK FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHDA ISHLAB CHIQARISH INFRATUZILMASINI TAKOMILLASHTIRISHNING ASOSIY YO'NALISHLARI.....</b>	<b>95</b>
3.1.	Tadbirkorlik infratuzilmasini takomillashtirishning xorij tajribasi va undan O'zbekistonda foydalanish imkoniylatlari.....	95
3.2.	Kichik biznes va tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash infratuzilmasini rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari.....	109
3.3.	O'zbekiston Respublikasida kichik biznes va tadbirkorlik uchun infratuzilmani takomillashtirish istiqbollari.....	119
	3-bob bo'yicha xulosalar.....	140
	XULOSA.....	140
	FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.....	142
	ILOVALAR.....	151

## KIRISH

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahon mamlakatlari iqtisodiyotining eng asosiy jabhalaridan biri – bu kichik biznes va tadbirkorlik sub’ektlari hisoblanib, infratuzilma esa uni rivojlantiruvchi eng asosiy omil hisoblanadi. Hozirgi vaqtda rivojlanayotgan davlatlarda infratuzilma uchun zarur bo‘lgan kapital miqdori va infratuzilmaga investitsiyalar uchun zarur bo‘lgan byudjet resurslari o‘rtasidagi salbiy farq kengayib bormoqda. Birlashgan Millatlar Tashkilotining Savdo va Taraqqiyot Konferensiyasi (UNCTAD) ma’lumotlariga ko‘ra, «rivojlanayotgan davlatlar infratuzilmasining jami iqtisodiy infratuzilma investitsiyalari hajmini 2030 yilgacha har yili 4 trillion dollargacha oshirish kerak»<sup>1</sup>. Bu esa kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirishda infratuzilmadan foydalanishni takomillashtirish masalasining dolzarbligini namoyon etadi.

Jahonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyati samaradorligini oshirishda infratuzilma tizimini kengaytirish va takomillashtirish muammolarining turli jabhalariga qaratilgan ko‘plab izlanishlar olib borilmoqda. Moliyalashtirish taqchilligi sharoitida infratuzilmani rivojlantirish, zarur infratuzilmani yaratishda davlat va xususiy sektor investitsiyalar jalb etish, infratuzilmadan samarali foydalanish darajasini baholash uslubiyotini takomillashtirish, infratuzilma rivojlanishini belgilab beruvchi omillarni aniqlash, ularning kichik biznes va tadbirkorlik sohasi rivojlanishiga ta’sirini baholash, “qattiq” va “yumshoq” infratuzilmalarning ahamiyati hamda rivojlanishining o‘ziga xos xususiyatlarini ochib berish muammolari bu boradagi ilmiy tadqiqotlarning ustuvor yo‘nalishlaridan hisoblanadi.

O‘zbekistonda so‘ngi yillarda kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirish va ularning faoliyati uchun zarur infratuzilmani yaratish yuzasidan muhim chora-tadbirlar amalga oshirib kelinmoqda. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining tadbirkorlar bilan o‘tkaziladigan ochiq muloqotida infratuzilmani rivojlantirish bilan bog‘liq muammolar biznesni boshlash yoki rivojlantirish yo‘lidagi eng katta to‘siq sifatida ko‘rsatilib, bu kabi muammolarni tizimli bartaraf

---

<sup>1</sup> Manbasini ko‘rsating.

etish bo'yicha davlat dasturlarini ishlab chiqish borasida vazifalar belgilab berildi. Ushbu davlat dasturlarini amalga oshirish va tadbirkorlik infratuzimlasini rivojlantirish maqsadida Prezident tomonidan tasdiqlangan qarorda, 2022-2024-yillarda ijtimoiy va sanoat infratuzilmasini rivojlantirish davlat dasturi doirasida 76,8 trillion so'm (7 milliard dollardan ortiq) sarmoya kiritish belgilab olindi. Mazkur qaror va davlat dasturlarining yanada samaradorligini oshirish uchun tadbirkorlik infratuzilmasi va uning ishlab chiqarish samaradorligi bilan bog'liq jarayonlarni ekonometrik modellarini yaratish, statistik tahlilini yuritish, prognozlashtirish va tizimli uslubiy jarayonlarni ishlab chiqish muhim vazifa hisoblanadi. Ushbu vazifalarning samarali amalga oshirilishi bu boradagi ilmiy tadqiqotlarni taqozo etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 21 yanvardagi PF-54-son «Respublika hududlarida tadbirkorlik infratuzilmasini rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi Farmoni, 2020 yil 28 dekabrda PQ-4936-son "2021 - 2023 yillarda O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2022 yil 22 yanvardagi PQ-98-son "2022-2024-yillarda O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2022 yil 30 dekabrda PQ-465-son "2023-2025 yillarda O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorlari hamda sohaga oid boshqa qator me'yoriy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi.** Mazkur dissertatsiya ishi respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirishning I. "Demokratik va huquqiy jamiyatni ma'naviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish" ustivor yo'nalishlariga muvofiq bajarilgan.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi.** Kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirishda infratuzilmaning tutgan o'rnini tahlil etish bo'yicha xorijiy iqtisodiyot sohasi vakillaridan E.V.Xechiyev, V.M.Geets, M.Torrance, J.R.Bryson,

R. A. Mulhall, M. Song, P. Y. Loo, R. J. Dawson, D. F. Rogers, E. Aykana, S. Aksoylu  
va E. Sönmez, S. Cakula, A. Jakobson va J. Motejlek, K. Kristianova, K. Gecovaa va  
E. Putrova, E. Brenes, J. Haar, D. Marke va D. Markley, A. Coskun Samli, Hew, Khe  
Kale, Ugur Kim, Nari, B. David, Diana Heger, Tobias Veith, D. B. Audretsch,  
M. Keilbach, J. L. Woolley, A. Nkechi, E. J. Emeh Ikechukwu, U. F. Okechukwu,  
S. Shaks, P. Barnes, Kessides, P. K. Adikwe, A. M. Osoba, A. I. Makrefsova,  
O. A. Lomavseva, T. A. Yakushkina, S. M. Kulish, Kovács, György, K. Rong, Z. Liu,  
Y. Shi, H. Li, Douglas Zhihua Zeng, A. K. Abotsi, A. Fasih, P. Ghazalian, N.  
Ghazzawi, A. B. Abeberese, C. G. Ackah, Yoshino, Naoyuki<sup>2</sup> ilmiy izlanishlar olib

---

<sup>2</sup>Хечиев Е.В. Типология инфраструктурных ограничений развития бизнеса // *Via in tempore. История. Политология*. 2009. №1 (56). (дата обращения: 18.07.2022). Геец В. М. Общество, государство, экономика: феноменология взаимодействия и развития [монография] / В. М. Геец. - К.: НАН Украины, 2009 - 864 с. Torrance, M., 2009. The rise of a global infrastructure market through relational investing. *Econ. Geogr.* 85 (1), 75–97. Bryson, J. R., Mulhall, R. A., Song, M., Loo, B. P. Y., Dawson, R. J., & Rogers, C. D. F. (2018). Alternative-substitute business models and the provision of local infrastructure: Alterity as a solution to financialization and public-sector failure. *Geoforum*, 95, 25–34. doi:10.1016/j.geoforum.2018.06.022. E. Aykana, S. Aksoylu, and E. Sönmez, “Effects of Support Programs on Corporate Strategies of Small and Medium-Sized Enterprises”, in *Procedia - Social and Behavioral Sciences*, iss. 99, pp. 938-946, 2013. S. Cakula, A. Jakobsone, and Ji í Motejlek, “Virtual Business Support Infrastructure for Entrepreneurs”, in *Procedia Computer Science*, iss. 25, pp. 281-288, 2013. K. Kristianovaa, K. Gecovaa, and E. Putrova, “Old Industrial Sites – Conversion to Parks: Potential of Bratislava”, in *Procedia Engineering*, iss. 161, pp. 1858-1862, 2016. Brenes, E., Haar, J. (Eds.). (2012). *The Future of Entrepreneurship in Latin America*. London, UK: Palgrave Macmillan. Marke, D. and Markley, D. 2006. *Entrepreneurship and rural America*. Rural Research Report, 17 (4): 1–6. A. Coskun Samli “From Imagination to Innovation”, Springer Science+Business Media, LLC 2011, Edition Number1, Number of Pages XX, 131. Hew, Khe & Kale, Ugur & Kim, Nari. (2007). Past Research in Instructional Technology: Results of a Content Analysis of Empirical Studies Published in Three Prominent Instructional Technology Journals From the Year 2000 Through 2004. *Journal of Educational Computing Research*. 36. 269-300. David B. Audretsch • Diana Heger • Tobias Veith (2014). Infrastructure and entrepreneurship. *Small Bus Econ* (2015) Audretsch, D. B., Keilbach, M. (2007). The theory of knowledge spillover entrepreneurship. *Journal of Management Studies*, 44, 124. Woolley, J.L., (2013). The creation and configuration of infrastructure for entrepreneurship in emerging domains of activity. *Entrepreneurship Theory and Practice*, 38(4), 1042-2587. Nkechi, A., Emeh Ikechukwu, E. J., Okechukwu, U. F. (2012). Entrepreneurship development and employment generation in Nigeria: problems and prospects. *Journal of Education and General Studies*, 1(4), 088-102. Shaks, S., & Barnes, P. (2008). *Econometric Modeling of Infrastructure and Australia's Productivity*. Research Memorandum, Australia Productivity Commission, Kessides, “The Contributions of Infrastructure to Economic Development,” A Review of Experience and Policy Implications, Washington, DC: The World Bank, Discussion Paper No. 213, 1993. Adikwe, P.K. (2012). Project finance for Small and Medium Scale Enterprises (SMEs) in Nigeria. *An International Multidisciplinary Journal, Ethiopia*, 6(1), 91-100. Osoba, A. M. (2003). *Towards the Development of Small Scale Industries in Nigeria*. Мокрецова А. И. Теоретико-методический подход к управлению развитием ресурсного потенциала региона // *Вестник Брянского государственного университета*. 2013. № 3. С. 78-81. Ломовцева О. А. Совокупный ресурсный потенциал региона: методология определения и измерения // *Научные ведомости Белгородского государственного университета*. 2012. № 1. С. 61–67. Якушкина Т. А. Роль оценки ресурсного потенциала в развитии региона // *Вестник Брянского государственного университета*. 2012. № 3. С. 308–312. Кулиш С. М. Ресурсный потенциал обеспечения инновационного социально ориентированного развития региона // *Казанский педагогический журнал*. 2015. № 3. (дата обращения: 10.12.2017). Kovács, György. (2016). Logistics and production processes today and tomorrow. *Acta logistica*. Rong, K., Liu, Z. and Shi, Y. (2011), "Reshaping the business ecosystem in China: case studies and implications", Vol. 2 No. 2, pp. 171-192. Li, H. (2012). History and Development of Entrepreneurship in China. *Entrepreneurship and Economic Growth in China*, 13–34. Douglas Zhihua Zeng (2012) “China’s Special Economic Zones and Industrial Clusters: Success and Challenges” Lincoln Institute of Land Policy Working Paper, A. K. Abotsi, “Power Outages and Production Efficiency of Firms in Africa,” *International Journal of Energy Economics and Policy*, vol. 6, no. 1, 2016. A. Fasih, P. Ghazalian, and N. Ghazzawi, “The Effects of Power Outages on the Performance of Manufacturing Firms in the MENA Region,” *Review of Middle East Economics and Finance*, vol. 16, no. 3, Dec. 2020, A. B. Abeberese, C. G. Ackah, and P. O. Asuming, “Productivity Losses and Firm Responses to Electricity Shortages: Evidence from Ghana,” *The World*

borgan.<sup>3</sup> Infratuzilmani rivojlantirishning nazariy va amaliy jihatlari o‘zbekistonlik olimlardan

M.M.Tashxodjayev, Z.A.Ashurov, H.Hasanov, F.Jurayev va U.Abidhadjayev<sup>4</sup> kabi olimlarning ilmiy nashrlarida o‘z aksini topgan.

Infratuzilmani rivojlantirish orqali kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirish yuzasidan olib borilgan tadqiqot natijalari tahlili shuni ko‘rsatadiki, ushbu yo‘nalishda bahsli, yetarlicha ilmiy o‘rganilmagan holatlar mavjud. O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiyotining xususiyatlarini inobatga olgan holda olib borilgan tadqiqot ishlari tor doirada qolmoqda. Shunga ko‘ra, O‘zbekiston iqtisodiyotida yuqoridagi holatni tadqiq etish zarurati, tadqiqot mavzusini tanlash uchun asos bo‘ldi.

**Tadqiqot mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta‘lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog‘liqligi.** Mazkur ilmiy tadqiqot ishining mavzusi Jizzax politexnika institutining ilmiy tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq ilmiy loyiha doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi.** Kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirishda infratuzilmalardan foydalanishni oshirish, qo‘llab-quvvatlash va rag‘batlantirish yuzasidan ilmiy takliflar va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:** Ilmiy ishning maqsadiga asoslangan holda tadqiqot uchun quyidagi vazifalarni bajarish belgilab olingan:

---

Bank Economic Review, vol. 35, no. 1, pp. 1–18, Feb. 2021, Yoshino, Naoyuki, and Umid Abidhadjaev (2015). *An Impact Evaluation of Investment in Infrastructure: The Case of the Railway Connection in Uzbekistan*.

<sup>3</sup>Р.Х.Карлибаева, М.М. Ташходжаев, З.А. Ашуров. Ишлаб чиқариш инфратузилмаси: дарслик / Ўзбекистон Республикаси Олий ва ўрта махсус таълим вазирлиги. - Тошкент: Ўзбекистон файласуфлари миллий жамияти, 2014.-160 б., Habibullo Hasanov, “Economic effects of business infrastructure digitalization” march 2021, Conference: Development issues of innovative economy in the agricultural sector, Samarkand., Yoshino, Naoyuki, and Umid Abidhadjaev (2015). *An Impact Evaluation of Investment in Infrastructure: The Case of the Railway Connection in Uzbekistan*. Retrieved from <https://www.adb.org/sites/default/files/publication/175724/abdi-wp548.pdf>. Accessed on 12.07.2021., Juraev, Farrukh (2021). *Key priorities of Uzbekistan for the comprehensive development of transport corridors in Central Asia*. Retrieved from <http://isrs.uz/en/maqolalar/klucevye-priorityty-uzbekistana-po-vsestoronnemu-razvitiu-transportnyh-koridorov-v-centralnoj-azii>. Accessed on 12.07.2021.

<sup>4</sup>Р.Х. Карлибаева, М.М. Ташходжаев, З.А. Ашуров. Ишлаб чиқариш инфратузилмаси: дарслик / Ўзбекистон Республикаси Олий ва ўрта махсус таълим вазирлиги. — Тошкент: Ўзбекистон файласуфлари миллий жамияти, 2014.-160 б., Habibullo Hasanov, “Economic effects of business infrastructure digitalization” march 2021, Conference: Development issues of innovative economy in the agricultural sector, Samarkand., Yoshino, Naoyuki, and Umid Abidhadjaev (2015). *An Impact Evaluation of Investment in Infrastructure: The Case of the Railway Connection in Uzbekistan*. Retrieved from <https://www.adb.org/sites/default/files/publication/175724/abdi-wp548.pdf>. Accessed on 12.07.2021., Juraev, Farrukh (2021). *Key priorities of Uzbekistan for the comprehensive development of transport corridors in Central Asia*. Retrieved from <http://isrs.uz/en/maqolalar/klucevye-priorityty-uzbekistana-po-vsestoronnemu-razvitiu-transportnyh-koridorov-v-centralnoj-azii>. Accessed on 12.07.2021.

- kichik biznes va tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish uchun infratuzilmani takomillashtirishda mamlakatimizning o'ziga xos xususiyatlarini tahlil etish va uni belgilab beruvchi omillarni aniqlash;

- infrastrukturani takomillashtirishning kichik biznes va tadbirkorlik sohasi rivojlanishiga ta'sirini tadqiq etish;

- infratuzilmani takomillashtirishni baholashning uslubiy asoslarini tadqiq etish va ushbu asosni takomillashtirishga yo'naltirilgan ilmiy takliflar ishlab chiqish;

- kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirishda "qattiq" va "yumshoq" infratuzilmalarning ahamiyatini ko'rsatish.

**Tadqiqotning obyekti** bo'lib O'zbekiston Respublikasida kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirishda infratuzilmani rivojlantirish bilan bog'liq hodisa va jarayonlar hisoblanadi.

**Tadqiqotning predmeti** bo'lib kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirishda infratuzilmaning amal qilishi va uning mexanizmlarini rag'batlantirish jarayonida yuzaga keluvchi iqtisodiy munosabatlar hisoblanadi.

**Tadqiqotning usullari.** Tadqiqot ishini bajarishda ilmiy mushohada, statistik guruhlash, qiyosiy va tizimli tahlil, ilmiy mantiqiy umumlashtirish, matematik modellashtirish, ekonometrik tahlil hamda prognozlashtirish usullaridan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiliklari** quyidagilardan iborat:

kichik biznes va tadbirkorlik faoliyati samaradorligini oshirish mexanizmi iqtisodiy siyosatning infratuzilmaviy chora-tadbirlari majmuini shakllantirishda "yumshoq infratuzilma" hamda "qattiq infratuzilma" ob'yektlarini parallel rivojlantirishga bog'liqligini aniqlash asosida takomillashtirilgan.

kichik biznes va tadbirkorlik faoliyati samaradorligiga "yumshoq" hamda "qattiq" infratuzilmalarning ta'sirini baholashda hududlarni infratuzilma rivojlanganlik darajasiga ko'ra "past darajada rivojlangan"  $[0 \leq Iy/q \leq 0,35]$ , "o'rta darajada rivojlangan"  $[0,36 \leq Iy/q \leq 0,75]$ , "yuqori darajada rivojlangan"  $[0,76 \leq Iy/q \leq 1,0]$  kabi mezon va chegara diapazonlari asosida toifalash taklifi ishlab chiqilgan;

hududdagi ishlab chiqarish va ijtimoiy infratuzilmadan foydalanishni takomillashtirishda uning tarkibidagi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyati uchun xususiyatli bo'lgan ob'yektlarni bevosita va bilvosita hamda zanjirli ta'sir ko'rsatishi darajasi jihatidan guruhlash, shunga ko'ra infratuzilmani rivojlantirishga tabaqalashgan holda yondashish asoslangan;

O'zbekistonda infratuzilma tizimi rivojlanishi ta'sirida kichik biznes va tadbirkorlik faoliyatidagi o'zgarishlarning eksponensial vaqtli qatorlar va o'rtacha tortilgan harakatlanuvchi modellar yordamida 2030 yilga qadar prognoz ko'rsatkichlari ishlab chiqilgan

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

infratuzilmaning kichik biznes va tadbirkorlik faoliyatining rivojlanishidagi ahamiyatini ko'rsatgan holda infratuzilma kategoriyasiga mualliflik ta'rifi berilgan;

infratuzilmaning kichik biznes va tadbirkorlik faoliyatiga ta'siri aniqlangan;

infratuzilmaning kichik biznes va tadbirkorlik faoliyatiga ta'sirini baholash borasidagi uslubiy yondashuvlar tizimli ravishda asoslangan;

hududlarda infratuzilmaning shakllanganlik holatiga ko'ra ularni "past", "o'rta", "yuqori" kabi mezonlar asosida baholanishi ilmiy asoslangan.

infratuzilmani qattiq hamda yumshoq guruhlarga ajratilgan holda kichik biznes va tadbirkorlikka ta'siri o'rganilgan;

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi.** Mazkur dissertatsiya natijalari va olingan ilmiy yangiliklarning ishonchliligi tadqiqotni bajarishda umume'tirof etilgan usul va uslubiyatlarning qo'llanilganligi, rasmiy axborot bazalaridan, xususan, O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi, Jizzax viloyati savdo-sanoat palatasi rasmiy saytlari ma'lumotlaridan foydalanilganligi, tadqiqot ilmiy yangiliklarining vakolatli davlat tashkilotlari tomonidan ma'qullanganligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati mazkur tadqiqot jarayonida olingan ilmiy xulosa va amaliy tavsiyalardan o'rta va uzoq muddatli istiqbolda hududlarda kichik biznes va tadbirkorlik faoliyati uchun zarur infratuzilmani yaratish muammolarini chuqur



tadqiq etishga bag'ishlangan ilmiy tadqiqot ishlarini amalga oshirishning uslubiy asoslarini takomillashtirishda foydalanilishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati mazkur tadqiqot jarayonida ishlab chiqilgan taklif va amaliy tavsiyalardan kichik biznes va tadbirkorlik faoliyatiga samarali ta'sir etuvchi infratuzilma obyektlarini rivojlantirish, infratuzilmalarni tarmoq hamda hududlarning kompleks chora-tadbirlar majmuini ishlab chiqishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirishda infratuzilma faoliyatidan foydalanishni takomillashtirish bo'yicha ishlab chiqilgan ilmiy-uslubiy taklif va tavsiyalar asosida:

kichik biznes va tadbirkorlik faoliyati samaradorligini oshirish mexanizmi iqtisodiy siyosatning infratuzilmaviy chora-tadbirlari majmuini shakllantirishda "yumshoq infratuzilma" hamda "qattiq infratuzilma" ob'ektlarini parallel rivojlantirishga bog'liqligini aniqlash asosida takomillashtirish taklifi 2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasini "Inson qadrini ulug'lash va faol mahalla yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturi loyihasini shakllantirishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi 2022 yil 21 oktyabrdagi 28-03-10/6-486 sonli ma'lumotnomasi). Ushbu taklifning amaliyotga joriy etilishi respublika hududlarida ishlab chiqarish va ijtimoiy infratuzilma ob'ektlarini o'zaro muvofiq holda rivojlantirishga qaratilgan chora-tadbirlarni ishlab chiqishga xizmat qilgan;

kichik biznes va tadbirkorlik faoliyati samaradorligiga "yumshoq" hamda "qattiq" infratuzilmalarning ta'sirini baholashda hududlarni infratuzilma rivojlanganlik darajasiga ko'ra "past darajada rivojlangan"  $[0 \leq Iy/q \leq 0,35]$ , "o'rta darajada rivojlangan"  $[0,36 \leq Iy/q \leq 0,75]$ , "yuqori darajada rivojlangan"  $[0,76 \leq Iy/q \leq 1,0]$  kabi mezon va chegara diapazonlari asosida toifalash taklifi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 30 dekabrdagi "Respublika hududlarini toifalarga ajratish va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlashning tabaqalashtirilgan tizimini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-287-son Farmonida inobatga olingan (O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy taraqqiyot va

kambag'allikni qisqartirish vazirligi 2022 yil 21 oktyabrdagi 28-03-10/6-486-sonli ma'lumotnomasi). Ushbu taklifning amaliyotga joriy etilishi baholash mezonlari va ko'rsatkichlari hamda hisoblash usullarining haqqoniyligi va shaffofligini ta'minlovchi tuman va shaharlarni tegishli toifalarga ajratishning axborot tizimini joriy etishga qaratilgan chora-tadbirlarni ishlab chiqishga xizmat qilgan;

hududdagi ishlab chiqarish va ijtimoiy infratuzilmadan foydalanishni takomillashtirishda uning tarkibidagi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyati uchun xususiyatli bo'lgan ob'yektlarni bevosita va bilvosita hamda zanjirli ta'sir ko'rsatishi darajasi jihatidan guruhlash, shunga ko'ra infratuzilmani rivojlantirishga tabaqalashgan holda yondashish taklifi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Hududlarda maxsus iqtisodiy va kichik sanoat zonalarini tashkil qilish va ularni muhandislik-kommunikatsiya infratuzilmasi bilan ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-271-son Qarorining 2022-yilda maxsus iqtisodiy, kichik sanoat zonalarini, yoshlar sanoat va tadbirkorlik zonalarini hamda to'g'ridan to'g'ri xorijiy va mahalliy investisiyalar ishtirokidagi yirik ishlab chiqarish loyihalarini tashqi muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlari bilan ta'minlash tadbirlari yig'ma parametrlarini shakllantirishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi 2022 yil 21 oktyabrdagi 28-03-10/6-486-sonli ma'lumotnomasi). Ushbu taklifning amaliyotga joriy etilishi maxsus iqtisodiy zonalar, yoshlar sanoat va tadbirkorlik zonalarini hamda kichik sanoat zonalarini qattiq infratuzilma tarkibiga kiruvchi ichimlik va oqova suv tarmoqlarini, avtomobil yo'llarini, tabiiy gaz tarmoqlarini hamda irrigatsiya tarmog'ini qurishga qaratilgan tadbirlarni ishlab chiqishga xizmat qilgan;

O'zbekistonda infratuzilma tizimi rivojlanishi ta'sirida kichik biznes va tadbirkorlik faoliyatidagi o'zgarishlarning eksponensial vaqtli qatorlar va o'rtacha tortilgan harakatlanuvchi modellar yordamida 2030 yilga qadar ishlab chiqilgan prognoz ko'rsatkichlaridan O'zbekiston Respublikasining 2022-2024-yillarda ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish dasturi loyihasini shakllantirishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi 2022 yil 21 oktyabrdagi 28-03-10/6-486-sonli

ma'lumotnomasi). Ushbu taklifning amaliyotga joriy etilishi ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirishning 2023-2024-yillar uchun maqsadli mo'ljallarga qaratilgan chora-tadbirlarni ishlab chiqishga xizmat qilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprotatsiyasi.** Mazkur tadqiqot natijalari 1 ta xalqaro va 3 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi.** Mazkur tadqiqot natijalari bo'yicha jami 15 ta ilmiy ish, shu jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya komissiyasi tomonidan tavsiya etilgan jurnallarda 7 ta ilmiy maqola (6 ta mahalliy, 2 ta xalqaro nashrlarda), 3 ta ma'ruza tezlari ilmiy-amaliy anjumanlarda aprotatsiyadan o'tkazilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Maskur dissetatsiya ishi kirish, uchta bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan tashkil topgan bo'lib, jami 152 betdan iborat.

## **I BOB. INFRATUZILMANI YAXSHILASHNING MAZMUNI VA TADBIRKORLIK FAOLIYATI RIVOJLANISHIDAGI AHAMIYATI**

### **1.1- Infratuzilmaning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati va uning shakllanishi bo'yicha nazariy qarashlar.**

Bugungi kunda mamlakat iqtisodiyotining eng asosiy jabhalaridan biri – bu kichik biznes va tadbirkorlik sub'yektlari hisoblanadi. Sababi ular sonining qanchalik ko'p va raqobatbardosh bo'lishi aholining doimiy ish o'rinlari va daromadga ega bo'lishiga yordam beradi va eng asosiysi, iqtisodiy farovonlikni kafolatlaydi. Iqtisodiyot tarixidagi eng buyuk mutafakkirlardan biri A.Smit aytganidek, insonni harakatga keltiruvchi kuch – bu egoizm, o'z manfaatlarini boshqalarnikidan ustun qo'yishdir. Ammo u buni normal holat sifatida qabul qiladi va “inson o'z manfaatlarini o'ylab harakat qilgan ekan, shuning barobarida beixtiyor boshqalarga naf keltiradi”, deya ijobiy xulosaga keladi. Tadbirkorlik faoliyati aynan olim aytgan fikrlarga mos bo'lib, dastlab u o'z manfaatlari yo'lida harakatga keladi va boshqalarga ish berish orqali foyda keltiradi. Zamonamizda tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanish istagida bo'lgan yoki mavjud faoliyat egasi bo'lgan insonlar uchun ular faoliyatini yangidan boshlash yoki yanada kengaytirishda eng asosiy omillardan biri – bu infratuzilma hisoblanadi. Ayniqsa, bugungi tashqi va ichki beqarorliklar sharoitida, mavjud infratuzilmani yanada rivojlantirishning ahamiyati ortib bormoqda.

Mazkur paragrafda biz “infratuzilma” tushunchasining mazmunini yoritishga harakat qilamiz. “Infratuzilma” tushunchasining lingvistik jihatdan tarixi (1875-yil) Fransiyaga borib taqaladi va undan so'ng ingliz tilida ham 1887-yildan boshlab foydalanishga kirib kelgan. Iqtisodiy adabiyotlarga esa, amerikalik iqtisodchi Rozen Shteyn Rodan tomonidan kiritiladi. Mazkur terminning lug'aviy ma'nosi lotin tilida “infra” “quyi”, “pastki” va fransuz tilida “structure” “tuzilma” degan ma'nolarni anglatadi. “Infratuzilma” tushunchasi turli soha uchun bir-biridan ma'lum bir jihatlariga ko'ra turlicha ma'nolarni anglatadi. “Infratuzilma” atamasini iqtisodiyotda, kichik biznes va tadbirkorlik sohasida o'ziga iqtisodiy jarayonlarni tashkil etish va ularni o'zaro bog'lash uchun xizmat qiluvchi sohalar va sharoitlar jamlanmasi deyish mumkin. Umuman olganda Infratuzilmani rivojlantirish

masalalari yuzasidan asosan iqtisodchilar o‘tgan asrning 60 yillarida to‘xtala boshlagan (D.Rey, Sh.Shtoner, A.Marshall va D.Klark kabilar). Ularning aksariyati Infratuzilmani aloqa, xom ashyo va texnik ta‘minot, logistika tizimi va institutsional birliklar jamlanmasi deb bilishgan.

Infratuzilma ishlab chiqarish sohasining kengayishini ta‘minlaydigan eng asosiy omil hisoblanadi. Mamlakatimiz infratuzilmasini rivojlantirishda hududlarimiz tabiati, ishchi kuchlari va moliyaviy salohiyati kabilarning xilma xilligi juda ahamiyatli hisoblanadi.

“Infratuzilma” atamasiga qator olimlar tomonidan izohlar va ta‘riflar berilgan. Quyida shulardan ayrimlariga to‘xtalib o‘tamiz.

1.1- jadval

Infratuzilma termini to‘g‘risidagi ayrim mulohazalar

Muallif	Mulohaza
R.Rozenshteyn	Muallif Infratuzilma atamasiga iqtisodiyot sohadagi faoliyatlar yaxshilanishiga hamda aholi farovonligiga xizmat qiluvchi shart-sharoitlar majmui sifatida qaraydi.
E.V. Xechiev	Infratuzilma – bu tarmoq tarkibidagi korxonalar va tashkilotlar hamda ularning ishlab chiqarishni tashkil etish va tovar munosabatini shakllantirishga xizmat qiluvchi faoliyatlari yig‘indisidir <sup>5</sup> .
V. M. Geets	Infratuzilma shunchaki ma‘lum bir sohaning jamlanmasi emas, balki ishlab chiqarish sohasi va ijtimoiy hayotning samarali rivojlanishining sharti hisoblanadi <sup>6</sup> .
G. R. Natroshvili	Infratuzilma – bu hududdagi resurslar va tovarlarning erkin harakatini va aholining normal turmush kechirishini ta‘minlovchi tuzilmalar va faoliyatlar turlarining yig‘indisidir.
V.Ya. Fedoritova	Infratuzilma - moddiy ne‘matlarni takror ishlab chiqarish va shaxsiy ijtimoiy rivojlanish uchun umumiy shart-sharoitlarni ta‘minlaydigan tarmoqlar majmui.
X.Tajimuratov, H.Hasanov	Tadbirkorlik infratuzilmasi – tadbirkorlik subyektlarining uzluksiz va samarali faoliyat yuritishi uchun zarur sharoitlarni ta‘minlovchi va tadbirkorlik subyektlariga bevosita xizmat qiluvchi institut va elementlar majmuasidir

<sup>5</sup> Хечиев Е.В. Типология инфраструктурных ограничений развития бизнеса // Via in tempore. История. Политология. 2009. №1(56). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/tipologiYa-infrastrukturyh-ogranicheniy-gazvitiYa-biznesa> (дата обращения: 18.07.2022).

<sup>6</sup> Геец В. М. Общество, государство, экономика: феноменология взаимодействия и развития [монография] / В.М.Геец. — К.: НАН Украины, 2009. — 864 с.

Yuqorida keltirilgan ayrim infratuzilma xususidagi fikr va mulohazalardan kelib chiqib aytish mumkinki, mazkur terminologiya uchun aniq bir qoida tariqasida keltirilgan ta'rif mavjud emas. Yuqoridagi qarashlardan kelib chiqib infratuzilma uchun quyidagicha ta'rif berishimiz mumkin: infratuzilma – bu ijtimoiy-iqtisodiy hayot rivojlanishi va farovonligi uchun xizmat qiluvchi shart-sharoitlar yig'indisidir.

Tadbirkorlikni rivojlantirish maqsadlari uchun resurs salohiyatini mahalliyashtirilgan resurslar (moddiy va nomoddiy) va ishbilarmonlik muhitini tashkil etuvchi omillar (shartlar) majmui (infratuzilma) sifatida belgilaymiz. Resurs salohiyati kichik biznes va tadbirkorlikning rivojlanishini ta'minlashning ob'yektiv shart-sharoitlarini (imkoniyatlarini) tavsiflaydi.

Infratuzilmani rivojlantirishda resurs salohiyati bir qismi sifatida quyidagi omillarni keltirib o'tish mumkin:

- tabiiy (geografik, iqlimiy, mineral, biologik);
- mehnat resurslari (mehnat resurslari va ularning malaka darajasi);
- ishlab chiqarish (hudud xo'jalik yurituvchi sub'yektlari va aholining xo'jalik faoliyati natijalari);
- moliyaviy (byudjet daromadlari hajmi, korxonalarining moliyaviy resurslari va viloyat aholisining daromadlari);
- infratuzilmaviy (mintaqaning iqtisodiy, ishlab chiqarish va ijtimoiy infratuzilmalarining holati);
- innovatsion (viloyat iqtisodiyotiga fan va texnika yutuqlarini joriy etish parametrlari);
- iste'molchi (viloyat aholisining umumiy xarid qobiliyati).

Infratuzilmani rivojlantirishda resurs salohiyatining omillari (shartlari) eng boshqariladigan va tartibga solinadigan, boshqaruv sub'yekti tomonidan qo'yilgan maqsadlarga qarab ishbilarmonlik muhitini shakllantirishga yordam beradigan omillardan tashkil topgan infratuzilmani o'z ichiga oladi:

- institutsional (me'yoriy-huquqiy bazani, tadbirkorlikni tartibga solishning norasmiy institutlarini rivojlantirish);

– boshqaruv (tadbirkorlikni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash, tadbirkorlarning boshqaruv madaniyati darajasi).

Kichik va o‘rta biznes, avval ta’kidlab o‘tilganidek, tadbirkorlikning tarkibiy qismidir. Ammo yuqorida sanab o‘tilgan resurs potensialining xususiyatlarini to‘liq tushunish uchun kichik biznes va tadbirkorlikning qanday faoliyat yuritishining o‘ziga xos xususiyatlarini tushunish juda muhimdir. Infratuzilmaning tarkibi kichik biznes va tadbirkorlik uchun resurs salohiyatining o‘ziga xosligini belgilaydi. Kichik biznes va tadbirkorlik sub’yektlariga o‘zlarining raqobatdosh ustunliklarini ro‘yobga chiqarish imkonini beruvchi tarmoq infratuzilmasi; texnologiya, texnologiyani rivojlantirish, ishlab chiqarishni tashkil etish va aholi ehtiyojlarini shakllantirishdagi innovatsion jarayonlar bo‘lib, ular kichik va o‘rta biznesning potensial faoliyat sohasini kengaytiradi.

“Infratuzilma atamasiga ikki tomondan qarash mumkin”, - deydi Fourie (2006). Birinchi yondashuv uni atributlari nuqtai nazaridan tavsiflashni o‘z ichiga oladi, ikkinchisi esa transport, aloqa, ta’lim, elektr energiyasi va suv ta’minoti kabi keng aholiga xizmat ko‘rsatadigan barcha infratuzilma tarkibiy qismlarini tan oladi. Birinchi nuqtai nazarga ko‘ra, Fourie (2006) infratuzilmani davlat xizmatlarini ishlab chiqaruvchi asosiy vositalar sifatida ta’riflaydi, chunki, mohiyatan, infratuzilma jamoat ne’matining asosiy xususiyatlarini, shu jumladan, istisno qilinmaydigan va qulay tarqalishni namoyish etadi (Fedderke va Garlick, 2008).

Srinivasu va Srinivasa-Rao (2013) infratuzilmani samarali faoliyatni ta’minlash va mamlakatning uzluksiz ishlashi uchun zarur bo‘lgan barcha asosiy ob’yektlar, shu jumladan kapital uskunalar zahirasi sifatida aniqladilar. Aniqroq aytganda, infratuzilmalar bu xususiyatlarni har doim ham bir xil darajada aks ettirmaydi. U bir qator ijtimoiy va iqtisodiy tarkibiy qismlar, jumladan, “Asosiy iqtisodiy ob’yektlar”, “ijtimoiy qo‘shimcha kapital” va “iqtisodiy qo‘shimcha xarajatlar” uchun “soyabon” so‘zi bo‘lib xizmat qiladi (Srinivasu Srinivasa-Rao, 2013).

Xirshman (2008) fikricha, agar faoliyat boshqa iqtisodiy va ijtimoiy jarayonlarning davom etishi va barqarorligiga hissa qo‘shsa, davlat organlari tomonidan ta’minlansa yoki uning mulki xususiy bo‘lsa-da, jamoat nazorati va

agar asosan ajralmas bo'lsa, u infratuzilmaning bir qismi sifatida qaralishi mumkin. (Srinivasu va Srinivasa-Rao, 2013).

Kundalik hayot kechirish, jumladan, takror ishlab chiqarish, mehnat qilish, dam olish yoki umr kechirish davomiyligi kabilar rivojlangan va qulay mahalliy infratuzilma orqali ta'minlanadi. Bunga quyidagilarni kiritish mumkin: energiya ta'minoti, parklar, kutubxonalar va internet tarmog'iga oson ulanish kabilar. Torrance (2009) o'zining "The rise of a global infrastructure market through relational investing" maqolasida infratuzilma ham davlat, ham xususiy sektor orqali ta'minlanishi va shu bilan bir qatorda investitsion aktiv bo'lishi ham mumkinligini keltirib o'tadi<sup>7</sup>.

Bryson, J. R., Mulhall, R. A., Song, M., Loo, B. P. Y., Dawson R. J., Rogers C. D. F. (2018) lar "Alternative-substitute business models and the provision of local infrastructure: Alterity as a solution to financialization and public-sector failure" nomli maqolasida infratuzilmaning ijtimoiy shakliga to'xtaladi va uning muhimligini hamda moliyalashtirish manbalarini tahlil etadi. Infratuzilma davlat tomonidan hamda xususiy sektor tomonidan ta'minlanishi mumkin. Ba'zida shunday holatlar bo'ladiki, unda davlat tomonidan ham xususiy sektor tomonidan moliyalashtirish o'zini oqlamasligi yoki imkoniyati yetmasligi mumkin. Bunday holatlarda alternativ moliyalashtirish manbalari zarur bo'ladi. Shunda mualliflar bugungi kunda Buyuk Britaniya amaliyotida mavjud bo'lgan jamoatchilik tomonidan infratuzilmani moliyalashtirishni o'zida aks ettiradigan Muqobil o'rnini bosuvchi biznes model (ASBM) lar faoliyatini tahlil etadi va ahamiyatini yoritib beradi<sup>8</sup>.

O'zbek olimlaridan ham bir qanchasi infratuzilma va uning ahamiyati xususida tadqiqot olib borgan bo'lib, o'zlarining fikr va mulohazalarini bildirishgan. Jumladan, R.X. Karlibayeva, M.M. Tashxodjayev, Z.A. Ashurov (2014) o'zlarining "Ishlab chiqarish infratuzilmasi" nomli darsligi orqali mazkur yo'nalishdagi muammolarning yechilishida hissa qo'shganlar.


---

<sup>7</sup> Torrance, M., 2009. The rise of a global infrastructure market through relational investing. *Econ. Geogr.* 85 (1), 75–97.

<sup>8</sup> Bryson, J. R., Mulhall, R. A., Song, M., Loo, B. P. Y., Dawson, R. J., & Rogers, C. D. F. (2018). Alternative-substitute business models and the provision of local infrastructure: Alterity as a solution to financialization and public-sector failure. *Geoforum*, 95, 25–34. doi:10.1016/j.geoforum.2018.06.022



## 1.1- rasm. Ishlab chiqarish infratuzilmasining maqsadi, asosiy vazifa va tamoyillari.



Infratuzilma uning turlari bo'yicha qaraganda bir-biridan vazifa jihatidan keskin farq qiladi. Ammo, ularni birlashtirib turuvchi umumiylik mavjud bo'lib,

barchasi farovonlik, qulaylik va rivojlanishga olib boradi. R.X.Karlibayeva, M.M. Tashxodjayev, Z.A.Ashurovlar ilmiy ishlanmasini umumiy infratuzilma emas, balki aynan ishlab chiqarish infratuzilmasiga bag‘ishlaydi. Shuningdek, olimlar tomonidan ishlab chiqarish infratuzilmasining maqsadi, vazifasi va tamoyillarini atroflicha yoritib berilgan.

Yuqoridagi rasm orqali mualliflar tomonidan ishlab chiqarish infratuzilmasining maqsadi, vazifalari va tamoyillarini yoritishga harakat qilingan. Ammo, bizning fikrimizcha, ularni yanada boyitish mumkin:

- Tadbirkorlik infratuzilmasining maqsadi – jamiyat uchun tovarlar ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish jarayonini sifat hamda miqdor jihatdan yaxshilash.

- Tadbirkorlik infratuzilmasining vazifalari:

- Ishlab chiqaruvchi sub’yektlarning maqsadlariga tezroq va osonroq yetishiga yordam beradi.

- Ishlab chiqarish jarayonining samaradorligini oshirish:

- Tovar va xizmatlarni iste’molchiga yetkazish uchun shart-sharoit yaratish:

- Iste’molchi va sotuvchini uchrashuvini ta’minlash:

- Tadbirkorlik muhitiga huquqiy va iqtisodiy jihatdan ko‘maklashish hamda uni tartibga solish.

Aytish mumkinki, yuqorida keltirib o‘tilgan vazifalarning talab darajasida amalga oshirilishi davlatlar iqtisodiyotining rivojlanganlik darajasi, davlat boshqaruv tizimi, suniy to‘siqlar mavjudligi kabi omillarning mavjud bo‘lishiga ko‘p jihatdan bog‘liq hisoblanadi. Davlatlar iqtisodiyotining rivojlanishida ishlab chiqarish infratuzilmasining o‘rni beqiyosdir. Har bir davlat o‘ziga xos rivojlanish manbalariga ega hisoblanadi. Shu sababdan ishlab chiqarish infratuzilmasiga quyidagicha izoh berish mumkin.

Ishlab chiqarish infratuzilmasi – bu tadbirkorlik sub’yektlari faoliyati rivojlanishiga hamda ishlab chiqarish omillarining barqaror harakatini ta’minlashga xizmat qiluvchi tizimlar, komplekslar va institutlar jamlanmasi deyish mumkin.

Umumiy holatda infratuzilmani ikki guruhga ajratish mumkin (1.2-rasm): chizmaga ko‘ra Infratuzilma turlari ikkita asosiy guruhga ajratib ko‘rsatilgan.

Ularning ishlab chiqarish hajmiga, samaradorligiga ta'siri ham ikki xil. Biri bevosita yana biri bilvosita ta'sirga ega. Misol uchun, energiya ta'minoti yaxshi bo'lsa, uzluksiz ta'minlab turilsa, ishlab chiqarishda to'xtalishlar kam bo'ladi va natijada ishlab chiqarish samaradorligi yaxshilanadi. Ijtimoiy sohani oladigan bo'lsak, sifatli sog'liqni saqlash tizimining mavjudligi ishchilarning kamroq kasallanishiga yoki tezroq sog'ayib ketishiga olib keladi va oqibatda ishchining ishlash vaqtidagi yo'qotishlar kamroq bo'ladi.



### 1.2-rasm. Infratuzilma turlari<sup>9</sup>

“Iqtisodiy infratuzilma” atamasi iqtisodiy faoliyatni rag'batlantirish va jadallashtirish uchun zarur bo'lgan yo'llar, telekommunikatsiyalar, elektr liniyalari, avtomobil yo'llari, poezdlar, dengiz portlari, aeroportlar ta'minoti va sanitariya kabi infratuzilma turini anglatadi (Fourie, 2006). Aksincha, ijtimoiy infratuzilma deganda, inson farovonligi va turmush darajasini oshirish bilan bog'liq bo'lgan infratuzilma shakllari tushuniladi. Bunday ijtimoiy infratuzilma aholining sog'lig'ini saqlash, ta'lim va madaniyat me'yorlarini qo'llab-quvvatlaydi. Ijtimoiy infratuzilmaga parklar, haykallar, kutubxonalar, klinikalar, shifoxonalar, maktablar va universitetlar kiradi.

Iqtisodiy siyosat instituti (2012) ta'kidlashicha, infratuzilmani rivojlantirish temir yo'llar, avtomobil yo'llari, aeroportlar, ko'priklar va suv ta'minoti kabi muhim jismoniy infratuzilmaning asosiy qismlariga investitsiyalarni

<sup>9</sup> Muallif tomonidan tayyorlandi.

moliyalashtirish, shuningdek, inson salohiyatini oshirish orqali mamlakat kapitalini ko'paytirishga qaratilgan. Umuman olganda, bu sarmoyalar mamlakat iqtisodiyotining yaxshi ishlashiga, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar jalb qilinishiga, kichik korxonalar va mahalliy tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlashga xizmat qiladi, bularning barchasi iqtisodiy o'sishga, mamlakat ishlab chiqarish salohiyati va farovonligini oshirishga xizmat qiladi.

XVF (2015) ma'lumotlariga ko'ra, infratuzilmaga investitsiyalar deganda hisobot yilida davlat tomonidan sotib olingan asosiy vositalarning umumiy sof qiymati hamda ishlab chiqarilmagan aktivlarni (masalan, yer qa'ri aktivlari) baholashdagi o'zgarishlar tushuniladi. Mualliflarning fikriga ko'ra, infratuzilmaga investitsiyalar o'z-o'zidan davlat va nodavlat xarajatlari bo'lib, ular har yili ma'lum joylarda infratuzilmani rivojlantirish orqali aholi tomonidan mavjud bo'lgan jismoniy kapitalni yaxshilash uchun amalga oshirilishi mumkin.

Shubhasiz, davlat kichik va o'rta biznesni qo'llab-quvvatlovchi infratuzilmaga sezilarli ta'sir ko'rsatadi va davlat bu ta'sirning asosi bo'lib xizmat qiladi. Hozirgi vaqtda infratuzilmani rivojlantirish organlarini komponentlari qanday ishlashini muvofiqlashtirish va boshqarish uchun taklif etilayotgan qonunlar, dasturlar va farmonlar ishlab chiqilmoqda. Biroq, infraturilmani rivojlantirish loyihalari qonun chiqaruvchi organlar tomonidan boshqariladi va ijro etuvchi organlar kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirish sohasidagi davlat siyosatini amalga oshirishda bevosita yoki bilvosita ishtirok etadi, bu esa ularni infratuzilma institutlari sifatida ko'rish huquqiga ega.

Infratuzilmani qo'llab-quvvatlash quyidagi o'zaro bog'langan quyi tizimlarga ega bo'lgan tizimdan iborat bo'lishi kerak: qonun chiqaruvchi hokimiyat organlari, ijro etuvchi hokimiyat organlari va kichik biznes va tadbirkorlik bilan doimiy aloqada bo'lgan infratuzilma institutlari.

Hozirgi vaqtda mamlakatimizda quyida sanab o'tilgan yordamning asosiy shakllarini taklif qiluvchi yetarli darajada yetuk infratuzilmani shakllantirish sub'yektlari paydo bo'ldi: sud, moliyaviy, mulkiy, ishlab chiqarish va muhandislik, axborot-maslahat, o'qitish, shuningdek, xalqaro tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-

quvvatlash. Tijorat sub'yektlarining qonuniy manfaatlari davlat tomonidan himoya qilinishini ta'minlash uchun huquqiy yordam zarur.

Moliyaviy qo'llab-quvvatlashga hukumatimiz tomonidan alohida e'tibor beriladi, chunki moliyalashtirish uzoq vaqtdan beri biznesni rivojlantirishning har qanday darajasida kichik biznes va tadbirkorlik oldida turgan eng muhim muammolardan biri bo'lib kelgan.

Mashinasozlik va ishlab chiqarishni qo'llab-quvvatlash sanoat ishlab chiqarishining o'sishini va ishlab chiqarish sanoatidagi texnologik yutuqlarni rag'batlantirishga qaratilgan. Yo'l-yo'riq va maslahat yordami odatda bir-biriga zid bo'lganligi sababli, ko'rsatma va maslahat yordami ikkita turdagi yordamni bir toifaga o'z ichiga oladi. Axborot xizmati kichik va o'rta biznesga muhandislik, ishlab chiqarish, huquqiy va iqtisodiy ma'lumotlardan foydalanishga ruxsat berishni konsalting xizmati esa tashkilotga to'g'ri biznes qarorlarini qabul qilishda rahbarlik qilishni o'z ichiga oladi. Hozirgi kunda O'zbekistonda ko'plab tijorat konsalting firmalari mavjud, tadbirkorlar turli munitsipal idoralar, kichik va o'rta biznesni qo'llab-quvvatlash dasturlari, kompaniya inkubatorlari va davlat idoralaridan maslahat va yordam olishlari mumkin.

Kichik biznes va tadbirkorlik korxonalarining mulki, muhandislik va ishlab-chiqarishga ko'maklashish infratuzilmani rivojlantirish tashkilotlarining muhim vazifasidir. Mahalliyashtirish, import o'rnini bosuvchi mahsulotlarni ko'paytirish bo'yicha ishlab chiqilgan strategiya kichik va o'rta ishlab chiqarish firmalarining faol rivojlanishiga olib keldi. Mashinasozlik, stanoksozlik, to'qimachilik, farmatsevtika va axborot texnologiyalari sanoati import o'rnini bosish uchun eng potensial soha hisoblanadi. Bu hududlarda mahalliyashtirish dasturini imkon qadar tez va samarali amalga oshirish uchun kichik va o'rta biznes mulk, muhandislik va ishlab chiqarishni qo'llab-quvvatlashi, ulardan biri tadbirkorlik bog'larini o'z ichiga olishi zarur. Kichik biznes va tadbirkorlik ehtiyojlarini qondirish uchun o'zgartirilgan sanoat parklari g'oyasi "tadbirkorlik parki" iborasining asosidir.

Sanoat ishlab chiqarishni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan ishlab chiqarish, ma'muriy, omborxonalar va boshqa binolar, shuningdek, muhandislik va transport infratuzilmasi bo'lgan yer uchastkasini o'z ichiga olgan muayyan

Moliyaviy potentsial	Mahalliy byudjet: mlrd so'm; mahalliy byudjetga tushumlarda soliq ulushi: mlrd so'm; moliyaviy tashkilotlarning kredit berish potentsiali: mlrd so'm; investitsiyalarni o'zlashtirish darajasi: mlrd so'm
Axborot potentsiali	Axborot xizmatini ko'rsatish hajmi: so'm; axborot xizmatini ko'rsatuvchi tashkilotlar soni: dona; global internet tarmog'i bilan ta'minlanganlik darajai: foiz, ishlab chiqarish jarayoning raqamlashishi (%)
Ilmiy-tehnologik potentsial	Oliy va o'rta maxsus ta'lim tashkilotlari soni: dona; ilmiy tadqiqot bilan shug'ullanish: mln so'm; ta'lim dargohlarida tahsil olayotgan talabalar soni: ming kishi
Tabiiy resurs potentsiali	Ichimlik suv: ming. kub. metr; gaz kondensati:

<sup>33</sup> R.X. Karlibayeva, M.M. Tashxodjeyev, Z.A. Ashurov. Ishlab chiqarish infratuzilmasi: darslik / O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi. — Toshkent: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2014. — 160 b.

<sup>34</sup> Muallif tomonidan tayyorlandi

	ming tonna; elektr energiyasi: mlrd. kvv. soat; qishloq xo'jaligida foydalaniladigan yerlar: ming. gektar; tabiiy gaz: mln kub. metr;
Logistik potensial	Temir, havo, suv hamda avtomobil yo'llarining yuk tashish sig'imi: tonna soat; temir hamda avtomobil yo'llari uzunligi: km; logistik firmalar soni: dona; logistik firmalar yuk tashish quvvati: tonna

Yuqoridagi jadval orqali anglash mumkinki, har bir infratuzilma turining mamlakatlarda turlicha imkoniyatlari mavjud va ularning o'z o'lchov birliklari bor. Mamlakatlarning kichik biznes va tadbirkorliklar sonini o'zida ko'paytirish uchun ularning infratuzilmalarining potentsiali darajasi, ichki resurslar bilan ta'minlanganligini baholash muhim hisoblanadi. Biznes vakillari uchun infratuzilmani rivojlantirishda mamlakatlar turli xil darajada potentsialga ega bo'lishi mumkin.

Ishlab chiqarish infratuzilmasi bo'yicha har bir guruh ko'rsatkichlari o'z o'lchovlariga ko'ra bizga o'sha mamlakatda rivojlanish istiqbollari aytib beradi. Jumladan, ishlab chiqarish quvvatiga nisbatan logistik potensial mos bo'lishi lozim. Agar logistik salohiyat ishlab chiqarish quvvatidan past bo'lsa, tovar va xizmatlarning yakuniy iste'molga yetib borguncha, takror ishlab chiqarish jarayonlarida muammolar paydo bo'lishi mumkin. Aslida ishlab chiqarish jarayoni bilan bog'liq, muammoga sabab bo'luvchi omillar ko'plab topiladi. Ishlab chiqarish jarayonida xom-ashyo, energiya manbalari, pul va axborot kabilar bilan ta'minlanishdan tashqari logistika masalasi ham juda muhim hisoblanadi. Bugungi o'zgaruvchan bozorda iste'molchilar talabini qondirish tezkorlik va samarali tashish tizimini talab etadi (Kovács György, 2016)<sup>35</sup>.

Shuningdek, infratuzilma potentsialini baholash bo'yicha yana bir yo'nalishi, rivojlanish vektorini belgilovchi muhim omillardan biri – bu ishlab chiqarish jarayonini raqamlashtirishdir. Kovács György (2016) ishonadiki, ishlab chiqarish jarayonlari kelajagining asosi raqamlashtirish bo'lib xizmat qiladi. Kelajakda sanoat 4.0 ning ajralmas qismini quyidagilar tashkil etadi:

- Gorizontal va vertikal qiymat zanjirining integratsiyasi va raqamlashishi

<sup>35</sup> Kovács, György. (2016). Logistics and production processes today and tomorrow. Acta logistica. 3. 1-5. 10.22306/al.v3i4.71.

- Tovar va xizmatlar sotuvining raqamlashishi
- Raqamli biznes modellari va xairdor munosabatlarning shakllanishi

Hududlarda infratuzilmani rivojlantirishning salohiyatini moliyaviy jihatdan baholashning ham o‘ziga xos zarurlari mavjud.

Bugungi davlatlar o‘rtasidagi murakkab siyosiy-iqtisodiy munosbatlar keskinlashishi hududlarda infratuzilmaning ichki resurslarga asoslangan holda rivojlantirishning ahamiyatini yanada orttiradi.

### 1.3-jadval

#### Infratuzilmani rivojlantirishda resurslarning guruhlanishi<sup>36</sup>

Guruh tipi	Guruh nomi
<b>Asosiy ishlab chiqarish uchun zarur bo‘lgan resurslar</b>	moliyaviy
	tehnika va xom-ashyoviy
	ekologik
	ijtimoiy va mehnat
<b>Strategik-innovatsion rivojlanish uchun zarur bo‘lgan resurslar</b>	tadbirkorlik
	innovatsion
	investitsion
	boshqaruv

Yuqoridagi jadval ma’lumotlaridan ma’lum bo‘ladiki, infratuzilmani rivojlantirishda resurslarning xususiyatiga ko‘ra, shartli ravishda, ikki guruhga ajratiladi. Birinchisi, tadbirkorlik faoliyatini boshlashdagi ahamiyatiga ko‘ra, ikkinchisi esa, faoliyatni rivojlantirishdagi muhimligiga ko‘ra guruhga ajratildi.

Ho‘sh, infratuzilma rivojlanishining resurslarga asoslanganligi nimalarda ko‘rinadi? Resurslarga asoslangan usul ishlab chiqarish omillari iste’moli xarajatlarini optimallashtirishga va tadbirkorlik sub’yektlari samaradorligini oshirishga yordam beradi. Bu jarayon investitsiyalarni ijtimoiy-iqtisodiy infratuzilmaga oqimini ta’minlaydi, yangi ish o‘rinlari yaratadi, mahalliy tadbirkorlarga va bozorlarga stimull beradi.

Ichki resurslarga asoslangan holda infratuzilmani rivojlantirish qachon afzal ko‘riladi:

- davlat tomonidan moliyalashtirish samarasiz bo‘lganda:

<sup>36</sup> Muallif tomonidan tizimlashtirildi

➤ davlat rivojlanish maqsadlari hududiy bandlikni ta'minlashni va aholiga daromad manbalarini yaratishga yo'naltirilganda:

➤ hududlarning o'zining ichki resurslari ishchi kuchi hajm va sifat jihatdan, xom-ashyo va materiallar kabilar yetarli bo'lganida:

➤ hududlarda ishsizlar hamda ishlagan holda ham kam daromadlilar soni yuqori bo'lganda.

Ichki resurslarga asoslangan infratuzilmaning ham o'ziga yarasha foydali tomonlari mavjud va ular Xalqaro mehnat tashkilotining 2010 yildagi "Local Resource-Based Approaches for Infrastructure Investment" nomli nashrida quyidagilar orqali izohlanadi<sup>37</sup>:

✓ ijtimoiy-iqtisodiy uchun zarur bo'lgan bazaviy infratuzilmaning tarkibiy qismlari bilan ta'minlaydi:

✓ hududdagi malakasiz ishchilar, kambag'al erkak va ayollar uchun ish o'rinlari yaratishga zamin yaratadi:

✓ mahalliy tadbirkorlikka stimull beradi va iqtisodiy faollikni oshirishga ko'maklashadi:

✓ hududiy investitsion jozibadorlikning yaxshilanishiga olib keladi:

✓ iqtisodiy ko'rsatkichlar (YIM, xususiy iste'mol, xususiy investitsiya, to'lov balansi va h.k.z) ga bevosita va bilvosita ta'sir etadi.

✓ inqiroz vaqtida ichki resurslarga asoslangan holda Infratuzilmani rivojlantirish juda ham qadrlanadi.

#### 1.4- jadval

##### Ichki resurslar va jalb qilingan resurslar tavsifi<sup>38</sup>

<b>Ichki resurslar o'z ichiga oladi:</b>	<b>Jalb qilingan resurslar o'z ichiga oladi:</b>
hududiy ishchi kuchi	tashqi ekspertlar va ishchilar
hududiy bilim, malaka va madaniyat	jalb qilingan materiallar va asbob-uskunalar
mahalliy ishlab chiqarilgan asbob-uskunalar	

<sup>37</sup> Xalqaro Mehnat Tashkilotining, "Local Resource-Based Approaches for Infrastructure Investment – source book" International Labour Office Sub-Regional Office for Southern Africa Harare, Zimbabwe 2010

<sup>38</sup> Muallif tomonidan tayyorlandi

hududiy kichik biznes va tadbirkorlik sub'yektlari	tashqi institut va tashkilotlar
<b>Ichki resurslardan foydalanish</b>	<b>Jalb qilingan resurslardan foydalanish</b>
mahalliy valyutada to'lov	xorijiy valyutada to'lov
hududiy ish o'rinlari yaratish	boshqa hududlarda ish o'rni yaratish
hududiy talab va taklifni rag'batlantirish	boshqa hudud iqtisodiyotiga hissa qo'shish
hududiy tadbirkorlik sub'yektlarini rag'batlantirish	boshqa hudud ishlab chiqaruvchilarini rag'batlantirish

Yuqoridagi jadvaldagi mulohazalardan ko'rish mumkinki, infratuzilma rivojlanishining ichki resurslarga asoslanishi albatta yerlik aholi va tadbirkorlik sub'yektlari uchun imkoniyatlarni yanada kengaytiradi.

Kichik biznes va tadbirkorlikda samaradorlikni baholash va unga ta'sir etuvchi omillarni saralashda turlicha yondashiladi. Ulardan biri Solov modeli hisoblanadi. Uning umumiy ko'rinishi quyidagicha:

$$y_{it} = \beta_0 + \beta_k k_{it} + \beta_l l_{it} + \omega_{it} + \eta_{it},$$

Bu yerda:

i-firma identifikatsiyasi, t-vaqt, k-kapital, l-ishchi kuhi, y-firma daromadi, w-umumiy omil samaradorligi va n-tasodifiy xatoliklar.

Rus iqtisodchisi Y.Ponamoryov tomonidan umumiy omil samaradorligiga aholi jon boshiga daromad, ishsizlik, sohta o'garuvchi (hududlarning aholi soni bo'yicha guruhlanishi), transport tizimining rivojlanish darajasi va transport tizimining sifat darajasi kabilarni kiritgan holda quyidagicha modeldan foydalangan.


$$\omega_{it} = \gamma_0 + \gamma_{gdp} gdp_{it} + \gamma_{unempl} unempl_{it} + \gamma_{size} size_{it} + \gamma_{transp} transp_{it} + \gamma_{rur} road\_ut\_rate_{it} + \varepsilon_{it},$$

Iqtisodchi bu orqali infratuzilma tarkibiga kiruvchi transport tizimining ishlab chiqarish samaradorligidagi ahamiyatini ko'rsatishga uringan<sup>39</sup>.

<sup>39</sup> Юрий Юрьевич Пономарев. "Влияние транспортной инфраструктуры на совокупную факторную производительность фирм: оценка для городов России" Экономическая политика, vol. 17, no. 1, 2022, pp. 102-125. doi:10.18288/1994-5124-2022-1-102-125

Bizning fikrimizcha kichik biznes va tadbirkorlikning samaradorligiga ta'sir etuvchi infratuzilmalarni "qattiq" hamda "yumshoq" tarzda guruhlagan holda ularning ahamiyatini kapital hamda ishchi kuchi orqali kuzatish mumkin.

Yumshoq infratuzilma tarkibiga kiruvchi sog'liqni saqlash, ta'lim, sud-huquq tizimi, moliya tizimi kabilar inson kapitaliga ijobiy ta'sir etgan holda kichik biznes va tadbirkorlik samaradorligini oshirishga hissa qo'shadi.



**1.4-rasm. Qattiq va yumshoq infratuzilmalarning kichik biznes va tadbirkorlik faoliyati bilan bog'liqligi<sup>40</sup>**

Yuqoridagi chizmadan anglash mumkinki, qattiq hamda yumshoq infratuzilmalar kichik biznes va tadbirkorlik sohasiga samaradorlik jihatidan ikki xil: kapital va ishchi kuchi orqali ta'sir etishi mumkin.

### I bob bo'yicha xulosalar

- Infratuzilmani yanada rivojlantirish yuzasidan olib borilgan ilmiy tadqiqotlar va ishlanmalarda ilgari surilgan qarashlar shuni ko'rsatadiki, infratuzilmaning ahamiyati, qanday qilib uni doimiy rivojlantirish, zamonga moslashtirish, shakllantirish va rivojlantirish manbalari xususida fikr va mulohazalar hali to'liqlik va mukammallik kasb etmagan;

- Tadbirkorlik infratuzilmasini rivojlantirish bo'yicha yuritilgan fikr va mulohazalar zamon va makon talablaridan kelib chiqib bir-biridan farq qilgan va ayrim jihatlari nomutanosiblik kasb etgan;

<sup>40</sup> Muallif tomonidan tayyorlandi

- Infratuzilma bo'yicha yuritilgan fikr va mulohazalardan kelib chiqib aytish mumkinki, ushbu termin uchun aniq bir qoida sifatida keltirilgan ta'rif mavjud emas. Yuqoridagi qarashlardan kelib chiqib infratuzilma uchun quyidagicha ta'rif berishimiz mumkin: infratuzilma – bu ijtimoiy-iqtisodiy hayot rivojlanishi va farovonligi uchun xizmat qiluvchi shart-sharoitlar yig'indisidir.

- Tadbirkorlik infratuzilmasini rivojlantirish murakkab jarayon hisoblanib, hududlar kesimida infratuzilmani rivojlantirish bo'yicha mutanosiblik ta'minlanishi zarur. Aks holda, hududlarda kapital to'planishiga va buning oqibatida turli xil ijtimoiy-iqtisodiy muammolar yuzaga kelishiga sabab bo'lishi mumkin;

- Tahlil etilgan fikr va mulohazalardan keyin kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirishdagi ahamiyatidan kelib chiqib, aytish mumkinki infratuzilma samarali ishlab chiqarishni va sifatli ijtimoiy hayotni ta'minlaydi, ishlab chiqarish kuchlarini bir-biri bilan samarali bog'laydi, ishlab chiqarish samaradorligiga ijobiy ta'sir etgan holda, kapital aylanishini tezlashtirish kabi vazifalarini farqlash mumkin.

- Kichik biznes va tadbirkorlik uchun infratuzilmani rivojlantirishda ichki resurslarga tayanish hududlar iqtisodiyotining bir-biriga bosimini va ular o'rtasidagi nomutanosibliklarning oldini olish imkoniyatini yaratadi.

## **II BOB. O'ZBEKISTONDA KICHIK BIZNES VA TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING ISHLAB CHIQARISH INFRATUZILMASI BILAN TA'MINLANGANLIK DARAJASI TAHLILI**

### **2.1.-Kichik biznes va tadbirkorlik faoliyatining hududlar kesimida shakllanganligi holati tahlili**

Mamlakatimiz mustaqilligini e'lon qilganidan buyon uning asosiy iqtisodiy maqsadlaridan biri korxonalarni xususiylashtirish, mulkdorlar va tadbirkorlar sinfini yaratish bo'ldi. Hukumat davlat mulki huquqlarini tadbirkorlar va jismoniy shaxslarga berishni maqsad qilgan holda, bozor iqtisodiyotiga o'tishi jarayonida xususiylashtirishga ruxsat berilgan firmalar hamda korxonalar soni va turlari ko'paydi.

29 yoshgacha bo‘lgan aholisining uchdan bir qismi va aholining yarmi qishloqlarda istiqomat qiladigan O‘zbekiston Markaziy Osiyoda eng yuqori aholi zichligiga ega davlatlardan biri hisoblanadi. Mamlakatda ish o‘rinlari yaratish dolzarb va qiyin masaladir, chunki har yili 29 yoshgacha bo‘lgan 800 ming kishi mehnat resurslariga tarkibiga kiradi.<sup>41</sup> O‘zbekiston Prezidenti kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish hozirgi kunda davlat siyosatining ustuvor vazifasi ekanini tez-tez ta’kidlab keladi. Kichik biznes bugungi kunda iqtisodiy o‘sish, yalpi ichki mahsulotning ko‘payishi, ishsizlik, qashshoqlik, ayniqsa, xotin-qizlar va yoshlar o‘rtasidagi yashash sifatining pastligi kabi dolzarb ijtimoiy muammolarga asosiy yechim sifatida e’tirof etilmoqda.

Yakka tartibdagi tadbirkorlik egalari, mikro va kichik firmalar O‘zbekistondagi kichik biznesga misol bo‘la oladi. Foyda tarkibi yoki mulkchilik shakli hisobga olinmagan holda, korxonada hajmi undagi faoliyat yuritayotgan xodimlar soni bilan belgilanadi. Sanoat turlari bo‘yicha, turli xil xodimlar soni chegaralari firmalarni kichik yoki o‘rta biznes ekanligini aniqlash uchun qo‘llaniladi.

Mamlakatimiz qonunchiligida o‘rta biznesning batafsil ta’rifi yo‘q. Biroq, Prezidentimiz SH.M.Mirziyoyevning qarori loyihasida aytilishicha, 2019-yil 1-anvardan boshlab hukumat qonunga o‘zgartirishlar kiritishni va kichik firma sifatida qarash uchun zarur bo‘lgan talablar doirasini kengaytirishni maqsad qilingan<sup>42</sup>. Qonun loyihasiga ko‘ra quyidagi tashkilotlar kichik va o‘rta biznes sub’yektlari toifasiga kiritiladi:

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni aniqlashda xalqaro amaliyot va mezonlar har doim ham mos kelmasligi mumkin. Xalqaro shartnomalarda KBT ta’rifi, shuningdek, ishchi kuchi hajmi mezoniga qo‘shimcha ravishda yillik aylanma, sotish yoki sohaga xos omillarni hisobga oladi. Davlat tomonidan belgilangan soliq (masalan, alohida tarmoqlarni rag‘batlantirish) yoki statistik (masalan, mehnat unumdorligini solishtirish) majburiyatlari bo‘yicha, sohaga oid

---

<sup>41</sup> ADB Sector Assessment <https://www.adb.org/sites/default/files/linked-documents/42007-014-ssa.pdf> (accessed 26 September 2018)

<sup>42</sup> “Raqobatbardosh kompaniyalar tashkil etish maqsadida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub’yektlarini kengaytirishni yanada rag‘batlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Prezident qarori loyihasi. Qarang: <https://regulation.gov.uz/ru/document/639>



o‘zgarishlarni saqlash muhim ahamiyatga ega. O‘zbekistonda KBT toifasidan soliqqa tortish maqsadida foydalanish iqtisodiy taraqqiyot va yangi ish o‘rinlari yaratishga to‘sqinlik qiladi. Bundan tashqari, ish beruvchilar orasida mehnatga yo‘llashning yarim kunlik, qisman yoki vaqtinchalik bandlik kabi turlarining tobora keng tarqalishi, KBTni xodimlar soni bo‘yicha aniqlash imkonini yanada qiyinlashtiradi.

KBTning texnik tuzilmasini takomillashtirish, kredit resurslariga bo‘lgan ehtiyojni qondirish va biznes uchun qulay muhitni shakllantirish maqsadida davlat tomonidan kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni tartibga solish va qo‘llab-quvvatlash tizimi joriy etilgan. Ushbu sa’y-harakatlar KBTning mamlakatimiz yalpi ichki mahsulotiga qo‘shadigan hissasini oshirish va aholi uchun ish o‘rinlarini yaratishga qaratilgan. KBT faoliyatining o‘rishini samarali boshqarish tufayli 2021-yil yakuniga ko‘ra O‘zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik korxonalarini tomonidan mamlakatimiz yalpi ichki mahsulotining 54,9 foizi, sanoat mahsulotining 27,0 foizi, qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining 99,4 foizi ishlab chiqarildi va asosiy kapitalga investitsiyalar hajmining 38 foizi yo‘naltirildi.

## 2.1.-jadval

### O‘zbekistonda kichik korxonalar va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishning asosiy ko‘rsatkichlari (foizlarda ifodalangan)

Ko‘rsatkichlar	YIM	Sanoat	Investitsiya	Qurilish	Bandlik	Eksport	Import
<b>2010</b>	60,8	26,6	52,5	52,5	74,3	13,7	35,8
<b>2011</b>	61,9	28,6	57,1	67,6	75,1	18,8	34,3
<b>2012</b>	60,8	29,7	56,0	70,0	75,6	14,0	38,6
<b>2013</b>	60,9	33,0	57,9	70,6	76,7	26,2	42,4
<b>2014</b>	61,9	36,8	57,6	69,5	77,6	27,0	45,4
<b>2015</b>	64,6	40,6	56,2	66,7	77,9	27,0	44,5
<b>2016</b>	66,8	45,3	54,4	66,9	78,2	26,0	46,8
<b>2017</b>	65,3	41,2	47,3	64,8	78,0	22,0	53,6
<b>2018</b>	62,4	37,4	42,0	73,2	76,3	27,2	56,2

<b>2019</b>	56,0	25,8	29,3	75,8	76,2	27,0	61,6
<b>2020</b>	55,7	27,9	40,8	72,5	74,5	20,5	51,7
<b>2021</b>	54,9	27,0	38,0	72,4	74,4	22,3	48,7
<b>2022</b>	51,8	26,0	36,0	71,5	73,9	29,6	49,4

*Manba: O‘zbekiston Respublikasi Statistika qo‘mitasi*

Butun mamlakat eksport ko‘rsatkichlariga nisbatan kichik va o‘rta korxonalarining eksport ko‘rsatkichlari 2010-yildagi 13,7 foizdan 2022-yilda 29,6 foizgacha o‘tdi. 2022-yilda kichik va o‘rta korxonalar importi barcha importning deyarli yarmini tashkil etdi. Yuqoridagi ko‘rsatkichlar sezilarli sof eksportni o‘sayotganini ko‘rsatsa-da, KBTsub‘yektlarining katta qismi, ayniqsa savdo va ishlab chiqarish tarmoqlari importga yo‘naltirilganligini ko‘rish mumkin. KBTsub‘ektlari tomonidan kiritilgan investitsiyalar ulushi 2010 yildagi 52,5 foizdan 2022-yilda 36 foizgacha kamaydi, bu pasayishni esa pandemiya va global iqtisodiyotda mavjud turg‘unlikning ta‘siri deb baholansa to‘g‘ri bo‘ladi. So‘nggi yillardagi makroiqtisodiy ko‘rsatkichlarni tahlil qiladigan bo‘lsak, ularning ayrimlari sezilarli pasayishni ko‘rsatgan, bu esa tashvishli holat, albatta. Masalan, KBT ning YIMdagi ulushi 2016-yilda 66,8 foizni tashkil, etadi ammo 2022-yilga kelib bu ko‘rsatkich 51,8 foizga kamaygan, shu sababli KBTning jami sanoat mahsulotlaridagi ulushi 2016-yilda 45,3 foiz bo‘lgan bo‘lsa, 2022-yilga kelib uning ulushi 36 foiznigina tashkil etganini ko‘rishimiz mumkin (2.1.1.-jadval). Ko‘plab tadqiqotchilar ushbu pasayish tendensiyalarini COVID-19 tufayli yuzaga kelgan iqtisodiy inqiroz bilan bog‘lashmoqda. Bu esa ilmiy va amaliy jihatidan isbot talab qilmaydigan gipoteza desak ham bo‘ladi. Pandemiya natijasida nafaqat mamlakatimizda faoliyat olib borayotgan ishlab chiqarish sub‘yektlari, balki butun dunyodagi kichik biznes va tadbirkorlik egalari jiddiy muammolarga duch kelishdi.

GIH (Global Infrastructure Hub) prognoziga ko‘ra, 2040-yilga borib butun dunyo bo‘ylab 94 trillion AQSH dollari miqdoridagi infratuzilmani rivojlantirish uchun investitsiyalarini yo‘naltirish zarurligi kutilmoqda. Osiyo-Tinch okeani mintaqasida infratuzilmani rivojlantirishga zarur miqdorning yarmidan ko‘pi talab qilinadi. Bundan tashqari, OTB (Osiyo taraqqiyot banki)ning prognozlariga ko‘ra,

rivojlanayotgan Osiyo davlatlarida iqtisodiy o‘shni ta’minlash uchun kelgusi o‘n yil ichida YIMning 5 foizi miqdorida infratuzlimani rivojlantirish uchun investitsiyalar jalb etilishi talab qilinadi<sup>43</sup>.

Ko‘pgina infratuzilma tizimlari hozirda davom etayotgan COVID-19 epidemiyasi tufayli juda qiyin vazifaga duch kelmoqda. Transport va elektr energiyasi kabi muhim tarmoqlardagi infratuzilma tarmoqlari ayniqsa bu borada katta zarar ko‘rdi.

2022-yil 1-yanvar holatiga ko‘ra, O‘zbekistonda yuridik jihatdan tan olingan va faoliyat yuritayotgan barcha sub’yektlarning 90 foizi 462,6 mingga yaqin kichik biznes korxonalarini tashkil etadi. Agar yashirin iqtisodiyot hisobga olinsa, kichik biznes sub’yektlari soni bundanda ko‘proq bo‘lishi mumkin.

So‘nggi bir necha yil ichida mamlakatimizda kichik biznesning rivojlanish tendensiyasi sekin kechdi, bu esa KBT sub’yektlari moliyalashtirish va qulay iqtisodiy muhitda ishlashda muammolarga duch kelayotganini anglatishi mumkin. Bundan tashqari, kichik korxonalarining katta qismi soddalashtirilgan soliqqa tortish tizimi asosida faoliyat yuritadi, bu bir tomondan biznes yuritishni osonlashtirsada, boshqa tomondan korporativ kengayishga salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

2022-yil holatiga ko‘ra, O‘zbekiston aholisining qariyb 8,9 foizi ishsiz va hisob - kitoblarga ko‘ra, ushbu yosh guruhidagi har 10 kishidan 1 nafari ish izlamaydi, chunki ular o‘zlariga mos ish topilmaydi, deb o‘ylaydilar. Yoshlar ishsizligi mamlakatdagi o‘rtacha ko‘rsatkichdan ikki baravar ko‘p, taxminan 18%<sup>44</sup>.

Rasmiy ma’lumotlarga ko‘ra, KBT ish o‘rinlarining 75 foizini tashkil etadi, bu 2000-yildagi ko‘rsatkichdan 50 foizga ko‘p, bu kichik biznesni iqtisodiyotdagi eng yirik ish beruvchiga aylantiradi. O‘zbekistonda har to‘rt ish o‘rnining uchtadan ortig‘i kichik korxonalar hissasiga to‘g‘ri keladi va ularning 60 foizdan ortig‘i qishloq joylarda joylashgan<sup>45</sup>. Yakka tartibdagi tadbirkorlar band bo‘lganlarning 60% dan ortig‘ini tashkil qiladi, kichik va mikro kompaniyalar esa ishchi kuchini atigi 14% ni ish bilan ta’minlaydi.

---

<sup>43</sup> [https://cdn.gihub.org/umbraco/media/5012/gi-hub-annual-report-2021-22-e-version\\_updated-6-12-2022.pdf](https://cdn.gihub.org/umbraco/media/5012/gi-hub-annual-report-2021-22-e-version_updated-6-12-2022.pdf)

<sup>44</sup> <https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/labor-market-2>

<sup>45</sup> O‘zlat Mexnat bozori <https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/labor-market-2>

Pul, investitsiya, mulkiy va boshqa mexanizmlar salohiyatidan samarali foydalanish, kichik korxonalarni rivojlantirish uchun qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish, kichik korxonalar va xususiy tadbirkorlikni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashning iqtisodiy va siyosiy mexanizmlarini kuchaytirish hamda tadbirkorlik uchun qulay infratuzilmani rivojlantirish jahon iqtisodiyotida muhim ahamiyat kasb etadi.

Qayta takrorlanayotgan jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning ahamiyati yanada oshdi, chunki ular iqtisodiyotda tarkibiy o‘zgarishlarni amalga oshirish orqali xususiy mulkga egalik qilish va xususiy tadbirkorlikning rivojlanishi uchun keng imkoniyatlarni ochishga xizmat qila oladi.

Statistik ma’lumotlarga ko‘ra, rivojlangan davlatlarda kichik biznes va tadbirkorlikning YIMdagi va aholi bandligini ta’minlashdagi hissasi quyidagicha: Xitoyda – bandlik 81,4%, YIM 54,3%; Yaponiyada - mos ravishda bandlik 70,8%, YIM 67,0%; AQSHda – bandlik 50,6% va YIMning 53,1%ni tashkil etadi<sup>46</sup>.

Tadqiqotlar davomida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub’ektlari ulushining o‘zgarishi YIM da 2010-yilda 60,8 dan 2022-yilda 51,8 foizga kamaygan bo‘lsa, sanoat tarmoqlarida 26,6 foizdan 27 foizga, qurilishda 52,5 foizdan 72,4 foizga, mehnatga layoqatli aholini ish bilan band qilish ko‘rsatkichlari esa 74,3 foizdan 74,4 foizga, eksportdagi ulushi esa 13,7% dan 22,3% gacha oshganini ko‘rish mumkin. Shu bilan birga, kichik biznes sub’yektlari tarmoqlar bo‘yicha taqsimlanganda, savdo va aholiga xizmat ko‘rsatuvchi tadbirkorlik sub’yektlari salmog‘i ortishi davom etmoqda (45,9%).

Tadqiqot jarayonida mamlakat iqtisodiy o‘shishining ijtimoiy-iqtisodiy afzalliklari va mintaqaviy rivojlanish xususiyatlari aniqlandi. 2000 va 2022-yillar oralig‘ida mamlakatda KBTning o‘shishi tendensiyasi kuzatildi, ro‘yxatdan o‘tgan sub’yektlar soni 2,6 baravarga va faoliyat yurituvchi sub’yektlar soni 2,9 baravarga o‘tdi.

## 2.2.-jadval

### **Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning iqtisodiyot tarmoqlaridagi asosiy ko‘rsatkichlari hajmi**


<sup>46</sup> <http://www.ifc.org.msmeconomyindicator>

Ko'rsatkichlar	2015	2016	2017	2018	2019	2020	2021	2022
Sanoat (mlrd.so'm)	39643,5	50654,5	61367,8	87962,0	83344,2	103020,8	121719,2	143892.7
Qurilish (mlrd.so'm)	16954,0	19671,0	22469,4	37451,7	53960,9	63866,6	77762,0	93554.5
Bandlik (ming kishi)	10170,4	10397,5	10541,5	10128,8	10318,9	9865,7	10070,7	10131.1
Eksport (mln.AQSH.dol)	3377,7	3139,2	2759,3	3810,8	4714,8	3100,9	3711,2	5712.9
Import (mln.AQSH.dol)	5523,1	5676,8	7511,9	10916,2	14972,2	10943,3	12389,0	15213.6
Savdo (mlrd.so'm)	61972,3	78935,6	92973,0	114896,4	138920,7	164106,1	204787,4	229166.7
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi (mlrd.so'm)	101197,5	118011,4	152010,5	191759,2	219466,9	253238,2	307280,2	344134.5
Xizmatlar (mlrd.so'm)	47269,6	61346,2	69212,7	84433,4	103106,6	114052,7	144812,7	181245.0
Yuk tashish (mln.tonna)	472,8	538,6	548,8	611,7	641,0	638,9	678,9	608.2
Yuk aylanmasi (mln.tonna-km)	9225,1	10072,4	10444,4	11657,7	12152,3	12304,6	13108,1	14843.8
Yo'lovchi tashish (mln.yo'lovchi)	4486,3	4866,5	5037,5	5242,6	5345,0	4904,8	5237,6	5628.4
Yo'lovchi aylanmasi (mln.pass.km)	99872,8	107789,7	111435,0	115335,2	117412,7	107766,7	114681,5	124433.9

**Manba:** O'zbekiston Respublikasi Statistika qo'mitasi.

O'zbekistonda barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash borasida amalga oshirilayotgan islohotlar respublika iqtisodiyotida xususiy mulkning roli va o'rnini sezilarli darajada oshirish, iqtisodiyotda davlat rolini pasaytirish, yalpi ichki mahsulotda xususiy mulk hissasining barqaror o'sishini ta'minlashga qaratilgan. Hududlarda ishlab chiqaruvchilar uchun qulay infratuzilmani shakllantirish, moliyaviy, kredit resurslaridan foydalanishni osonlashtirish va ishbilarmonlik muhitini yaxshilash borasida olib borilayotgan islohotlar samarasi natijasida kichik

biznes va xususiy tadbirkorlikning soni 2010 yildagi 31 foizdan 2022 yilda 57,5 foizga yoki 1,8 barobarga oshdi.



*Manba: O'zbekiston Respublikasi Statistika qo'mitasi*

### 2.1.-rasm Kichik biznes va tadbirkorlikning YIM va aholi daromadlari o'rtasidagi bog'liqligi.

2.1.-rasmda ko'rsatilganidek, aholining real daromadlari 2010-yildagi 20,1 foizdan 2021-yilda 9,9 foizga kamaydi, bu ko'p jihatdan norasmiy sektorda bo'lsa-da kichik va o'rta biznesning ko'payishi bilan nomutanosiblikda sodir bo'ldi. Keng tarqalgan to'rtta ko'rsatkich - (I) korxonalar soni; (II) bandlik; (III) milliy ishlab chiqarish; va (IV) eksport - KBTning iqtisodiyotdagi ahamiyatini aniqlaydi. 2000-yildan buyon O'zbekistonda kichik va o'rta korxonalar iqtisodiy o'sish va ish o'rinlarini yaratishga katta hissa qo'shmoqda. Harakatlar strategiyasi qabul qilingandan keyin amalga oshirilgan islohotlar va davlat dasturlari ortidan 2017-yildan buyon bu tendensiya yanada kuchaydi.

### 2.3.-jadval

**Hududlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan kichik tadbirkorlik sub'ektlari soni (dehqon va fermer xo'jaliklarisiz, 1 yanvar holatiga ko'ra, birlikda)**

Hududlar	2016	2017	2018	2019	2020	2021	2022
<b>O'zbekiston Respublikasi</b>	<b>207104</b>	<b>210594</b>	<b>229666</b>	<b>262930</b>	<b>334767</b>	<b>411203</b>	<b>462834</b>
Qoraqalpog'iston Respublikasi	9642	9638	10539	11985	14677	18288	19998
Andijon	21982	21713	20342	22560	25807	31683	34999

Buxoro	11141	11615	12648	14805	19981	24809	27690
Jizzax	7881	8013	9310	11197	14011	17725	19463
Qashqadaryo	14870	13785	14347	16218	20304	25297	31152
Navoiy	6728	6731	7569	9104	14885	17931	20472
Namangan	14094	14667	15949	16975	21461	26531	28949
Samarqand	13840	13981	16005	19629	25643	33114	40724
Surxondaryo	9061	9418	10409	11618	15509	21563	24395
Sirdaryo	6499	6954	7462	8318	11026	13360	13808
Toshkent	19546	19458	21647	25410	32602	40223	44156
Farg‘ona	18108	17802	20225	23304	29300	36117	40403
Xorazm	10298	10384	10900	11815	15453	18875	21984
Toshkent.Shaxri	43414	46435	52314	59992	74108	85687	94641

*Manba: O‘zbekiston Respublikasi Statistika qo‘mitasi*

2.3.-jadvaldan ko‘rishimiz mumkinki, mamlakatimizda so‘nggi yillarda olib borilayotgan islohotlar samarasi o‘laroq KBT bilan shug‘ullanuvchi korxonalarini soni sezilarli darajada o‘tdi. Eng ko‘p KBT ishlab chiqarish sub‘yektlari faoliyat olib borayotgan hudud Toshkent shahri bo‘lsa (2022-yil 1-yanvar holatiga ko‘ra 94641 ta KBT sub‘yektlari), undan keyingi o‘rinlarda Toshkent viloyati., Samarqand va Farg‘ona shaharlarini ko‘rish mumkin (mos ravishda 44156, 40724, 40403 ta KBT sub‘yektlari 2022-yil 1-yanvar holatiga ko‘ra). Sirdaryo, Jizzax, Xorazm viloyatlari va Qoraqalpog‘iston Respublikasi esa mamlakatimizda eng kam KBT sub‘yektlari faoliyat yurituvchi hududlar bo‘lib qolishmoqda. Respublikamiz hududlarida KBT korxonalarini sonining notekis joylashuvining eng muhim omillaridan biri bu mavjud infratuzilmaning bir viloyatda ikkinchisidan keskin farq qilishidadir.

Joriy yilning aprel oyi holatiga ko‘ra 66330 ta yangi tadbirkorlik sub‘yekti tashkil etilgan bo‘lib, ularning asosiy qismi Samarqand (8192 ta), Farg‘ona (6323 ta), Toshkent (5653 ta), Qashqadaryo (5592 ta), Andijon (5280 ta) tumanlari va Toshkent shahrida ro‘yxatga olingan. (9392)<sup>47</sup>.

<sup>47</sup> HUDUDLARNING ISHBILARMONLIK FAOLIGINING 2022 YIL APREL OYIDAGI ASOSIY KO‘RSATKICHLARI QANDAY O‘ZGARGAN

<https://review.uz/uz/post/kak-izmenilis-klYucheve-pokazateli-biznes-aktivnosti-regionov-uzbekistana-v-aprele>

**Iqtisodiyot tarmoqlari kesimida faoliyat ko‘rsatayotgan kichik tadbirkorlik  
sub’yektlari soni (dehqon va fermer xo‘jaliklarisiz,  
1 yanvar holatiga ko‘ra, birlikda)**

<b>Tarmoqlar</b>	<b>2014</b>	<b>2015</b>	<b>2016</b>	<b>2017</b>	<b>2018</b>	<b>2019</b>	<b>2020</b>	<b>2021</b>	<b>2022</b>
<b>Jami</b>	<b>189867</b>	<b>196014</b>	<b>207104</b>	<b>210594</b>	<b>229666</b>	<b>262930</b>	<b>334767</b>	<b>411203</b>	<b>462834</b>
Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi	16627	16739	17357	17962	20530	23975	28847	40719	45897
Sanoat	36128	38977	41066	42847	48566	56233	69970	82746	90313
Qurilish	18374	19616	20863	21790	23807	28955	36021	40695	43410
Savdo	57376	57690	58930	61214	62714	70457	100573	131597	156539
Tashish va saqlash	7813	8486	9488	10631	11779	13121	15157	17056	18045
Yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar	11905	12969	14194	15293	16964	19656	25461	29947	32948
Axborot va aloqa	6396	6443	6327	6201	6167	6738	7621	9221	10247
Sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar	5755	5695	5772	3709	4417	5364	6370	7588	8814
boshqa turlari	29493	29396	33107	30947	34722	38431	44747	51634	56621

*Manba: O‘zbekiston Respublikasi Statistika qo‘mitasi*

Pandemiya davrida kichik firmalar duch kelgan qiyinchiliklarga qaramay, tadbirkorlik hayratlanarli o‘shish sur‘atlarini ko‘rsatmoqda. Shunday ekan, agar 2016-yilda 268 ming faol tadbirkorlik sub’yekti bo‘lgan bo‘lsa, 2021 yilda 529 mingtaga yetdi (2 marta o‘shish). Agar 2016-yilda 33 mingdan ortiq yangi tashkil etilgan tadbirkorlik sub’ektlari bo‘lgan bo‘lsa, 2021-yilda ularning soni 103 mingdan oshdi (3,1 barobar ko‘payish). Xususiyl sektor korxonalarida qariyb 5 million kishi mehnat qilayotganini Prezident tadbirkorlar bilan muloqot chog‘ida ta’kidladi, kichik biznes sub’yektlari soni so‘nggi besh yil ichida uch baravar ko‘paygan<sup>48</sup>.

<sup>48</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning mamlakatimiz tadbirkorlari bilan ochiq muloqot shaklidagi uchrashuvda so‘zlagan nutqi <https://xs.uz/uzkr/post/ozbekiston-respublikasi-prezidenti-shavkat-mirziyoevning-mamlakatimiz-tadbirkorlari-bilan-ochiq-muloqot-shaklidagi-uchrashuvda-sozlagan-nutqi>



2021-yilda kichik biznes sub'yektlarining milliy iqtisodiyotda yaratilgan mahsulotlardagi ulushi quyidagicha: ishlab chiqarish (27%), qurilish (72%), yalpi ichki mahsulot (55%), bandlik (74%) va eksport (22%).

2022-yil birinchi yanvar holatiga ko'ra iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha tadbirkorlik sub'yektlari soni quyidagicha berilgan: 157 mingta tadbirkorlik sub'yekti savdoda, 91 ming tasi sanoatda, 46 ming tasi qishloq xo'jaligida, 44 ming tasi qurilishda, 33 ming tasi turar joy va oziq-ovqat, 18 ming tasi saqlash va transportda va 10 ming tasi axborot va aloqa, 9 ming tasi sog'liqni saqlash va 56 ming tasi boshqa sohalarida faoliyat yuritib kelmoqdalar (2.4.-jadvalga qarang).

Kichik biznes va tadbirkorlik salohiyati turli islohotlar orqali amalga oshirila boshlandi. "Yagona darcha" litsenziyasi va soliq ma'muriyatchiligi tizimi, litsenziya va ro'yxatga olish tartib-taomillarining soddalashtirilgani, korxonalarni davlat tomonidan tekshirishning sezilarli darajada qisqartirilgani tadbirkorlik muhitini yaxshilash bo'yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlardan biridir. Ko'plab davlat organlarining funksiyalarini belgilovchi va davlat faoliyatini tartibga soluvchi qo'shimcha ma'muriy islohotni amalga oshirish uchun davlat tovarlari bilan ta'minlash samaradorligini oshirish zarur. 2018-yilda soliq, byudjet va bojxona to'lovlari kabi muhim tarkibiy o'zgarishlar kutilmoqda. Boshqa islohotlar bilan bir qatorda valyutani liberallashtirish o'yin maydonini tenglashtiradi, raqobatbardoshlikni oshiradi va kompaniyalarga o'zlarining qiyosiy ustunliklaridan foydalanish imkonini beradi. Bundan avvalambor erkin valyuta ayirboshlash, xalqaro savdo kanallari, moliya va boshqa turdagi davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanadigan imtiyozlarga ega bo'lgan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'yektlari, ayniqsa, ko'proq foyda ko'radilar.

2021-yilda Prezident SH.M.Mirziyoyev tadbirkorlar bilan tashkil etilgan uchrashuvda ularning murojaat va takliflaridan kelib chiqib, tadbirkorlik faoliyatining to'liq va samarali faoliyat yuritishiga to'sqinlik qilayotgan muammolarni hal etish bo'yicha kelgusida amalga oshirilishi lozim bo'lgan 7 ta muhim mavzuni sanab o'tgan edi:

- korxonalarni moliyaviy ta'minlanganlik darajasini oshirish

- soliq kodeksini takomillashtirish va tadbirkorlar uchun soliq yukini kamaytirish
- yerdan foydalanishni osonlashtirish
- infratuzilmani rivojlantirish bilan bogʻliq muammolarni hal qilish
- eksportchilarga yordam berish
- logistika va transport
- biznes jarayonlarini tartibga solish<sup>49</sup>



## 2.2.-rasm. 2017-2021 yillarda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'yektlarining faoliyati infografikasi

Tadqiqot natijalariga koʻra, 2022-yilning 1-yanvaridan 30-apreligacha boʻlgan davrda respublika soliq yigʻimi oʻtgan yilning shu davriga nisbatan 16,8 foizga oshgan. Qoraqalpogʻiston Respublikasi (30,7 foizga), Toshkent shahri (47,3 foizga), Buxoro (37,0 foizga oʻsish), Fargʻona (35,6 foizga), Xorazm (34,6 foizga oʻsish), Samarqand (33,3 foizga oʻsish) viloyatlari va Andijonda (30,2 foizga oʻsish) oʻsha davrda soliq tushumlari sezilarli darajada oshgan.

Ijobiy iqtisodiy oʻzgarishlar, soliq maʼmuriyatchiligi sxemasining takomillashtirilishi, jumladan, yangi tashkiliy vositalarning qabul qilinishi, jarayonlarni raqamlashtirish va avtomatlashtirish, tadbirkorlik faoliyatini huquqiy jihatdan tan olish, soliq qonunchiligiga rioya etish jarayonlarini soddalashtirish – bularning barchasi soliq tushumlarining oʻsishiga xizmat qildi.

<sup>49</sup> <https://www.gazeta.uz/oz/2021/08/23/president-meets-business/>

Infratuzilma - bu jamiyat yoki biznesning yaxshi ishlashi uchun zarur bo'lgan asosiy tashkiliy va jismoniy tuzilmalar hamda inshootlar majmuasidir <sup>50</sup>. Infratuzilma iqtisodiy faoliyat olib borayotgan korxonlarga kamida uch xil yo'l orqali ta'sir qiladi. Birinchidan, infratuzilma manbalarining miqdori va sifati, masalan, toza suv yoki elektr energiyasining mavjudligi investorlarning biznesni boshlash yoki boshlamaslik haqidagi qarorlariga bevosita ta'sir qiladi. Bu uy xo'jaliklari daromadlari darajasiga, davlat soliq tushumlariga va hududning umumiy iqtisodiy ko'rsatkichlariga jiddiy ta'sir ko'rsatadi.

Ikkinchidan, AKT infratuzilmasini takomillashtirish internet foydalanuvchilari, mobil telefon abonentlari va statsionar telekommunikatsiya abonentlari sonining ko'payishiga olib keladi, bularning barchasi samaradorlikni oshirish va ularni bartaraf etish hisobiga iqtisodiy o'sish darajasiga sezilarli va ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Uchinchidan, asfalt yo'llar va temir yo'l liniyalarida zamonaviy infratuzilmani yaratish tadbirkorlik sub'yektlari va mehnat bozori uchun tovarlar bozorini ko'paytirish uchun yangi imkoniyatlarni ochib beradi, bozorni qulaylik va harakatchanlikni oshirish orqali iqtisodiy agentlarga yo'naltiradi. Agar yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, resurslarni taqsimlash, infratuzilmaning o'ziga xos turlariga ega bo'lgan va bo'lmagan hududlar o'rtasida farq qilsa, iqtisodiy natijalarga umumiy ta'sir ko'rsatadigan keng ko'lamlil omillarning asosli tizimli o'zgarishlari bo'lishi kerak.

## **2.2 - O'zbekistonda kichik biznes va tadbirkorlik faoliyati uchun ishlab chiqarish infratuzilmasini yaxshilashning asosiy tendensiyalari**

Iqtisodiyot tarmoqlari unumdorligini oshirish uchun O'zbekiston hozirda mintaqada eng yuqori infratuzilma sig'imiga bo'lgan imkoniyatlarga ega. So'nggi vaqtlarda iqtisodiyotga kiritilgan investitsiyalar mavjud aktivlarni samarali rivojlanishini taminlay olmadi, transport va suv tizimlari islohotlari aholi ehtiyojlari va iqtisodiy o'zgarishlar tendensiyalariga mos kelmadi. Infraturizlmani rivojlantirishga sarflangan xarajatlar har yili o'rtacha 1 milliard dollarni tashkil

---

<sup>50</sup>Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti kutubxonasi

<https://www.oecdilibrary.org/sites/5fd38a3den/index.html?itemId=/content/component/5fd38a3d-en>

etishiga qaramasdan, yo‘l infratuzilmasini yaxshilash sohasida olib borilayotgan qurilish va ta‘mirlash ishlari sezilarli darajada orqada qolmoqda. O‘zbekiston orqali o‘tiladigan yuklarning kutilayotgan hajmini ta‘minlash uchun yo‘l infratuzilmasi sig‘imi 2030-yilga borib 486 foizga, 2050-yilga borib esa 1365 foizga oshishi kerak. Yo‘l transporti hajmi 2015 yildagi 30 foizdan 2050-yilga kelib 50 foizga oshishi rejalashtirilgan.

O‘zbekistonda temir yo‘l transporti xizmatlari hajmi 2030-yilga borib oshishi kutilmoqda, ammo shu bilan birga 2050-yilga kelib bu sohada mavjud xizmatlarga bo‘lgan talab qisqarish ehtimoli yuqori, sababi qo‘shni Tojikiston va Qirg‘iziston Respublikasida qo‘shimcha temir yo‘l liniyalari qurilishi va buning natijasida transport oqimining qisman bu yangi liniyalarga yo‘naltirilishi natijasida sodir bo‘ladi (XTF, 2019)<sup>51</sup>. Energetika sohasidagi samarasizlik iqtisodiyotimizga har yili 1,5 milliard AQSH dollaridan ortiq zarar keltirmoqda, suv va irrigatsiya tizimlarining subparativ holati bilan bog‘liq xarajatlar esa YIMning 8 foizigacha yetgan (Jahon banki, 2016)<sup>52</sup>. Bunday zaif infratuzilmaning iqtisodiyotga va ishlab chiqaruvlarga zarari juda katta.

2000-2020-yillarda O‘zbekistonga kiritilgan 70,1 milliard AQSH dollari miqdoridagi investitsiyalarning 64 foizdan ortig‘i (37,2 milliard AQSH dollari) energetika loyihalari hissasiga to‘g‘ri kelgan bo‘lsa, ishlab chiqarish va transport tarmoqlari ulushi esa mos ravishda 23 foiz va 13 foizni tashkil etdi. Va nihoyat, rejalashtirilgan va amalga oshirilayotgan investitsiya loyihalarining 4 foizi yoki 2,4 milliard AQSH dollari suv ta‘minoti va kanalizatsiya tarmog‘ini rivojlantirishga to‘g‘ri keladi. Barcha energetika loyihalarining deyarli yarmi (45%) yuqori oqim gaz va neft sektoriga to‘g‘ri keladi, qolgan 40% esa energiya ishlab chiqarish loyihalarini tashkil qiladi. Investitsiyalarning 9 foizi neft va gaz quvurlarini qurishga, 6 foizi esa elektr energiyasini uzatish va taqsimlash loyihalariga sarflanadi. Sanoat sohasidagi loyihalarning qariyb 98 foizi ishlab chiqarishga


---

<sup>51</sup> *ITF (2019), Enhancing Connectivity and Freight in Central Asia, International Transport Forum, Paris, <http://www.itf-oecd.org>.*

<sup>52</sup> *World Bank (2016), Systematic Country Diagnostic for Uzbekistan, World Bank, Washington DC, <https://openknowledge.worldbank.org/bitstream/handle/10986/24588/Uzbekistan000S0c0country0diagnostic.pdf?sequence=1&isAllowed=y>.*

to'g'ri keladi, tog' - kon sanoati va kar'yerlarni qazib olish esa atigi 1 foizni tashkil etadi<sup>53</sup>.

O'zbekiston yalpi ichki mahsulotining 1,3 foizi hozirda transport sohasiga sarflangan xarajatlardan iborat. 2005-yildan 2020-yilgacha xarajatlarning biroz o'sishiga qaramay, ichki xarajatlar hali ham xalqaro normalarga nisbatan ancha past (OTB, n.d.)<sup>54</sup>. Uzoq sayohat vaqtlari, xizmat ko'rsatish samaradorligining pastligi va bunday kam investitsiyalar natijasida yuzaga kelgan yuqori operatsion xarajatlar iqtisodiy salohiyatning behuda sarflanishiga, mintaqaviy savdoning yomonlashishiga va atrof-muhitga zararli ta'sirlarni ortishiga olib keldi (OTB, 2019)<sup>55</sup>. Temir yo'l sanoatiga xizmat ko'rsatish sifatining pastligi, eski poezd yo'nalishlari va harakat tarkibini modernizatsiya qilish zarurati kabi ko'plab muammolarni ham keltirib chiqaradi (XTF, 2019)<sup>56</sup>. Mamlakatning transport va tranzit imkoniyatlarini yaxshilash va yangi ish o'rinlarini yaratish uchun temir yo'l sektori ko'proq mablag' yo'naltirishni talab qiladi.



<sup>53</sup> <https://www.oecd-ilibrary.org/sites/5fd38a3d-en/index.html?itemId=/content/component/5fd38a3d-en#figure-d1e32204>

<sup>54</sup> ADB (n.d.), *KashkadarYa Regional Road Project*, ADB, Manila, <https://www.adb.org/sites/default/files/linked-documents/50063-001-ssa.pdf>.

<sup>55</sup> ADB (2019), *Uzbekistan: Preparation of Central Asia Regional Economic Cooperation Corridor 2 (Pap-Namangan-Andijan) Railway Electrification Project*, <https://www.adb.org/projects/48025-001/main#project-pds>.

<sup>56</sup> ITF (2019), *Enhancing Connectivity and Freight in Central Asia*, International Transport Forum, Paris, <http://www.itf-oecd.org>.

### 2.3.-rasm. O‘zbekiston Respublikasi hududlarida mavjud xo‘jalik avtomobil yo‘llari va ularning holati (2021-yil holatiga ko‘ra, km)<sup>57</sup>.

Tranzit O‘zbekiston uchun yo‘lovchilar va tovarlarni tashishda o‘zining transport tizimiga tayanadigan qo‘shnilari iqtisodiyoti uchun muhim bo‘lib qolmoqda. Tojikiston va Qirg‘iziston temir yo‘l tarmog‘ining janubiy qismi uchun yagona xalqaro aloqa O‘zbekistonning janubi, temir yo‘l tarmoqlari O‘zbekiston orqali tranzitga tayanadigan ikki qo‘shni davlat orqali amalga oshiriladi (Jahon banki, n.d.)<sup>58</sup>.

O‘zbekistondan tovarlarni tashish xarajatlari hali-hanuz o‘ta qimmat bo‘lib qolmoqda: O‘zbekistondan jahon yalpi ichki mahsulotining 20 foizini tashish uchun, bir tonna mahsulotga bir martalik 175 AQSH dollari to‘lov qilinishi kerak bo‘lsa, Germaniyada xuddi shunday hajm uchun taxminan 30 AQSH dollari sarflanishi mumkin (XTF, 2019)<sup>59</sup>. 2012-yildan buyon Toshkent va Samarqand o‘rtasida harakatlanayotgan “Afrosiyob” tezyurar poezdi yo‘nalishiga 2016-yilda Buxoroni ham qo‘shib kengaytirildi. Bundan tashqari, O‘zbekiston Tojikiston, Qozog‘iston va Qirg‘iziston Respublikasi bilan avtomobil va chegara o‘tish punktlari sonini kengaytirdi (ETTB, 2018)<sup>60</sup>.

### 2.5.-jadval

#### O‘zbekiston Respublikasida qatnov yo‘llarining uzunligi (yil oxiriga; ming kilometr)

Ko‘rsatkichlar	2012	2013	2014	2015	2016	2017	2018	2019	2020	2021
Temir yo‘llari (foydalaniladigan uzunligi) — jami	5,8	5,8	5,7	5,7	5,8	6,1	6,2	6,2	6,2	6,1
Shu jumladan: umumfoydalanadigan	4,2	4,2	4,2	4,2	4,3	4,6	4,7	4,7	4,7	4,7
Shu jumladan: idoraviy <sup>1)</sup>	1,6	1,6	1,5	1,5	1,5	1,5	1,5	1,4	1,5	1,4
Qattiq qoplamali avtomobil yo‘llari — jami	44,3	44,2	44,0	44,0	44,0	44,1	43,9	43,9	43,8	43,8

<sup>57</sup> O‘zbekiston Respublikasi avtomobil yo‘llari qo‘mitasi

(<http://www.uzavtoyul.uz/uz/post/ichkixujalik.html>)

<sup>58</sup> World Bank (n.d.), *First Phase of the Central Asia Road Links Program*, World Bank, <http://documents.worldbank.org/curated/en/376021551878604407/pdf/Disclosable-Restructuring-Paper-First-Phase-of-the-Central-Asia-Road-Links-Program-P132270.pdf>.

<sup>59</sup> ITF (2019), *Enhancing Connectivity and Freight in Central Asia*, International Transport Forum, Paris, <http://www.itf-oecd.org>.

<sup>60</sup> EBRD (2018), *Transition Report 2018-19*, <https://www.ebrd.com/transition-report>.

Shu jumladan: umumfoydalanadigan	42,0	42,0	42,0	42,0	42,0	42,0	42,1	42,1	42,3	42,3
Shu jumladan: idoraviy <sup>1)</sup>	2,3	2,2	2,0	2,0	2,0	2,0	1,8	1,8	1,5	1,5
Tramvay yo'llari (ikki yoqlama hisobda), km	82,5	82,5	89,1	66,7	-	7,9	12,9	12,9	12,9	12,9
Trolleybus liniyalari (ikki yoqlama hisobda), km	38,0	35,6	35,6	35,6	35,6	35,6	35,6	35,6	35,6	35,6
Metropoliten yo'llari (ikki yoqlama hisobda), km	36,1	36,1	36,1	36,1	36,1	36,1	36,1	36,1	36,1	59,1
Magistral quvur yo'llari - jami	14,3	14,3	14,2	14,1	13,9	13,9	13,9	13,9	13,7	13,8
Shu jumladan: gaz quvurlari	14,2	14,2	14,1	14,0	13,8	13,8	13,8	13,8	13,7	13,8
Shu jumladan: neft quvurlari	0,1	0,1	0,1	0,1	0,1	0,1	0,1	0,1	-	-

*Manba: O'zbekiston Respublikasi Statistika qo'mitasi*

O'zbekistonda temir yo'l xizmati shaharlararo yo'lovchi tashish va yuk tashish bozorida ustunlik qiladi (Jahon banki, 2014)<sup>61</sup>. So'nggi o'n yil ichida temir yo'l orqali yiliga 15 milliondan ortiq yo'lovchi va 60 million tonna yuk tashildi. Qo'shni davlatlar bilan solishtirganda, temir yo'l chastotasi O'zbekistonda sezilarli darajada yuqori. Qozog'iston (5 km/km<sup>2</sup>), Qirg'iziston Respublikasi (2 km/km<sup>2</sup>) va Tojikiston (4 km/km<sup>2</sup>) bilan solishtirganda O'zbekistonda har kvadrat kilometrda 10 km temir yo'l to'g'ri keladi va temir yo'llarining qariyb 29% elektr yo'lidan iborat, bu Qozog'istondagidan (27%) ko'proqdir va mintaqadagi elektr poezdlari yo'llari bo'lmagan Qirg'iziston Respublikasi, Tojikiston va Mo'g'uliston kabi davlatlar bilan solishtirganda ancha samarali hisoblanadi (XTF 2019)<sup>62</sup>.

## 2.6.-jadval

### Transport turlari bo'yicha yuk tashish va yuk aylanmasi

Ko'rsatkichlar	2016	2017	2018	2019	2020	2021	2022
Tashilgan yuklar, mln.t	1 070,5	1 132,5	1 146,2	1 243,0	1 319,8	1 366,7	1 420,2
temir yo'l	67,2	67,6	67,9	68,4	70,1	70,6	72,0

<sup>61</sup> World Bank (2014), **Project Information Document (PID) Concept Stage**, World Bank, Washington DC, <http://documents.worldbank.org/curated/en/652671468337890644/pdf/PID-Print-P146328-02-05-2014-1391603275021.pdf>.

<sup>62</sup> ITF (2019), **Enhancing Connectivity and Freight in Central Asia**, International Transport Forum, Paris, <http://www.itf-oecd.org>.

avtomobil *	943,3	1 002,8	1 013,1	1 102,2	1 177,7	1 238,2	1 282,0
quvur yo‘li	60,0	62,2	65,1	72,4	72,0	57,9	66,2
havo yo‘li, ming	24,6	26,5	26,4	13,1	10,4	5,3	9,1
<b>Yuk aylanmasi, mlrd. t-km</b>	<b>65,8</b>	<b>65,3</b>	<b>66,9</b>	<b>71,3</b>	<b>72,6</b>	<b>66,9</b>	<b>74,8</b>
temir yo‘li	22,9	22,9	22,9	22,9	23,4	23,6	24,6
avtomobil *	12,8	13,3	13,6	14,6	15,9	16,2	19,1
quvur yo‘li	30,0	28,9	30,2	33,6	33,2	26,8	30,8
havo yo‘li, mln. t-km	131,1	132,2	156,9	123,5	119,0	219,0	303,5

*Manba: O‘zbekiston Respublikasi Statistika qo‘mitasi*

Katta yo‘llar va poezdlar tarmog‘iga qaramay, logistika cheklovlari mamlakat aloqalarini mustahkamlash uchun asosiy to‘siq bo‘lib qolmoqda. Xizmat sifati va samaradorligi yetarli emasligi sababli, O‘zbekistonda logistika faoliyati xarajatlari Yevropadagiga qaraganda ikki baravar qimmat (Jahon banki, 2014)<sup>63</sup>. Yo‘llar har 0,18 kv. km qismi, yoki ularning umumiy yo‘llarning 38% asfaltlanmagan (XTF, 2019)<sup>64</sup>. Mamlakatning Farg‘ona, Namangan va Andijon viloyatlaridan tashqarida transport aloqalari ayniqsa rivojlantirishi talab etiladi (Jahon banki, 2016)<sup>65</sup>.

## 2.7.-jadval

### Markaziy Osiyo davlatlarining logistik salohiyati indeksi<sup>66</sup>

Yillar	Qozog‘iston	O‘zbekiston	Qirg‘iziston	Tojikiston	Turkmaniston
2010	2,83	2,79	2,62	2,35	2,49
2011	2,83	2,79	2,62	2,35	2,49
2012	2,69	2,46	2,35	2,28	2,49

<sup>63</sup> World Bank (2014), **Project Information Document (PID) Concept Stage**, World Bank, Washington DC, <http://documents.worldbank.org/curated/en/652671468337890644/pdf/PID-Print-P146328-02-05-2014-1391603275021.pdf>.

<sup>64</sup> ITF (2019), **Enhancing Connectivity and Freight in Central Asia**, International Transport Forum, Paris, <http://www.itf-oecd.org>.

<sup>65</sup> World Bank (2016), **Systematic Country Diagnostic for Uzbekistan**, World Bank, Washington DC, <https://openknowledge.worldbank.org/bitstream/handle/10986/24588/Uzbekistan000S0c0country0diagnostic.pdf?sequence=1&isAllowed=y>.

<sup>66</sup> Ushbu indeks mamlakatlarning logistika salohiyatini baholashda qo‘llaniladi. Logistika salohiyati indeksi davlatlarning bo‘jxona, logistika infrastrukturasi, xalqaro tashish xizmatlaridan foydalanish imkoniyati, yo‘nalishdagi yuklarni kuzatib borish imkoniyati, vaqt va logistika xizmati sifati kabi olti turdagi ko‘rsatkichlarni jamlanmasi orqali hisoblanadi. Ushbu indeks 1 va 5 ballik oraliqda baholanib 2018 yil holatiga ko‘ra 4.2 bal bilan Germaniya dunyoda LSI bo‘yicha etakchi davlat hisoblanadi.



2013	2,69	2,46	2,35	2,28	2,49
2014	2,7	2,39	2,21	2,53	2,3
2015	2,7	2,39	2,21	2,53	2,3
2016		2,4	2,16	2,06	2,21
2017	2,75	2,4	2,16	2,06	2,21
2018	2,81	2,58	2,55	2,34	2,41

*Manba: Jahon Banki LSI tahlili bo‘limi (<https://lpi.worldbank.org/>)*

O‘zbekistonda rejalashtirilgan va amalga oshirilayotgan temir yo‘l loyihalarining aksariyati mamlakatning asosiy transport infratuzilmasini tashkil etadi, hozirda ushbu sohaga jami 8,3 milliard AQSH dollari miqdorida investitsiyalar kiritildi. Qolgan 29% yoki 2,4 milliard AQSH dollari yo‘l tashabbuslarini rivojlantirishga yo‘naltiriladi, ularning aksariyati mahalliy yo‘llarni ta‘mirlashga bag‘ishlangan. Ushbu tashabbuslarning aksariyati Osiyo taraqqiyot banki tomonidan muvofiqlashtirilgan hamda Jahon banki va Xitoyning Eksport-import banki (EXIM banki) ham faol ishtirok etayotgan Markaziy Osiyo mintaqaviy iqtisodiy hamkorlik koridorlari kabi mintaqaviy tashabbuslar asosida jalb qilingan investitsiyalardir. Bundan tashqari, hukumat ham temir yo‘l va avtomobil yo‘llarini rivojlantirishga birgalikda sarmoya kiritmoqda. “O‘zbekiston temir yo‘llari” davlat kompaniyasi poezdlar infratuzilmasini yangilash, uning tarmog‘ini kengaytirish va harakatlanuvchi tarkibni almashtirish bo‘yicha 50 ta investitsiya loyihasi ustida ishlamoqda (ETTB, 2018)<sup>67</sup>.

Rejalashtirilgan va amalga oshirilayotgan transport infratuzilmasini takomillashtirish iqtisodiyotga ijobiy ta‘sir ko‘rsatishi kutilmoqda. Ushbu tashabbuslar, xususan, savdo xarajatlari va sayohat vaqtlarini kamaytirishga, xavfsizlikni oshirishga hamda mahalliy va xalqaro savdoni oshirishga qaratilgan “Pop-Angren temir yo‘li” loyihasi amalga oshirilayotgan va deyarli yakunlangan eng muhim tashabbuslardan biridir. Angren va Pop o‘rtasidagi to‘g‘ridan-to‘g‘ri temir yo‘l Farg‘ona vodiysini O‘zbekistonning aksariyat qismi bilan bog‘laydi. Shu bilan birga, elektrlashtirish va boshqa o‘zgartirishlar yangi marshrutga bo‘lgan kutilmagan yuqori ehtiyojni qondirish uchun davom ettirilmoqda (Jahon banki,

<sup>67</sup> EBRD (2018), *Uzbekistan Diagnostic: Assessing Progress and challenges in Unlocking the Private Sector’s Potential and Developing a Sustainable Market Economy*, EBRD, London, <https://www.ebrd.com/publications/country-diagnostics>.

2019)<sup>68</sup>. Vodiy Markaziy Osiyoning aholisi eng zich joylashgan hududidir, ammo vodiyning O‘zbekiston qismi boshqa mamlakatlarga qaraganda sekinroq iqtisodiy o‘rinishni boshdan kechirgan. Masalan, Farg‘ona vodiysidagi O‘zbekistonning uchta viloyatlari bo‘lmish Andijon, Farg‘ona va Namangan shaharlarida 2022-yilda aholi jon boshiga yalpi ichki mahsulot hajmi respublika o‘rtacha ko‘rsatkichidan mos ravishda 38, 41 va 49 foizga kam bo‘lgan (O‘zbekiston Respublikasi Statistika qo‘mitasi)<sup>69</sup>. Shu sababli hukumat ushbu loyihaga ustuvor ahamiyat berdi, chunki u transport xarajatlarini pasaytirish, savdo va yuqori qiymatli eksport uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega bo‘lgan zanjirning ishonchliligini oshirish orqali O‘zbekistonning logistika operatsiyalarini o‘zgartiradi.

Uch davlatni bog‘laydigan, Xitoy va Yevropa o‘rtasidagi masofani 900 km ga qisqartirishi kutilayotgan Xitoy-Qirg‘iziston-O‘zbekiston temir yo‘li hozirda rejalashtirish bosqichidagi eng yirik loyihalardan biridir. Agar loyiha yakunlansa, yangi logistika xizmatlarini ishlab chiqadi, shu jumladan temir yo‘l orqali yuk tashish, Xitoy va Yevropa Ittifoqi o‘rtasidagi temir yo‘l tovarlari uchun sayohat vaqtini o‘n yetti kundan sakkiz kungacha qisqartiradi (hozirda Shanxay va Dubay o‘rtasidagi sayohat taxminan 17 kun) (Rivojlanayotgan bozorlar forumi, 2019-yil)<sup>70</sup>. 2030-yilga kelib, 2018 yilga qaraganda ko‘proq odam poezdlardan foydalanishi kutilmoqda, ammo 2050-yilga kelib, Xitoydan boshqa davlatlar orqali muqobil yo‘nalishlar mavjud bo‘lganda, temir yo‘llardan foydalanish yana 20% dan pastga tushishi kutilmoqda. (XTF, 2019)<sup>71</sup>.

Dunyoda energiya va uglerod gazidan eng ko‘p foydalanadigan davlatlardan biri O‘zbekistondir. O‘zbekiston yalpi ichki mahsulotning bir birligini ishlab chiqarish uchun Qozog‘iston va Ozarbayjonga qaraganda 60 foiz ko‘proq yoki jahon o‘rtacha ko‘rsatkichidan 4 barobar ko‘p energiya sarflaydi. Energetika

---

<sup>68</sup> World Bank (2019), *Pap-Angren Railway (P146328)*, World Bank, Washington DC, <http://documents.worldbank.org/curated/en/843161559031552022/pdf/Disclosable-Version-of-the-ISR-Pap-Angren-Railway-P146328-Sequence-No-09.pdf>.

<sup>69</sup> <https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/national-accounts-2>

<sup>70</sup> Emerging Markets Forum (2019), *The Impact of the Belt and Road Initiative in Central Asia and the South Caucasus: “Inside-out” Perspectives of Experts from the Region*, Emerging Markets Forum, Gerzensee, <http://www.research.pmcg-i.com/images/banners/The%20Belt%20and%20Road%20Initiative%20in%20the%20South%20Caucasus%20Region.pdf>

<sup>71</sup> ITF (2019), *Enhancing Connectivity and Freight in Central Asia*, International Transport Forum, Paris, <http://www.itf-oecd.org..>

sohasidagi bu muammolar eskirgan energetika infratuzilmasi, zaif texnologik poydevor, investitsiyalar taqchilligi, samarasizlik va katta energiya subsidiyalari kabi bir qator omillar bilan bog‘liq. 2022-yilda barcha asosiy energiya ishlab chiqarishning 87 foizini va energiya ishlab chiqarishning 75 foizini (yoki 43,7 GVt/soatni) neft va gaz tashkil etgan, qolgan 3 foizi esa gidroelektr to‘g‘onlari, ko‘mir elektr stansiyalari va neft yoqilg‘isidan kelib chiqqan.


2016-yildan beri O‘zbekiston o‘zining energiya majmuasini kengaytirish va gazga bog‘liqligini kamaytirish maqsadida qayta tiklanadigan energiya manbalari, xususan, quyosh energiyasini rivojlantirishga ko‘maklashish ustida ishlamoqda. O‘zbekistonning 2017-2021-yillarga mo‘ljallangan beshta ustuvor yo‘nalish bo‘yicha Harakatlar strategiyasida qayta tiklanadigan energiya manbalaridan keng foydalanishni mamlakat aholisining yuqori sifatli energiyadan foydalanishini ta‘minlashning asosiy elementi sifatida ko‘rsatiladi. Biroq, mamlakatda energiya ishlab chiqarishga yo‘naltirilgan hozirgi sarmoyalarning aksariyati hali ham ko‘mir va neft elektr stansiyalariga qaratilgan. Umumiy quvvati 4,7 GVt bo‘lgan rejali va qurilayotgan elektr energiyasini ishlab chiqarish loyihalarining deyarli 60 foizi (yoki 2,8 GVt) tabiiy gazda ishlaydigan elektr energiyasi ishlab chiqaruvchi zavodlardir.

Sobiq Sovet Ittifoqi tarkibiga kirgan boshqa davlatlar singari O‘zbekiston ham elektr energiyasidan hamma joyda foydalanish imkoniyatiga ega bo‘ldi. O‘zbekistondagi uzatish va tarqatish tarmoqlari munosib darajada. O‘zbekiston yaratilgan jami elektr energiyasining taxminan 8,8% ni yo‘qotadi, buni iqtisodiy hamkorlik tashkilotiga a‘zo mamlakatlardagi ko‘rsatkich (masalan, Ispaniya 9,6%, Latviya 9,0%, Kanada 8,7% va Buyuk Britaniya 8,4%) bilan solishtirish mumkin, bu ko‘rsatkich ko‘plab davlatlarga qaraganda ancha pastdir. (Jahon banki, 2019)<sup>72</sup>.

---

<sup>72</sup> World Bank (2019), *World Development Indicators (database)*, <https://datacatalog.worldbank.org/dataset/world-development-indicators>.

## энергия самарадорлик %



### 2.4.-rasm. Hududlarda energiya samaradorlik ko'rsatkichlari(2022 yil. %) <sup>73</sup>

Hukumat tomonidan e'lon qilingan energetika sohasidagi maqsadlarga ko'ra, O'zbekistonning energiya infratuzilmasi bo'yicha asosiy tashabbuslari yashil energiya aralashmasiga o'tish belgilarini ko'rsatmaydi. Qayta tiklanadigan energetikaga investitsiyalar kam, loyihalarning aksariyati yuqori oqim neft va tabiiy gaz quvurlari hisoblanadi. Markaziy Osiyo quvuri loyihasida ishtirok etish O'zbekistonga umumiy hisobda 11 milliard dollardan 3,5 milliard dollarga tushadi. Ushbu loyiha yordamida O'zbekiston Xitoyga qazib olinadigan yoqilg'ini sotish va tranzitdan daromad olish imkoniyatiga ega bo'ldi. Loyihani ishlab chiqishning dastlabki ikki bo'limi "Kamar va yo'l" tashabbusi (BRI) tashkil etilishidan oldin tugatilgan bo'lsa ham, u BRI loyihasi deb ataladi. Toshkent viloyati uchun kutilayotgan quvvati 600 MVt quvvatga ega ko'mir va gaz elektr stansiyasi muhim energiya loyihalaridan biridir. Loyihaning xorijiy kreditori Turkiyaning "Yildirim Grup" nomli kompaniyasidir.

Sobiq Sovet Ittifoqi O'zbekistonni suv va kanalizatsiya tizimi bilan tark etdi, uning xizmat muddati tugadi va keng ko'lamlı ta'mirlanishi kerak. Sanoat buzilgan infratuzilma, eskirgan sektorni rejalashtirish strategiyasi, noadekvat standartlar, cheklangan moliyaviy resurslar va zaif institutsional qobiliyat kabi qator

<sup>73</sup> <https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/industry-2>

muammolarga duch kelmoqda. Hozirgi vaqtda uylarning 30% dan ortig'i toza ichimlik suviga ega emas va 1000 dan ortiq shaharlar hech qanday toza ichimlik suvga ega emas (JSST, 2019)<sup>74</sup>. Shu bois hukumatning asosiy vazifasi aholining ishonchli, arzon suv ta'minoti xizmatlaridan foydalanishini ta'minlashdan iborat. Qashshoqlikka barham berish va farovonlikni yaxshilash strategiyasida hukumat toza suv va sanitariya-texnik vositalar mavjudligiga ustuvor ahamiyat berdi. Ushbu yondashuvning maqsadi kelgusi o'n yil ichida shaharlarda 100 foiz xizmat ko'rsatish va qishloq joylarda 85 foiz xizmat ko'rsatishni ta'minlashdan iborat. Davlat ushbu maqsadlarga erishish uchun 2025-yilga qadar jami 2,9 milliard dollarlik sanoat investitsiya rejasiga ega.

Suv muammosi tufayli iqtisodiyot iqlim o'zgarishi ta'siriga ko'proq moyil ayniqsa suvdan eng ko'p foydalanadigan qishloq xo'jaligi sanoatida (ETTB, 2018)<sup>75</sup>. Katta hajmdagi sug'orish suvi, insektitsidlar va o'g'itlar talab qilinadigan paxtachilik uchun, suv ayniqsa muhim ahamiyatga ega. Suv unumdorligi bo'yicha O'zbekiston dunyoning eng quyi besh davlatidan biridir. Hozirgi vaqtda qiymati 2,4 milliard AQSH dollaridan ortiq bo'lgan suv loyihalari qurilmoqda va rejalashtirilmoqda, bu loyihalarning taxminan 63 foizi suv ta'minoti va gigienaga, qolgan 37 foizi esa sug'orish va chuchuk suvni boshqarishga qaratilgan. Ushbu tashabbuslarning barchasi Jahon banki, ETTB, OTB va ETTB kabi ko'p tomonlama rivojlanish institutlari yordamida moliyalashtiriladi. Suv ta'minoti va kanalizatsiya bo'yicha tashabbuslar bilan taqqoslanganda, sug'orish loyihalarini moliyalashtirish yanada teng taqsimlangan. Masalan, mintaqadagi ko'plab fermerlar sug'oriladigan qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ko'paytirishdan foyda olishlari uchun sug'orish tarmog'ini mustahkamlash rejalashtirilgan JQSRBL (Janubiy Qoraqalpog'iston suv resurslarini boshqarish loyihasi) taxminan 522 million dollarga tushadi (Jahon banki, 2019 yil)<sup>76</sup>.

---

<sup>74</sup> WHO (2019), **Climate change adaptation to protect human health: Uzbekistan project profile**, <https://www.who.int/globalchange/projects/adaptation/en/index7.html>.

<sup>75</sup> EBRD (2018), **Uzbekistan Diagnostic: Assessing Progress and challenges in Unlocking the Private Sector's Potential and Developing a Sustainable Market Economy**, EBRD, London, <https://www.ebrd.com/publications/country-diagnostics>.

<sup>76</sup> World Bank (2019), **Project: South Karakalpakstan Water Resources MGMT Improvement**, <http://projects.worldbank.org/P127764/southkarakalpakstanwaterresourcesimprovementproject?lang=en&tab=overview>.

**Hududlar bo'yicha kvartira (uy)larning ichimlik suvi bilan ta'minlanganligi  
(yil oxiriga, jami kvartira (uy)larga nisbatan, % da)<sup>77</sup>**

Xududlar	2010	2011	2012	2013	2014	2015	2016	2017	2018	2019	2020	2021
O'zbekiston Respublikasi	82,5	82,7	82,7	82,6	82,3	81,4	76,4	75,6	75,3	76,6	67,4	68,3
Qoraqalpog'iston Respublikasi	69,6	68,2	69,2	71,0	68,1	67,7	56,7	48,2	54,4	52,9	56,7	57,5
Andijon	89,8	92,0	92,9	93,1	91,4	91,9	92,2	92,7	93,9	97,8	82,3	77,3
Buxoro	61,0	60,6	61,4	60,9	59,5	57,7	58,2	45,7	39,6	39,9	41,7	50,9
Jizzax	74,1	73,3	72,3	72,3	71,6	70,3	71,7	71,2	71,2	74,5	72,7	63,2
Qashqadaryo	82,1	83,3	84,3	81,2	80,8	73,9	69,8	81,7	78,7	75,1	34,8	35,8
Navoiy	79,3	79,2	78,1	79,6	80,5	80,1	79,7	73,2	72,9	71,6	75,7	72,5
Namangan	75,9	77,9	77,7	76,7	76,9	77,5	73,7	72,3	72,5	85,6	87,2	85,5
Samarqand	84,6	84,9	85,3	84,8	84,3	86,6	57,5	55,7	57,3	59,6	58,7	63,7
Surxondaryo	81,3	78,8	79,4	80,2	80,7	80,5	80,6	75,4	74,1	74,3	72,5	78,4
Sirdaryo	80,5	82,0	79,0	82,9	82,5	82,4	77,6	79,2	79,7	84,3	82,2	84,0
Toshkent	81,2	82,0	81,9	79,1	79,3	78,8	77,2	78,4	80,2	81,5	74,0	75,4
Farg'ona	91,2	90,1	89,4	91,7	91,3	89,8	88,8	98,7	98,1	100,0	68,8	68,7
Xorazm	63,6	63,6	63,4	62,9	66,6	67,5	58,6	42,5	41,6	40,2	40,6	40,6
Toshkent.Sh	99,9	100,0	99,3	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0	98,1	97,2

O'zbekistonda mavjud uy xo'jaliklarining 68,3 foizi toza ichimlik suvi bilan ta'minlangan bo'lib, hududlar kesimida Qashqadaryo 35,8 va Xorazm 40 foizlik ko'rsatkich bilan eng kam ichimlik suvi bilan ta'minlangan viloyatlar bo'lib turibdi.

**Internetga ulangan korxonalar va tashkilotlar ulushi (yil oxiriga, foizda)<sup>78</sup>**

Xududlar	2015	2016	2017	2018	2019	2020	2021	2022
O'zbekiston Respublikasi	21,6	25,9	27,2	27,5	26,2	21,1	17,5	18,8
Qoraqalpog'iston Respublikasi	22,2	23,9	25,0	24,9	24,7	19,7	18,9	18,7
Andijon	11,0	12,8	18,4	18,1	21,5	16,1	11,4	11,6
Buxoro	26,1	30,7	30,0	29,7	27,5	21,7	17,4	17,2
Jizzax	19,2	23,0	20,8	19,2	19,2	15,1	10,3	7,6
Qashqadaryo	13,1	20,1	20,5	20,1	18,7	14,9	14,0	22,2
Navoiy	30,7	34,1	33,0	42,5	35,3	31,9	25,3	29,4

<sup>77</sup> O'zstat <https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/environment-2>

<sup>78</sup> <https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/raqamli-iqtisodiyot>

Namangan	12,3	17,9	19,0	23,2	23,3	20,0	15,1	18,9
Samarqand	16,2	21,7	22,3	22,3	20,8	17,9	14,3	22,9
Surxondaryo	17,7	17,9	17,2	16,9	13,3	8,5	8,0	7,9
Sirdaryo	17,7	19,6	20,2	19,8	19,7	19,1	14,2	14,2
Toshkent	18,9	24,2	25,4	25,8	25,4	19,4	16,7	17,0
Farg'ona	17,4	21,8	20,6	20,8	19,2	16,5	15,7	12,7
Xorazm	20,5	23,8	25,5	27,2	27,4	24,9	21,6	17,8
Toshkent sh.	37,7	42,8	44,5	43,2	39,5	30,7	25,7	28,6

*Manba: O'zbekiston Respublikasi Statistika qo'mitasi*

Yuqoridagi jadvaldan ko'rinadiki, respublika bo'yicha internet tarmog'iga ulangan korxonalar, yangidan tashkil etilgan korxonalar soni keskin oshishi fonida kamayish tendensiyasiga ega bo'lib ko'rinmoqda. Ammo, internet tarmog'iga ulanish darajasi pastligicha qolmoqda. Shuningdek, bu borada Toshkent doimiy ravishda yetakchi bo'lib kelmoqda. Eng past ko'rsatkich esa Jizzax va Surxondaryo viloyatlariga tegishli bo'lgan (mos ravishda 10.3% va 8.0 %).

## 2.10.-jadval

### Korxonalar va tashkilotlarda shaxsiy kompyuterlarning (serverlardan tashqari) mavjudligi to'g'risida ma'lumotlar (yil oxiriga, dona)<sup>79</sup>

Xududlar	2015	2016	2017	2018	2019	2020	2021	2022
O'zbekiston Respublikasi	734 569	800 767	853 825	929 900	1 012 726	1 014 686	1 106 143	1,187,725
Qoraqalpog'iston Respublikasi	32 266	36 322	41 125	45 483	50 945	53 251	55 510	57,498
Andijon	40 545	43 211	46 409	48 895	54 530	56 344	53 842	56,854
Buxoro	36 642	39 506	41 003	45 294	51 280	55 888	56 058	59,794
Jizzax	21 682	23 457	25 854	26 976	28 867	18 887	34 016	34,820
Qashqadaryo	48 070	55 820	59 141	64 395	67 670	62 434	74 842	83,838
Navoiy	30 709	33 951	35 646	40 031	44 562	46 708	48 364	54,277
Namangan	35 504	39 880	42 643	47 299	52 800	55 071	57 102	60,058
Samarqand	58 169	63 415	69 606	79 084	87 599	86 409	91 490	96,740
Surxondaryo	34 623	35 976	38 829	41 879	40 781	27 291	36 280	43,739
Sirdaryo	17 331	18 737	20 254	21 660	23 669	24 435	24 286	27,876
Toshkent	53 402	57 984	60 492	68 944	78 495	81 215	86 668	91,942
Farg'ona	49 112	52 846	55 249	62 401	66 245	79 718	84 188	85,480
Xorazm	30 640	33 601	36 675	40 212	45 094	47 518	50 746	53,758
Toshkent sh.	245 874	266 061	280 899	297 347	320 189	319 517	352 751	381,051

*Manba: O'zbekiston Respublikasi Statistika qo'mitasi*

Korxonalar va tashkilotlarda shaxsiy kompyuterlarning mavjudligi 2022-yilga kelib 1,187,725 tani tashkil etib, 2015-yilga nisbatan 1.5 barobar atrofida oshgan

<sup>79</sup> <https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/raqamli-iqtisodiyot>

va doimiy o‘shish tendensiyasiga ega. Bu yo‘nalishda ham Toshkent shahri mutloq yetakchilik qilmoqda. Eng quyi o‘rinlarni esa Jizzax hamda Sirdaryo viloyatlari band etmoqda.

### **2.3.-Kichik va o‘rta biznes sub’yektlari faoliyatiga ta’sir etuvchi ijtimoiy-iqtisodiy infratuzilma ko‘rsatkichlarining ekonometrik tahlili.**

Ushbu bobda biz kichik va o‘rta biznes sub’yektlari faoliyatiga ta’sir etuvchi ijtimoiy-iqtisodiy infratuzilma ko‘rsatkichlarining ekonometrik tahlilini olib boramiz. Buning uchun ijtimoiy-iqtisodiy infratuzilmani ifodalovchi va ularining asosini tashkil etuvchi omillarni statistik va ekonometrik jihatdan o‘zaro ta’sirchanligini aniqlash zarur.

Ijtimoiy infratuzilmaning tashqi ta’siri sezilarli. Ijtimoiy marjinal mahsuldorlik (IMM) ta’lim va sog‘liqni saqlash kabi ijtimoiy mahsulotlar uchun shaxsiy marjinal mahsuldorlikdan ustundir. Shu sababli, bunday ijtimoiy infratuzilmani xususiy moliyalashtirish talab qilinadigan darajadan kam bo‘lishi mumkin. Shuning uchun davlat bunday ijtimoiy infratuzilma tashabbuslarini amalga oshirish uchun mablag‘ va boshqa zarur resurslarni darhol ta’minlashi kerak. Ijtimoiy infratuzilmani hukumat boshqarishi yoki nazorat, egalik qilishi shart emas, lekin hukumat siyosatni belgilashi va ularning qanday amalga oshirilishini nazorat qilishi kerak.

Ijtimoiy infratuzilma va uning KBTga ta’siri haqida avvalgi boblarda batafsil to‘xtalib o‘tdik. Endi esa ijtimoiy ifrastrukturani ifodalovchi va ekonometrik modelimizda qo‘llanilgan omillar va ularning xususiyatlari haqida to‘xtalib o‘tamiz.

#### **2.11.-jadval**

##### **Tahlil uchun o‘zgaruvchilar tavsifi<sup>80</sup>**

<b>№</b>	<b>O‘zgaruvchilar</b>	<b>Tavsifi</b>
<b>1</b>	<b>Y</b>	Kichik va o‘rta biznes korxonalar soni, birlikda
<b>2</b>	<b>X2</b>	Ishchi kuchi samaradorligi, koef.
<b>3</b>	<b>X3</b>	Shifoxonalar, birlikda
<b>4</b>	<b>X4</b>	Jinoyatlar soni, birlikda
<b>5</b>	<b>X5</b>	Bitiruvchilar soni, birlikda
<b>6</b>	<b>X6</b>	Uy xo‘jaliklarining tabiiy gaz bilan ta’minlangan qismi, % da

<sup>80</sup>Stata 15 statistik tahlil dasturi yordamida muallif tomonidan tomonidan ishlab chiqilgan



7	X7	Uy xo'jaliklarining ichimlik suvi bilan ta'minlangan qismi, % da
8	X8	Elektr energiya ishlab chiqarish, mln. kwt
9	X9	Internetga ulangan korxonalar soni, birlikda
10	X10	Hududlarda qazib olinadigan yer osti resurslari summasi, mlrd. so'mda
11	X11	Hududlarda tashilgan yuk aylanmasi, ming tonna
12	X12	Hududlarda tashilgan yo'lovchi soni, birlikda
13	X13	Kichik va o'rta biznes korxonalariga tijorat banklari tomonidan yo'naltirilgan investitsiyalar, mlrd. so'm

*Manba: O'zbekiston Respublikasi Statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi*

Statistika qo'mitasi ushbu ko'rsatkichlarni tekshirishdan oldin tanlab olish o'tkazilganligi sababli, hududlarda mavjud kichik biznes va tadbirkorlik sub'yektlari va ularning faoliyatiga infratuzilmaning ta'sirini aniqlashda qo'llaniladigan usullarda hech qanday noxolislik bo'lmaydi, deb hisoblaymiz.

## 2.12.-jadval

### Modelda foydalaniladigan omillarning umumiy xarakteristikasi

Variable	Obs	Mean	Std. Dev.	Min	Max
LKB&T	168	9.515088	.5591861	8.478661	11.35846
LNATRES	154	4.409674	2.692085	-3.506558	9.478671
LCRIME	168	8.52485	.5974878	7.13966	10.14812
LFREIGHT	168	10.69085	.9019609	8.619389	12.73803
LPASSENGER	168	8.835506	1.030577	7.302073	16.08554
LGRADUATE	168	8.197838	.7360044	6.761573	10.47858
LELECTR	144	6.00282	3.298795	-4.60517	9.905965
INVEST	168	6.382558	4.838192	.7	27.76657
INTERNET	98	21.9551	7.460274	8	44.5
DENSITY	168	709.3637	1813.672		7699.6
Suv	168	75.49762	15.01685	34.8	100
GAZ	168	68.65357	20.24168		99.9

*Manba: O'zbekiston Respublikasi Statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi*

Tanlangan o'zgaruvchilardan foydalangan holda ekonometrik modelni yaratib olamiz. O'zbekistonning turli mintaqalarida kichik va o'rta biznes o'sishiga turli xil infratuzilmaviy omillar qanday ta'sir qilishini o'rganish dissertatsiyaning asosiy maqsadi hisoblanadi. Shuning uchun, ta'sirlarni aniqlash uchun KBT sonidan erksiz o'zgaruvchi sifatida foydalanildi.

$$Y = (1)$$

$$\beta_0 + \beta_1 lenergy + \beta_2 lnatres + \beta_3 lcrime + \beta_4 lfright + \beta_5 lpassen + \beta_6 lgraduate + \beta_7 gaz + \beta_8 suv + \beta_9 density + \beta_{10} internet + \beta_{11} investment + \beta_{12} laborprod + \beta_{13} hospital + \mu_i + \delta_i$$

Birinchi farq vositasi tadqiqot ishining ekonometrik modelida qo‘llaniladi, chunki yillik hisobot ma’lumotlaridagi ketma-ket avtokorrelyatsiyalarni tuzatish oson. Bundan tashqari, qaysi instrument modelni eng yaxshi tavsiflashini solishtirish uchun belgilangan effektli tenglamalarni qo‘llaymiz. Modelda qamrab olingan omillarni test qilmasdan tahlilga o‘tish avtokorrelyatsiyaga, oqibatda noto‘g‘ri natijalar keltirib chiqarishi mumkin, shuning uchun biz ushbu muammoni hal qilish uchun birinchi ishni modelni tekshirish yondashuvidan foydalanamiz. Buning uchun korxonalar sonining loglangan omilini, infratuzilmani ifodalovchi erkli o‘zgaruvchilarga nisbatan eng kichik kvadratlar usulida nisbatini o‘lchab olamiz.

### 2.13.-jadval

Source	SS	df	MS	Number of obs=79,00		
				F( 13, 65) = 89.93		
<b>Model</b>	21.1010615	13	1.62315858	Prob > F = 0.0000		
<b>Residual</b>	1.17316319	65	.018048664	R-squared = 0.9473		
				Adj R-squared = 0.9368		
<b>Total</b>	22.2742247	78	.285566983	Root MSE = .13435		
<b>LKBT</b>	Coef.	Std. Err.	t	P>t	[95% Conf.	Interval]
<b>LENERGY</b>	.0354339	.0066903	5.30	0.000	.0220725	.0487953
<b>LNATRES</b>	.0028459	.0108703	0.26	0.794	-.0188635	.0245553
<b>LCRIME</b>	.1476154	.0535993	2.75	0.008	.0405703	.2546605
<b>LFREIGHT</b>	.0814909	.0405586	2.01	0.049	.0004899	.162492
<b>LPASSEN</b>	-.0183116	.0229971	-0.80	0.429	-.0642401	.0276168
<b>LGRADUATE</b>	-.0155989	.0327508	-0.48	0.635	-.0810068	.0498091
<b>GAZ</b>	.0018741	.0010399	1.80	0.076	-.0002027	.0039509
<b>SUV</b>	-.0094098	.0016416	-5.73	0.000	-.0126884	-.0061312
<b>DENSITY</b>	.000123	.0000168	7.32	0.000	.0000895	.0001566
<b>INTERNET</b>	-.0234114	.0040779	-5.74	0.000	-.0315555	-.0152672
<b>INVEST</b>	-.002742	.0044697	-0.61	0.542	-.0116686	.0061846
<b>LABORPROD</b>	.0072184	.0015743	4.59	0.000	.0040743	.0103625
<b>HOSPITAL</b>	.0103042	.0008342	12.35	0.000	.0086382	.0119703
<b>_cons</b>	7.564228	.4611533	16.40	0.000	6.643241	8.485215

*Manba: O‘zbekiston Respublikasi Statistika qo‘mitasi ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi*

### **Multikollinearlikning ikki turi mavjud:**

Qat'iy bo'lmagan multikollinearlik, to'liq multikollinearlik va aniq multikollinearlik (u qisman deb ham ataladi). Agar modelning o'zgaruvchilari o'rtasida aniq chiziqli bog'lanish mavjud bo'lsa yoki bitta erksiz o'zgaruvchini boshqa mustaqil o'zgaruvchisi nuqtai nazaridan aniq tarzda chiziqli yozish mumkin bo'lsa, bu qat'iy multikollinearlik deb ataladi.

Misol uchun, makroiqtisodiy model yaratilayotganda eksport, import va sof eksport, o'zgaruvchilar sifatida hisobga olinganini tasavvur qiling. Ushbu uchta omilning barchasi modelga qo'shilganda, modelning tushuntirish o'zgaruvchilari bir-biri orqali chiziqli tarzda ifodalanganligini ko'rsatadi, chunki sof eksport eksport va import o'rtasidagi tafovutga teng.

Yuqoridagi ta'rif va misoldan qat'iy multikollinearlik masalasini qanday hal qilish mumkinligi aniq bo'ladi. Buning uchun ikkinchi o'zgaruvchini oling. Misol uchun, agar model allaqachon import va eksportni hisobga olgan bo'lsa, sof eksportni qo'shish yangi ma'lumotlarga hissa qo'shmasligi aniq va bu uchinchi omil osongina bekor qilinishi mumkin.

Sof multikollinearlik holatida zamonaviy ekonometrik dasturiy ta'minot chiziqli bog'liq o'zgaruvchilardan birini o'z-o'zidan olib tashlaydi, bu esa eng kichik kvadratlar bashoratini hisoblashni amaliy jihatdan amalga oshirishga imkon beradi.

Mustaqil o'zgaruvchilar o'rtasida kuchli korrelyatsiya mavjud bo'lsa, lekin aniq chiziqli bog'lanish bo'lmasa, bu qisman multikollinearlik deb nomlanadi. Shunday qilib, ular "deyarli" chiziqli bog'liq, lekin bir biriga juda kuchli chiziqli tayanmaydi. Koeffitsient qiymatlarining aniqligi past va koeffitsient qiymatlarining standart xatolari qisman multikollinearlik mavjud bo'lganda sezilarli bo'ladi. Buning sababi, agar modeldagi ikkita mustaqil o'zgaruvchi kuchli korrelyatsion bog'liqlikda bo'lsa, ular ko'pincha bir vaqtning o'zida o'zgaradi va ularning erksiz o'zgaruvchiga ta'sirini ajratish qiyin. Shuning uchun individual koeffitsientlarni hisoblashning aniqligining pasayishi multikollinearlikning asosiy salbiy ta'siri hisoblanadi.

Variatsiya inflyatsiya omili yoki qisqacha *VIF* - bu dispersiyani oshiradigan multiplikator. Bu bir tomonlama regressiya senariysida dispersiyaning o'sishiga ishora qiladi. Agar o'zgaruvchilar ortogonal bo'lsa, u holda mos ravishda  $VIF_j = 1$  va  $R_j^2=0$  bo'ladi va o'zgaruvchilarning ahamiyati bir-biridan kamaymaydi. Bundan farqli ravishda, agar chiziqli bog'liqlik  $R_j^2 = 1$  yoki aniq multikollinearlik  $VIF_j = +\infty$  bo'lsa, koeffitsientlarning dispersiyasi ham cheksiz bo'ladi. Yuqorida aytib o'tganimizdek, bu vaziyatda regressiyani to'g'ri tahlil qilish qiyin.

Iqtisodchilarning fikricha, agar o'zgaruvchilardan qay birining  $VIF_j > 10$  bo'lsa, regressiya tenglamasida multikollinearlik mavjud bo'ladi. Bu raqam Gujarati darsligida ham qayd etilgan. Kvazi-multikollinearlik, ba'zi tanqidiy nazariyotga ko'ra, nazariy masala emas. Ular ekonometrikadan bexabar bo'lganligi sababli, aniq kritik qiymatlarni aniqlash yoki uning mavjudligi yoki yo'qligi haqidagi gipotezalarni baholash uchun protokollar yaratish usullari mavjud emas.

#### 2.14.-jadval

<b>VIF test natijalari</b>		
<b>O'zgaruvchilar</b>	<b>VIF</b>	<b>1/VIF</b>
LFREIGHT	5,01	0.199541
LGRADUATE	4,46	0.224167
HOSPITAL	4,17	0.239797
INTERNET	4,08	0.245252
LCRIME	4,07	0.245444
LNATRES	3,63	0.275386
SUV	3,56	0.280922
LABORPROD	3,12	0.320391
LGRADUATE	2,45	0.408252
LPASSEN	2,28	0.439130
LENERGY	2,01	0.497059
GAZ	1,99	0.502463
INVEST	1,81	0.552506
Mean VIF	3,28	

*Manba:* O'zbekiston Respublikasi Statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

Ko'rish mumkinki, modelda foydalaniladigan o'zgaruvchilarning hech birida bu ko'rsatkich 10 dan yuqori emas. Bu shuni anglatadiki, modelimizdagi


o'zgaruvchilarda multikollinearlik muammosi mavjud emas va ular to'g'ri tanlangan.

Ekonometrikada "geteroskedastiklik" atamasi regressiya modelining tasodifiy xatosining bir xil bo'lmagan (doimiy bo'lmagan) dispersiyasida ko'rsatilgan kuzatishlarning geterogenligini bildiradi. Ma'lumotlarning bir xilligi va modelning tasodifiy xatolari dispersiyasining izchilligini bildiruvchi homosedastiklikning qarama-qarshi tomoni geteroskedastizmdir. Tasodifiy xatolarning heteroskedastikligi tufayli eng kichik kvadratlar usuli yordamida olingan taxminlar samarasiz.

Bunday holda, eng kichik kvadratlar bo'yicha parametrlarni baholashning kovariatsiya matritsasining an'anaviy bahosi ham ishonchsiz va noto'g'ri ekanligini isbotlaydi. Shunday qilib, olingan baholarning to'g'riligi haqidagi statistik xulosalar yetarli bo'lmasligi mumkin. Ushbu kontekstda heteroskedastlik uchun modellarni sinovdan o'tkazish ekonometrik modellarni yaratishning muhim bosqichlaridan biridir.


Goldfeld-Kvandt, Park, Glaser, Uayt, Brush-Pagan va Spermanning darajali korrelyatsiya testlari va boshqalar tasodifiy qoldiqlarda heteroskedastiklik mavjudligini aniqlash uchun ishlatilishi mumkin. Agar tasodifiy qoldiqlar normal taqsimlangan deb hisoblansa va kuzatishlar yetarli bo'lsa, Goldfeld-Kvandt testi qo'llaniladi.

$Y$  o'qi bo'yicha erkli o'zgaruvchilarni va  $X$  o'qi bo'yicha esa regressiya koeffitsientlaridan biri bo'lgan tarqalish chizmalarini yaratish, grafik tahlil yordamida heteroskedastlikni aniqlash usullaridan biridir. Regressiya qoldiqlarining syujetini tahlil qilish qo'shimcha tanlovni ta'minlaydi. Qoldiqlarni o'sish tartibida har qanday tushuntirish o'zgaruvchisiga ko'ra chiziladi.



### 2.5.-rasm. Heteroskedastlik mavjud bo'lmagan nuqtalarning joylashuvi.

Agar nolga yaqin qoldiqlarning dispersiyasi bir xil bo'lsa (masalan, rasmdagi kabi) ma'lumotlarda bu regressor bilan bog'liq heteroskedastlik yo'q deb taxmin qilishimiz mumkin. Agar qoldiqlar syujeti regressor qiymati qoldiqlarning nol atrofida tarqalishiga ta'sir qilishini aniq ko'rsatsa, geteroskedastizm mavjud bo'ladi (masalan, 2.5.-rasmdagi kabi).



### 2.6.-rasm. Heteroskedastlik mavjud bo'lgan nuqtalarning joylashuvi.

Tegishli rasmiy statistik testlar grafiklarni o'rganishga qo'shimcha ravishda foydali bo'lishi mumkin, chunki heteroskedastlik mavjudligi yoki yo'qligini aniq aniqlash har doim ham mumkin emas. Quyidagi ro'yxat ikkita eng mashhur testlarni o'z ichiga oladi.

Brush-Pagan testi

Tenglamada heteroskedastlikning yo'qligi ushbu testda tekshirilgan gipotezadir.

$$H_0 : \sigma_1^2 = \dots = \sigma_n^2 \quad (2)$$

Muqobil nazariya shuni ko'rsatadiki, o'zgaruvchilar to'plami qandaydir tarzda tasodifiy xatolar qanday o'zgarishiga ta'sir qiladi:

$$H_1 : \sigma_i^2 = \gamma_0 + \gamma_1 z_i^{(1)} + \dots + \gamma_p z_i^{(p)} \quad (3)$$

$$z_i^{(1)}, z_i^{(2)}, \dots, z_i^{(p)}$$

Bu yerda tasodifiy xatolarning o'zgarishiga ta'sir qilishi kutilayotgan o'zgaruvchilar ro'yxati. Ushbu o'zgaruvchilar odatda original modelning regressorlari va ularning eng kichik kvadratlari sifatida qabul qilinadi.

Biz ham modelimizda heteroskedastlikning mavjudligini aniqlash uchun Brush-Pagan va Skynes-Kurtozis testidan foydalanamiz. Ushbu testning nol gipotezasining mazmuni modelda heteroskedastlik mavjud emasligini ta'kidlab keladi, alternativ gipoteza esa heteroskedastlik mavjudligini ifodalab keladi. Ko'rinib turibdiki, olingan natijalarning p-qiyamati 0.05dan yuqori, bu esa bizni alternativ gipotezani rad etib, nol gipotezani qabul qilishimizni taqozo etadi.

Olingan test natijalaridan shuni xulosa qilishimiz mumkinki, bizning modelimiz va tanlangan barcha o'zgaruvchilar sifatli va bir biriga o'zaro salbiy ta'sirchanligi mavjud emas. Shu sababli tanlangan omillarni keyingi modellarda ikkilanishlarsiz qo'llashimiz mumkin.

Manba	chi2	df	R
Heteroskedasticity	79.00	78.00	0.4471
Skewness	7.15	13.00	0.8945
Kurtosis	2.36	1.00	0.1246
<b>Total</b>	<b>88.50</b>	<b>92.00</b>	<b>0.5838</b>

## 2.15.-jalval

*Manba: O'zbekiston Respublikasi Statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.*

Biz ushbu tadqiqotimizda panelli ma'lumotlar bazasini shakllantirganimiz bois, faqatgina ushbu bazani samarali tahlil qila oladigan ekonometrik modellardan foydalanamiz.


### SEM-modeli

Shubhasiz, miqdoriy ijtimoiy tadqiqotlarda eng ko'p qo'llaniladigan yondashuvlardan biri tizimli tenglamalarni modellashtirishdir (SEM modeli). Asosiy statistik nazariyaning chuqurligi, muhim mazmunli muammolarga javob berish qobiliyati va tizimli tenglamalarni modellashtirish uchun maxsus mo'ljallangan dasturiy ta'minotning mavjudligi hamda foydalanish qulayligi uning jozibadorligi uchun asosiy sabab bo'lib hisoblanishi mumkin. Ushbu usulning

mashhurligiga qaramay, uning “birinchi avlod” qo‘llanilishi ham mazmunli, ham statistik yutuqlarga to‘sqinlik qiluvchi an’anaviy amaliyotga singib ketgan, deb ta’kidlash mumkin.

Ko‘pincha tizimli tenglamalarni modellashtirish (SEM) deb nomlanuvchi model tahlili turli xil o‘zgaruvchilar orasidagi o‘zaro ta’sirlar haqidagi nazariyalarni baholash uchun ishlatiladigan ko‘p o‘lchovli texnikadir. Uning kelib chiqishi 1920-yillardan boshlab, genetik ma’lumotlarda bir yo‘nalishli sabab bog‘lamlarni o‘lchash va tahlil qilish uchun yaratilgan.

SEM - bir qancha usullar bilan o‘zgartirilgan chiziqli model: birlashtiruvchi matritsasi, faqat muhim yo‘nalishlarni o‘z ichiga olish uchun “qirqib olingan”. O‘z-o‘zidan ulanishlar qat’iy ravishda ta’qiqlanadi. Tegishli geografik hududlardan javoblar va ehtimol eksperimental yoki ikki chiziqli atamalar ma’lumotlar matritsasiga kiritilgan. Umumiy chiziqli model asosiy model bo‘lib xizmat qiladi:



$$[y_t^1 \ y_t^2 \ y_t^3] = [y_t^1 \ y_t^2 \ y_t^3] \begin{bmatrix} 0 & b_{12} & b_{13} \\ 0 & 0 & 0 \\ 0 & b_{32} & 0 \end{bmatrix} + \varepsilon_t$$

(5)

$$Y = Y\beta + \varepsilon$$

(6)

Bu yerda ko‘rsatilgan kesish yoki ulanishlarning siyrak tuzilishi erkli o‘zgaruvchilarga cheklovlar qo‘yadi. Modelni soddalashtirish uchun qoldiqlar  $\varepsilon$  mustaqil deb hisoblanadi. Ular ba’zan innovatsiyalar deb ataladi va ular har bir hududni stohastik ravishda bir hisoblashdan ikkinchisiga o‘tkazish sifatida ko‘riladi.

Erkli o‘zgaruvchilar kvadrat xatolar yig‘indisini minimallashtirish o‘rniga, ma’lumotlarning namunaviy kovariatsiya tizimidan foydalangan holda hisoblanadi.



Buning asosi shundaki, har bir mintaqa (katakchalarni mintaqa deb ataymiz) nuqtai nazaridan muvofiqlikning yaxshiligini ko'rsatadigan birinchisidan farqli o'laroq, kovariatsiya ma'lumotlarning global hatti-harakatlarini, ya'ni o'zgaruvchilar o'rtasidagi munosabatlarni aks ettiradi. Haqiqatda, tanlangan va qabul qilingan kovariatsiyadan parametrlar bo'yicha optimallashtirilgan maqsad funksiyasi yaratiladi. Tenglamani qayta tartibga solish orqali (7) formula va innovatsiyalarning kovariantligi uchun qiymatni qabul qilgan holda, nazarda tutilgan kovariatsiyani hisoblash oson.

$$\begin{aligned} Y(I - \beta) &= \varepsilon \\ Y &= \varepsilon(1 - \beta)^{-1} \\ \Sigma &= \langle Y^T Y \rangle \\ &= (1 - \beta)^{-T} \langle \varepsilon^T \varepsilon \rangle (1 - \beta)^{-1} \end{aligned} \quad 7$$

Bu kovariatsiya namunasi:

$$S = \frac{1}{n-1} Y^T Y \quad (8)$$

Agar  $n$  namunalar sonini ifodalasa maksimal ehtimollik uchun funksiya quyidagicha ko'rinishda bo'ladi:


$$F_{ML} = \ln |\Sigma| - tr(S \Sigma^{-1}) - \ln |S| \quad (9)$$

Oddiy qilib aytganda, bu namuna kovariatsiyasi, va Kullback-Leibler nazariyasiga ko'ra, noma'lum parametrlar tomonidan bashorat qilingan farq. Ushbu farqni minimallashtiradigan parametrlar odatda Nyuton-Rafson sxemasi kabi gradient tushish usuli yordamida baholanadi. OLS yoki oddiy eng kichik kvadrat usulida dastlabki qiymatlarni baholash uchun ishlatilishi mumkin (Makintosh va Gonsales-Lima, 1994).

Tahlil qilinayotgan jarayonning o'ziga xos xususiyatidan kelib chiqqan holda hamda modelda mavjud omillarning SEM modeli xususiyatlariga mos tushishini inobatga olgan holda foydalanildi.

## I-bosqich


Model uchun foydalanilgan ma'lumotlar asosan O'zbekistonda mavjud korxonalarining faoliyatiga va ularning sonini o'sishiga ta'sir etuvchi omillar tahlili uchun jamlangan bo'lib, uning tarkibiga mavjud iqtisodiy faol aholining samaradorligi, uy xo'jaliklarining toza ichimlik suvi, tabiiy gaz va elektr energiya bilan ta'minlanish darajasi, korxonalarining internetga ulangan qismi, hududlarda yuk va yo'lovchi tashish hajmi va davlat banklari tomonidan korxonalarda kapital hajmini oshirishga yo'naltirilgan investitsiya hajmi, aholi zichligi bo'yicha statistikani qamrab olgan bo'lib, ular hududlarda mavjud resurslar va ularning infratuzilmasini o'zida aks ettiradi.



### 2.7.-rasm. SEM+SEM-Paz+LCA modelining tasviriy ko'rinishi<sup>81</sup>

Yuqoridagi 2.7.-rasmdan ko'rish mumkinki, modelda avvalambor ishlab chiqarishning eng muhim omillaridan biri bo'lmish ishchi kuchi samaradorligi va unga ta'sir etuvchi infratuzilma o'rtasidagi bog'liqlik tahlil qilingan, keyingi qismda esa ishchi kuchi samaradorligi va qattiq hamda yumshoq infratuzilmaning kichik biznes va tadbirkorlikga ta'sirining ekonometrik tahlili keltirilgan.

<sup>81</sup> Stata 15 statistik tahlil dasturi yordamida muallif tomonidan ishlab chiqilgan



**2.8.-rasm. SEM+SEM-PATH+LSA modelining omillari o‘rtasidagi bog‘liqlikning tasviriy ko‘rinishi<sup>82</sup>**

**II-bosqich**

Ushbu bosqichda olingan natijalarning tahlili olib boriladi. 5-rasmdagi tasviriy modeldan ko‘rinib turibdiki, qamrab olingan omillar bir-biri bilan ijobiy nisbatda bog‘langan va kutilgan natijalar olingan.

**2.16.-jadval**

**SEM+SEM-PATH+LSA modelining omillari o‘rtasidagi bog‘liqlik**

SEM model		OIM					
LABORPROD	<-	Coef.	Std. err	Z	P> z	[95% Conf. Interval]	
	HOSPITAL	.0886422	.0575046	1,54	0.123	-.0240648	.2013492
	LCRIME	-10.88273	3.184607	-3,42	0.001	-17.12445	-4.641017
	LPASSEN	1.645075	1.686748	0.98	0.329	-1.66089	4.951039
	LGRADUATE	1.018472	1.954219	-0.52	0.602	-4.848671	2.811726
	DENSITY	.0053744	.0008675	6,20	0.000	.0036742	.0070746
	GAZ	.025896	.0715877	0.36	0.718	-.1662053	.1144132
	SUV	.4048618	.1274835	3.18	0.001	-.6547249	-.1549988
	LENERGY	2.112784	.4751778	4,45	0.000	1.181453	3.044116
	_cons	114.7989	26.05306	4,41	0.000	63.73584	165.862
LKBT	<-						

<sup>82</sup> Stata 15 statistik tahlil dasturi yordamida muallif tomonidan ishlab chiqilgan

	LABORPROD	.0120332	.0025389	4,74	0.000	.0070572	.0170093
	LNATRES	.0283779	.0213218	1,33	0.183	-.0134121	.0701679
	LFREIGHT	.1123281	.0658909	1,70	0.088	-.0168157	.241472
	INTERNET	.0084658	.0081379	1,04	0.298	-.0244157	.0074841
	INVEST	.0012912	.0094761	0,14	0.892	-.0172817	.0198641
	GAZ	.0008004	.0021684	0,37	0.712	-.0050503	.0034495
	SUV	.0115599	.0025149	4,60	0.000	.0066309	.0164889
	LENERGY	.0380384	.0131443	2,89	0.004	-.0638007	-.0122761
	_cons	7.538834	.6146643	12,26	0.000	6.334115	8.743554
<b>LR test of model vs. saturated:</b>		Chi 2(34) = 418.20,			prob > chi2 = 0.0000		

**Manba:** O‘zbekiston Respublikasi Statistika qo‘mitasi ma‘lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

O‘zbekistonda mavjud kichik biznes va xususiy tadbirkorlik korxonalarining eng asosiy resurslaridan biri ishchi kuchi hisoblanadi, ishchi kuchi samaradorligi esa o‘z navbatida ishchi kuchi uchun yaratilgan mavjud infratuzilmaning qay darajada qoniqarli ekanligiga bog‘liq. Shu sababli infratuzilmaning ishchi kuchi samaradorligiga ta’siri tahlil qilindi. Olingan natijalar kutilgandek ko‘rsatkichlarni namoyish etdi. Aholi zichligi, elektr energiya, va ichimlik suvi kabi omillar ishchi kuchi samaradorligiga ijobiy va kuchli ta’sir ko‘rsatmoqda (omillarning p qiymati  $p > 0.05$  dan kichik).

$$LABORPROD = (10)$$

$$114.7989_0 + .0886422_1 hospital - 10.88273_2 lcrime + 1.645075_3 lpassen + 1.018472_4 lgraduate + .0053744_5 density + .025896_6 gaz + .4048618_7 suv + 2.112784_8 lenergy + \mu_i + \delta_i$$

Hududlarda jinoyatlar sonining bir birlikga ortishi ishchi kuchi samaradorligini 10 birlik koefitsientga kamayishiga olib kelishi aniqlandi.

$$LKBT = 7.53_0 + .012_1 laborprod + .028_2 lnatres + .112_3 lfreight + .008_4 internet + .001_5 investment + .001_6 gaz + .011_7 suv + .038_8 lenergy + \mu_i + \delta_i$$

Jumladan, elektr energiya bilan ta’minlangan xonadonlar sonining 1 foizga ortishi KBTsonini 2 taga ortishiga olib keladi. Transport infratuzilmasi, tabiiy gaz, bitiruvchilar, shifoxonalar soni kabi erkli o‘zgaruvchilar esa ishchi kuchi samaradorligi bilan ijobiy, ammo kuchsiz bog‘liqlikda ekanligi aniqlandi (omillarning pi qiymati  $p < 0.05$  dan katta). Hududlarda jinoyatlar sonining ortib borishi esa erksiz o‘zgaruvchiga salbiy ta’sir ko‘rsatgan.

Ushbu bosqichda esa Respublikamizdagi KBT korxonalari soniga mavjud infratuzilmaning ta'siri ekonometrik tahlili davom ettirildi. Erkli omillar natijasida ishchi kuchi samaradorligini 1 birlikga ortishi kichik biznes va tadbirkorlik korxonalarining sonini 0,12 birlikga ko'payishiga olib keladi, yuk aylanmasi va tabiiy resurslarni qazib olishning 1 foizga ortishi mos ravishda kichik biznes va tadbirkorlik sub'yektlarining sonini 0,028 va 0,112 birlikga ko'payishiga olib kelishi aniqlandi. Hududlardagi uy xo'jaliklarini suv va gaz bilan ta'minlangan qismini 1 foizga ortishi kichik biznes va tadbirkorlik sub'yektlarining soni 0.011 va 0.001 birlikga oshishiga olib kelishi aniqlandi.

### **Umumlashtirilgan vaqtli qatorlar modeli (UVQ)**

Noma'lum geterogenlik va oldindan o'rnatilgan regressorlar bilan dinamik panellarni baholashning eng keng tarqalgan usuli, ehtimol, Arellano va Bond (1991) tomonidan taqdim etilgan panel umumlashtirilgan vaqtli qatorlar usulidir. Aniqroq qilib aytadigan bo'lsak, iqtisodchilar orasida juda mashhur bo'lgan qayta aloqa usuli bilan standart qisman tuzatishlar baholanishi kerak bo'lgan oddiy modeldir (Arellano 2003)<sup>83</sup>. Arellano va Bond (1991) usulining afzalligi shundaki, har bir omilga vaqt ketma-ket ma'lumotlar kuzatuvlari (ya'ni, kichik t) bo'lgan panellarda hozir ham bir nechta taxminlarni taklif qiladi va ishonchli natijalarni beradi.

Shu nuqtai nazardan, adabiyotda bir xil identifikatsion taxminga asolangan bir qancha turli hisoblash usullari ishlab chiqilgan. Masalan, Alonso-Borrego va Arellano (1999)<sup>84</sup>, Ahn va Schmidt (1995)<sup>85</sup> va Hansen<sup>86</sup> va boshqalar tomonidan yaxshilangan, cheklangan namuna ko'rsatkichlari bilan Arellano va Bond (1991)<sup>87</sup> baholovchisida turli UVQ o'zgarishlari hisobga olingan. Bundan tashqari, taqqoslanadigan identifikatsiya taxminlari ostida ehtimollikka asoslangan strategiyalar hisobga olindi, bu esa yuqori chegarali namunaviy xatti-harakatlarga

<sup>83</sup> Arellano, M. (2003) "Panel Data Econometrics," Oxford, UK: Oxford University Press

<sup>84</sup> Alonso-Borrego, C. and M. Arellano (1999) "Symmetrically Normalized Instrumental-Variable Estimation Using Panel Data," *Journal of Business & Economic Statistics*, 17, 36-49.

<sup>85</sup> Ahn, S. and P. Schmidt (1995) "Efficient Estimation of Models for Dynamic Panel Data," *Journal of Econometrics*, 68, 5-27.

<sup>86</sup> Hansen, L. P., J. Heaton, and A. Yaron (1996) "Finite-Sample Properties of Some Alternative GMM Estimators," *Journal of Business & Economic Statistics*, 14, 262-280.

<sup>87</sup> Arellano, M. and S. Bond (1991) "Some Tests of Specification for Panel Data: Monte Carlo Evidence and an Application to Employment Equations," *Review of Economic Studies*, 58, 277-297.

olib keladi (masalan, Hsiao va boshq. (2002)<sup>88</sup>, Moral-Benito (2013)<sup>89</sup>). Mutaxassislar tomonidan ushbu muqobil variantlarni qabul qilish oddiy emas, chunki maxsus dasturlash ko‘nikmalari, shuningdek miqdoriy optimallashtirish tartiblari zarur, bu esa amaliy jihatdan cheklovni keltirib chiqaradi.

$$y_{it} = \lambda y_{it-1} + \beta x_{it} + \alpha_i + v_{it} \quad (11)$$

$$E(v_{it} | y_i^{t-1}, x_i^t, \alpha_i) = 0 \quad (t = 1, \dots, T)(i = 1, \dots, N) \quad (12)$$

Bu yerda  $t$  vaqt oralig‘ini (o‘n yilliklar, yillar, choraklar) va  $i$  panel birliklarini (ishchilar, mamlakatlar, korxonalar va boshqalar) bildiradi. Bundan tashqari,  $y_i^{t-1} = (y_i, 0, \dots, y_i, t-1)$  va  $x_i^t = (x_i, 1, \dots, x_i, t)$  belgilari bilan belgilangan oldingi realizatsiyalarning  $tx1$  vektorlarini o‘rnatamiz. Shuni yodda tutish kerakki,  $\beta$  va  $x_i^t$  bir nechta belgilangan regressorli vektorlar bo‘lishi mumkin. Bundan tashqari, ushbu modelda tashqi regressorlarni kiritish ham oson.

$X$  o‘zgaruvchilari uchun yana kuchli ekzogenlik mezonini ushbu model tomonidan yumshatilgan. Ushbu model bo‘yicha kelishilgan prezumpsiya  $x$  ning hozirgi qiymatidan  $Y$  qiymatlaridan kiritishga ruxsat beradi. Lagged  $Vlar$ - bu vaziyatlar to‘plamidagi omillarning chiziqli funksiyalari, bu esa  $v_{it}$  da avtokorrelyatsiya yo‘qligini ko‘rsatadi.

Vaqtli qatorlarda o‘zgarmas regressorlarni qat’iy ta’sirlar bilan bog‘liq emas deb hisoblansa, bu usul Arellano va Bond (1991) modelida ustunlikka ega. Nihoyat, individual ta’sirlarga qo‘shimcha ravishda bir qancha vaqt ma’lumotlarini qo‘shish orqali  $\alpha_i$  ko‘ndalang kesimga bog‘liqlikka yo‘l qo‘yish orqali, modelni tasvirlashni osonlashtiradigan spetsifikatsiyaga bo‘lishga imkon beradi.

Ushbu modelning sanab o‘tilgan imkoniyatlarini inobatga olgan holda hududlarda mavjud yumshoq va qattiq infratuzilmaning KBTlar sonining oshishiga ta’sirini o‘rganish uchun qo‘llaymiz.

<sup>88</sup> Hsiao, C., H. Pesaran, and A. Tahmiscioglu (2002) “Maximum Likelihood Estimation of Fixed Effects Dynamic Panel Data Models Covering short Time Periods,” *Journal of Econometrics*, 109, 107-150.

<sup>89</sup> Moral-Benito, E. (2013) “Likelihood-based Estimation of Dynamic Panels with Predetermined Regressors,” *Journal of Business & Economic Statistics*, 31, 451-472.

**Qattiq infratuzilmaning mavjud KBT faoliyatiga ta'siri vaqtli qatorlarni  
umumlashtirish usuli orqali tahlili**

Number of instruments	51			Wald chi2(8)	= 646.49
				Prob > chi2	= 0.0000
One-step results		(Std. Err.		adjusted for clustering on countrynum)	
		Robust			
<b>LKBT</b>	Coef.	Std. Err.	P>z	[95% Conf. Interval]	
<b>LKBT</b>					
<b>L1.</b>	1.394995	.2504563	0.000	.9041095	1.88588
<b>L2.</b>	.0276539	.2432422	0.909	-.449092	.5043998
<b>GAZ</b>	.0042151	.0019339	0.029	.0004248	.0080054
<b>SUV</b>	.0006159	.0015829	0.697	.0037184	.0024865
<b>LNATRES</b>	.0171682	.0141443	0.225	-.0105542	.0448905
<b>LFREIGHT</b>	.0808065	.1302708	0.535	-.1745196	.3361327
<b>LPASSENGER</b>	.0202171	.0088359	0.022	.002899	.0375352
<b>LELECTR</b>	.0241235	.020354	0.236	-.0157697	.0640167
<b>_cons</b>	-5.434085	1.190077	0.000	-7.766592	-3.101578

*Manba:* O'zbekiston Respublikasi Statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

Mamlakatimizda mavjud uy xo'jaliklarini tabiiy gaz, elektr energiyasi va toza ichimlik suvi bilan ta'minlanganligini ifodalab kelgan **GAZ**, **ELEKTR** va **SUV** erkli o'zgaruvchilari KBT sonini oshishiga nisbatan ijobiy bog'liqlikda ekanligini ko'rish mumkin. Jumladan, tabiiy gaz bilan ta'minlangan uy xo'jaliklarining 1 foizga ortishi O'zbekistonda mavjud korxonalar sonini 0.004 birlikga oshishiga olib keladi. Bundan tashqari, transport sifatini ifodalab keluvchi **LFREIGHT** va **LPASSENGER** o'zgaruvchilari ham erksiz o'zgaruvchiga ijobiy ta'sirda ekanligi aniqlandi. Hududlarda mavjud tabiiy resurslar hajmi **LNATRES** ham shu hududda mavjud korxonalar sonining ko'payishiga ijobiy ta'sir qilishi aniqlandi.

**Yumshoq infratuzilmaning mavjud KBT faoliyatiga ta'siri vaqtli qatorlarni umumlashtirish usuli orqali tahlili**

Number of instruments	52			Wald chi2(8)	= 4533.05
				Prob > chi2	= 0.0000
One-step results					
		(Std. Err.		adjusted for clustering on countrynum)	
		Robust			
<b>LKBT</b>	Coef.	Std. Err.	P>z	[95% Conf. Interval]	
<b>LKBT</b>					
<b>L1.</b>	.7504648	.1436135	0.000	.4689875	1.031942
<b>L2.</b>	.0848695	.1285527	0.509	-.1670891	.3368281
<b>LABORPROD</b>	.0014071	.001197	0.240	-.000939	.0037531
<b>LGRADUATE</b>	.3104319	.0647659	0.000	.183493	.4373708
<b>HOSPITAL</b>	.0027993	.0007754	0.000	.0012796	.0043191
<b>LCRIME</b>	-.0893574	.0183166	0.000	-.1252572	-.0534576
<b>INTERNET</b>	-.008191	.0020664	0.000	-.0122411	-.0041409
<b>INVEST</b>	.0033345	.0017801	0.061	-.0001545	.0068234
<b>_cons</b>	-.2232968	.6817724	0.743	-1.559546	1.112953

*Manba:* O'zbekiston Respublikasi Statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

**2.18.-jadvalda** esa mavjud yumshoq infratuzilmaning KBT soniga ta'siri umumlashtirilgan vaqtli qatorlar usulida tahlil qilindi. **LABORPROD** ya'ni ishchi kuchi samaradorligining bir birlikga ortishi KBT sonini 0.001 birlikga ko'paytiradi, ammo uning ta'siri kuchli emas. **HOSPITAL** va **LGRADUATE** sonining bir birlikga ko'payishi hududlardagi KBT sub'yektlarini mos ravishda 310 va .002 donaga ko'payishiga ta'sir ko'rsatadi va ular o'rtasida kuchli bog'liqlik mavjud. Blum va Kenning<sup>90</sup> (2000) tadqiqot natijalariga ko'ra salomatlik bu ishchi kuchi unumdorligiga ta'sir qilishi mumkin bo'lgan omillardan biridir. Sog'lom ishchilar ko'proq energiyaga ega bo'ladilar, ko'proq smenada ishlashlari va natijada o'zlari faoliyat yuratayotgan korxonada samaradorligiga ko'proq hissa qo'shishlari mumkin. Yuqori malakali tibbiy va ta'lim xizmatlarini

<sup>90</sup> Bloom, David E., David Canning, and Jaypee Sevilla. The effect of health on economic growth: theory and evidence. No. w8587. National Bureau of Economic Research, 2001.



ko'rsatuvchi infratuzilmani rivojlantirish, ishchi kuchi sog'ligi va malakasini yaxshilashga olib kelishi, bu esa mahsulot ishlab chiqarish va milliy boylik hajmini oshiradi. Bularning barchasi ishchi kuchining yuqori ishtiroki, jamg'armalar, inson kapitaliga investitsiyalar va aholi jon boshiga daromadning o'sishiga olib keladi. Boshqa tomondan, sog'lig'ining yomonligi ishda bo'lish, ishda qatnashmaslik va nogironlikka olib kelishi mumkin, bu esa samaradorlikni pasaytiradi, sog'liqni saqlash xarajatlarini oshiradi. Bundan tashqari, nosog'lom ishchilar tibbiy uchrashuvlar yoki kasalliklardan tiklanish uchun ko'proq ishdan bo'shatishlarini talab qilishi mumkin, bu esa ishlab chiqarish obyektlarida samaradorlikni yanada pasaytirishi mumkin.

Shu bilan birga, internetga ulangan korxonalarining soni va jinoyatlar sonining oritishi esa mos ravishda 0081 va 0893 birlikga kamayishiga olib keladi va ular o'rtasidagi ta'sir ham kuchli. Klark (2015)<sup>91</sup> olib borgan tadqiqotlarga ko'ra internetga ulanish tashkilotlarga yirik bozorlarga chiqish, ma'lumotlarni samarali olish va operatsiyalarni yaxshilash imkonini beradi. Bundan tashqari, u korxonalariga global miqyosda mijozlar bazasini kengaytirish va real vaqt rejimida mijozlar va hamkorlar bilan muloqot qilish imkonini yaratadi, natijada samaradorlik va rentabellikni oshiradi. Bundan tashqari, internet aloqasi kompaniyalarga uzoqdan ishlash siyosatini qabul qilish, qo'shimcha xarajatlarni kamaytirish va xodimlarning qoniqishini oshirish imkonini berdi.

Iqtisodiy tadqiqotlar va islohotlar markazi tahlilchilari tomonidan O'zbekistonda hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi iqtisodiy ko'rsatkichlar, ishbilarmonlik muhiti, infratuzilma, shahar va tumanlardagi resurslardan foydalanish darajasiga asoslangan holda hududlarning biznesni rivojlantirish salohiyati baholandi. Ushbu tadqiqot hukumatning "Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish darajasini baholash tizimini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaroriga muvofiq, tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish ko'rsatkichlarini hisoblash va tahlil qilish onlayn tizimini mas'ul tashkilotlar tomonidan taqdim etiladigan 25

---

<sup>91</sup> Clarke, G. R., Qiang, C. Z., & Xu, L. C. (2015). The Internet as a general-purpose technology: Firm-level evidence from around the world. *Economics Letters*, 135, 24-27.

ballik ko‘rsatkich va 4 toifadagi tadbirkorlar o‘rtasida o‘tkazilgan so‘rovlar natijalari tashkil etadi. Olib borilgan sorovnoma natijalariga ko‘ra, Toshkent shahri va Namangan viloyatlari eng yuqori ball olgan bo‘lsa, Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlari eng past ko‘rsatkichlarni qayd etishgan.

Biz ham tadqiqot natijalarini yanada aniqroq va samaraliroq qilish maqsadida mavjud va faoliyat yuritayotgan KBT soniga ko‘ra hududlarni yuqori, o‘rta, va quyi kategoriyalarga ajratgan holda infratuzilmalarning kichik biznes faoliyatiga ta‘sirini ekonometrik tahlilini yuritdik (3.2.9-jadvalga qarang). Bunda:

**Yuqori** -Toshkent shahri, Farg‘ona, Toshkent, Samarqand, Andijon, viloyatlari.

**O‘rta** - Buxoro, Namangan, Surxondaryo, Xorazm, Qashqadaryo viloyatlari.

**Quyi**-Sirdaryo, Navoiy, Jizzax viloyatlari Qoraqalpog‘iston Respublikasi kategoriyalarga kiritildi.

## 2.19-jadval

### Qattiq va yumshoq infratuzilmaning yuqori hududlarda mavjud KBT faoliyatiga ta‘sirini vaqtli qatorlarni umumlashtirish usuli orqali tahlili

Ln KBT	Coef.	Std. Err.	Z	P>z	[95% Conf. Interval]	
<b>Hard infrastructure</b>						
<b>GAZ</b>	-.0038256	.0015487	-2.47	0.014	-.0068611	-.0007902
<b>SUV</b>	-.0054953	.0015695	-3.50	0.000	-.0085714	-.0024193
<b>LNELEKTR</b>	.0261051	.0208055	1.25	0.210	-.0146729	.0668832
<b>LNFREIGHT</b>	.6696334	.0939279	7.13	0.000	.4855382	.8537287
<b>LNPASSENGER</b>	-.9456597	.2386205	-3.96	0.000	-1.413347	-.4779722
<b>LNNATRES</b>	.1024524	.0140162	7.31	0.000	.0749811	.1299237
<b>cons</b>	11.51184	2.41634	4.76	0.000	6.775902	16.24778
<b>Soft infrastructure</b>						
<b>INVESTMENT</b>	.0003983	.010141	0.04	0.969	-.0194776	.0202743
<b>INTERNET</b>	-.0263853	.0048962	-5.39	0.000	-.0359818	-.0167889
<b>LNCRIME</b>	-.1675041	.0627003	-2.67	0.008	-.2903944	-.0446138
<b>LNGRADUATE</b>	.4213686	.1072847	3.93	0.000	.2110944	.6316428
<b>LNHOSPITALS</b>	1.562885	.4138415	3.78	0.000	.7517702	2.373999
<b>cons</b>	1.162305	1.969256	0.59	0.555	-2.697365	5.021976

KBT soni ko‘p bo‘lgan hududlarda qattiq infratuzilmadan gaz, suv va yo‘lovchilar sonining o‘zgarishi, yumshoq infratuzilmadan esa internetga ulanish va jinoyatlar sonining ortishi bilan erkli o‘zgaruvchi o‘rtasida salbiy bog‘liqlik mavjudligi aniqlandi. Jumladan, jinoyatlar sonining 1000 birlikga ortishi, suv va

gaz bilan ta'minlangan xonadonlarning 1% ga qisqarishi esa tadbirkorlik sub'yektlari sonini mos ravishda 0.16, 0.054 va 0.038 birlikga kamaytiradi. Qolgan erkli o'zgaruvchilar KBT soniga ijobiy ta'sir ko'rsatishi va shu bilan birga ularning ta'siri kuchli ekanligini kuzatish mumkin.

## 2.20.-jadval

### Qattiq va yumshoq infratuzilmaning o'rta hududlarda mavjud KBT faoliyatiga ta'sirini vaqti qatorlarni umumlashtirish usuli orqali tahlili

Ln KBT	Coef.	Std. Err.	z	P>z	[95% Conf. Interval]	
<b>Hard infrastructure</b>						
<b>GAZ</b>	.0027416	.0054346	0.50	0.614	-.00791	.0133931
<b>SUV</b>	-.0164256	.0048315	-3.40	0.001	-.0258951	-.0069561
<b>LNELEKTR</b>	.0065925	.0451617	0.15	0.884	-.0819228	.0951077
<b>LNFREIGHT</b>	.2119879	.362795	0.58	0.559	-.4990773	.9230531
<b>LNPASSEN</b>	-.0594926	.0324627	-1.83	0.067	-.1231184	.0041332
<b>LNNATRES</b>	.0282166	.0294294	0.96	0.338	-.0294641	.0858972
<b>_cons</b>	8.525432	4.122224	0.039	0.039	.4460207	16.60484
<b>Soft infrastructure</b>						
<b>INVESTMENT</b>	.0085622	.0088651	0.97	0.334	-.008813	.0259374
<b>INTERNET</b>	-.0084867	.0053305	-1.59	0.111	-.0189343	.0019609
<b>LNCRIME</b>	-.0106148	.0485054	-0.22	0.827	-.1056836	.0844541
<b>LNGRAD</b>	.8201429	.0922701	8.89	0.000	.6392968	1.000989
<b>LNHOSPITALS</b>	.1656571	.1332674	1.24	0.214	-.0955423	.4268565
<b>_cons</b>	2.47057	.8012926	3.08	0.002	.900065	4.041075

*Manba: O'zbekiston Respublikasi Statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.*

O'rta hududlarda gaz bilan ta'minlangan uy ho'jaliklari soni (**Gaz**), elektr energiya (**LNELEKTR**), yuk tashish hajmi (**LNFREIGHT**), tabiiy boyliklar hajmi (**LNNATRES**), investitsiya (**INVESTMENT**), bitiruvchi talabalar soni (**LNGRAD**), shifoxonalar soni (**LNHOSPITALS**) o'rta hududdagi KBT soniga ijobiy, ichimlik suvi bilan ta'minlanish (**SUV**), yo'lovchi tashish hajmi (**LNPASSEN**), korxonalarining internetga ulanish darajasi (**INTERNET**), va jinoyatlar soni (**LNCRIME**) esa salbiy ta'sirda ekanligi aniqlandi.

**Qattiq va yumshoq infratuzilmaning quyi hududlarda mavjud  
KBT faoliyatiga ta'sirini vaqtli qatorlarni umumlashtirish usuli orqali tahlili**

Ln KBT	Coef.	Std. Err.	z	P>z	[95% Conf. Interval]	
<b>Hard infrastructure</b>						
<b>GAZ</b>	.0001907	.0060214	0.03	0.975	-.0116111	.0119925
<b>SUV</b>	-.0025807	.0081959	-0.31	0.753	-.0186445	.013483
<b>LNELEKTR</b>	.0357324	.0454949	0.79	0.432	-.053436	.1249008
<b>LNFREIGHT</b>	.5233134	.288708	1.81	0.070	-.0425439	1.089171
<b>LNPASSENGER</b>	-.5629777	.8313256	-0.68	0.498	-2.192346	1.066391
<b>LNNATRES</b>	.1369204	.0698387	1.96	0.050	.0000391	.2738017
<b>_cons</b>	7.136368	6.484265	1.10	0.271	-5.572559	19.84529
<b>Soft infrastructure</b>						
<b>INVESTMENT</b>	.0066057	.0050981	1.30	0.195	-.0033863	.0165978
<b>INTERNET</b>	-.0229614	.0091032	-2.52	0.012	-.0408034	-.0051195
<b>LNCRIME</b>	-.2413326	.0928828	-2.60	0.009	-.4233795	-.0592857
<b>LNGRADUATE</b>	.9346283	.1628848	5.74	0.000	.61538	1.253877
<b>LNHOSPITALS</b>	.2785777	.2739467	1.02	0.309	-.2583479	.8155033
<b>_cons</b>	3.172383	1.671409	1.90	0.058	-.1035179	6.448284

*Manba: O'zbekiston Respublikasi Statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.*

Quyi hududlarda ham o'rta hududlardagi kabi bir xil natijaga erishildi. Jumladan, gaz bilan ta'minlangan uy xo'jaliklari soni (**Gaz**), elektr energiya (**LNELEKTR**), yuk tashish hajmi (**LNFREIGHT**), tabiiy boyliklar hajmi (**LNNATRES**), investitsiya (**INVESTMENT**), bitiruvchi talabalar soni (**LNGRAD**), shifoxonalar soni (**LNHOSPITALS**) o'rta hududdagi KBT soniga ijobiy, ichimlik suvi bilan ta'minlanish (**SUV**), yo'lovchi tashish hajmi (**LNPASSEN**), korxonalarining internetga ulanish darajasi (**INTERNET**) va jinoyatlar soni (**LNCRIME**) esa salbiy ta'sirda ekanligi aniqlandi.

Tadqiqotning maqsadi O'zbekistonning turli mintaqalarida kichik va o'rta biznesning o'sishiga ta'sir qiluvchi asosiy elementlarni aniqlashdir. Tahlillar natijasida olingan topilmalar shuni ko'rsatadiki, hududlarda KBT rivojlanishiga KBTni moliyalashtirish, gaz, svet, suv, internet, ishchi kuchi samaradorligi kabi bir qancha infratuzilmani ifodalab keluvchi o'zgaruvchilar ta'sir qilishi aniqlandi.

Modelning hisob kitoblari natijasida qo'shimcha tadqiqotlar uchun hisobga olinishi kerak bo'lgan bir qator muhim holatlar aniqlandi. Birinchidan, model yumshoq va qattiq infratuzilmaning birdek barcha tarmoqlarida mavjud kichik

biznes va tadbirkorlik sub'yektlarining faoliyatiga ta'sir ko'rsatishi, infratuzilmalarning rivojlantirilishi hududlarda KBTlarning mahsuldorligining o'sishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Olib borilgan tadqiqotlar natijalari xorijiy olimlar olgan natijalarga mos tushadi. Xususan, Eskribano<sup>92</sup> (2009) Afrika davlatlari misolida olib borgan tadqiqotlari orqali elektr ta'minoti infratuzilmasi sifatining pastligi barcha ishlab chiqarish omillari unumdorligiga sezilarli salbiy ta'sir ko'rsatishini va korxonalar samaradorligiga eng kuchli salbiy ta'sir ko'rsatadigan infratuzilma komponentlaridan biri ekanligini aniqladi. Shu sababli, rivojlanayotgan mamlakatlarda, ayniqsa, qishloq joylarda elektr energiyasi infratuzilmasining sifati va ishonchliligini oshirish, korxonalar unumdorligini va uy xo'jaliklarining daromadlarini oshirish uchun juda muhimdir. Mamlakatimizda ham barqaror iqtisodiy o'sishga, hududlarda ishsizlik va qashshoqlikni kamaytirishga erishish uchun elektr energetika sohasiga investitsiyalar yo'naltirishga ustuvor ahamiyat berishlari kerak.

Shuningdek jinoyat darajasining o'zgarishi va iqtisodiy biznes sikllari o'rtasidagi bog'liqlik ehtimoli ko'plab sotsiolog olimlar tomonidan o'rganilgan. Korxonalar albatta hududda mavjud holatlardan xabardor bo'lishlari kerak, chunki bu kichik hamda yirik korxonalarining kapitalini yo'qotishiga yoki shikast yetishiga olib kelishi mumkin. Iqtisodiyotning tanazzulga uchrashi ham jinoiy faoliyatning kuchayishiga olib keladi. Iqtisodiy sikllar shuni ko'rsatadiki, vaqt iqtisodiy jihatdan og'irroq bo'lganda (ayniqsa, firibgarlik) noqonuniy faoliyat ko'payadi (Bressler)<sup>93</sup>. Shuning uchun davlat va xususiy sektor vakillari inqiroz davrida profilaktika choralarini ko'rishlari va xavfsizlik choralarini kuchaytirishlari kerak. Bu ularning aktivlarini himoya qilishga va jinoiy faoliyat tufayli yuzaga kelishi mumkin bo'lgan yo'qotishlarning oldini olishga yordam beradi.

Normativ-huquqiy, tadbirkorlik institutlari, infratuzilma va kichik biznesni qo'llab-quvvatlash dasturlari kabi omillarni hisobga olgan holda kichik biznes va

---

<sup>92</sup> Eskribano, A. and Guasch, J.L. and Pena, J. (2009): Assessing the Impact of Infrastructure Constraints on Firm Productivity in Africa. Working Paper 9, Africa Infrastructure Sector Diagnostic, World Bank. Washington D.C.

<sup>93</sup> Bressler, Martin s. The Impact of Crime on Business: A Model for Prevention ... - AABRI. <https://www.aabri.com/manuscripts/09202.pdf>.

tadbirkorlikni rivojlantirish uchun dasturlar ishlab chiqish muhimdir. Bu hududlar, tuman va shaharlarda kichik va oʻrta biznesni qoʻllab-quvvatlash infratuzilmasini rivojlantirish imkoniyatini beradi.

Erishilgan natijalar shuni koʻrsatadiki mamlakatimizda zamonaviy talablarga javob beradigan tegishli meʼyoriy-huquqiy baza samarali infratuzilmani rivojlantirish tadbirkorlik uchun zaruriy shartdir. Yuqoridagi empirik tahlillarga asoslangan holda Oʻzbekiston Respublikasi hududlarida infratuzilma qanday rivojlanishi kerakligini koʻrsatuvchi turli xil xulosalarni sanab oʻtish mumkin, jumladan:

- tadbirkorlikni rivojlantirish uchun maxsus institutlarni rivojlantirish;
- davlat, viloyat va shahar darajasida milliy qonunchilik bazasi va mahalliy normativ hujjatlarni ishlab chiqish;
- tadbirkorlikni rivojlantirish uchun maxsus tashkilotlar tashkil etish;
- maqsadli grantlar, subsidiyalar va kreditlarni taqsimlash;
- biznesning barcha bosqichlarida tadbirkorlik sohasida konsalting;
- transport infratuzilmasini rivojlantirish;
- elektr energiyasi va boshqa turdagi zarur energiya manblaridan foydalanishni osonlashtirish;
- ilgʻor infratuzilmaga investitsiyalarni qoʻllab-quvvatlash;
- intellektual mulkni himoya qilish boʻyicha tashabbuslarni ishlab chiqish va h.k.

## **II bob boʻyicha xulosalar**

- Hududlarda birliklardagi infratuzilma tarkibiy qismlarining soʻnggi yillardagi holati chuqur tahlil qilingan;

- Davlat tomonidan energetika sohasidagi belgilab olingan maqsadlarga koʻra, energiya infratuzilmasini tejamkor va yashil energiya tomon yoʻnaltirish boʻyicha sezilarli ishlar koʻzga tashlanmayapti. Qayta tiklanuvchi energiya manbalariga investitsiyalar kam kiritilmoqda, loyihalarning koʻpchilik qismini gaz va neft sohalari tashkil etmoqda.

- Hududlarda tadbirkorlik subʼyektlari uchun zarur infratuzilmani shakllantirish, moliyaviy xizmatlarni yaxshilash, ishbilarmonlik muhitini

qulaylashtirish borasida qilinayotgan amaliy ishlar natijasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning soni soʻnggi dekabrda 31 foizdan 57,5 foizga yoki 1,8 barobarga oshdi;

- Mamlakatimizda kichik va oʻrta korxonalarining iqtisodiy oʻsish va boʻsh ish oʻrinlarini yaratishda ulushi ortib bormoqda;

- COVID 19 keltirib chiqargan qiyinchiliklarga qaramasdan, kichik biznes va tadbirkorlik sohasi kengayishda davom etmoqda;

- Oʻzbekiston iqtisodiyoti tarmoqlarida doimiy unumdorlikka erishish uchun hududlarda yetarlicha infratuzilma sigʻimi mavjud. Shuningdek, xorijiy tajriba asosida hududlarda tadbirkorlik infastrukturasini rivojlantirish uchun ularning xarakteristikasidan kelib chiqish va moliyaviy resurslarni oʻzlashtirishning samarali va taʼsirchan mehanizmlarini yaratish zarur.

### **III-BOB. OʻZBEKISTON RESPUBLIKASIDA KICHIK BIZNES VA TADBIRKORLIK FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHDA HUDUDLARNING ICHKI RESURSLARIGA ASOSLANGAN INFRATUZILMASINI TAKOMILLASHTIRISHNING ASOSIY YOʻNALISHLARI**

#### **3.1. Tadbirkorlik infratuzilmasini takomillashtirishning xorij tajribasi va undan Oʻzbekistonda foydalanish imkomiyatlari**

Bugungi kunda istalgan sohani rivojlantirish uchun xorij tajribasini oʻrganish va uni mamlakatda foydalanish imkoniyatlarini baholash dolzarb hisoblanadi. Sababi, ayrim davlatlar maʼlum bir yoʻnalishda muvaffaqiyatga erishgan holda dunyo hamjamiyatiga namuna yaratgan boʻladi. Bunday muvaffaqiyatli tajribalardan foydalanish kelgusi xavf-xatarlarni va xarajatlarni pasaytirish imkonini beradi. Shu sababdan biz ilmiy tadqiqotimizning mazkur qismida hududlarda kichik biznes va tadbirkorliklar uchun infratuzilmani rivojlantirish boʻyicha quyida bir nechta davlatlar tajribasini oʻrganishga qaror qildik.

INFRATUZILMAGA OID AYRIM DAVLATLAR STATISTIKASI<sup>94</sup>

	O‘zbekiston	Turkiya	Xitoy	Qozog‘iston
<b>Temir yo‘llar</b>	4642	13378	68141	16061
<b>Transport sohasiga xususiy investitsiyalar, mlrd dollar</b>	-	8,2	6504	0,3
<b>Havo yo‘llari orqali yuk tashish, mln tonna</b>	20	6870	19264	23,5
<b>Xavfsiz internet serverlari</b>	16044	570108	1338370	62033
<b>Internet tarmog‘iga ulangan abonentlar, %</b>	65,7	77,67	70,4	85,94
<b>Universitetlar</b>	154	207	2500	87
<b>Tibbiy muassasalar</b>	1281	1600	25500	1413

Yuqoridagi jadvaldan ko‘rish mumkinki, qaysi davlat biror infratuzilma tarkibiy qismi bo‘yicha ustunlik qilgan bo‘lsa, qolgan sohalarga ham juda katta e‘tibor qaratgan. Shuningdek, ularning rivojlanganlik darajasi va ularda mavjud infratuzilma ham bir-birini taqozo etadi va o‘zaro aloqador sanaladi.

Bizga ma’lumki, Xitoy davlati kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirish va unga zarur infratuzilmani yaratish bo‘yicha yetakchi davlatlardan sanaladi. Boshqa davlatlar tajribasidan farqi shundaki, mamlakatda qisqa muddatda mahalliy bozorlarni to‘yintirish hamda eksportga yo‘naltirilgan tovar va xizmatlarni yaratish uchun kerak bo‘ladigan infratuzilma yaratildi. Shuningdek, mamlakat iqtisodiyoti rivojlanishi ham jamiyat farovonligining negizi bo‘lib xizmat qilmoqda. Iqtisodchi olimlar tadbirkorlik muhitini iqtisodiy rivojlanish va tadbirkorlikni yanada ommalashtirishda juda ham muhim omil deb hisoblashadi. Mamlakatlar darajasida olib qarajak, Xitoy doimiy ravishda kichik biznes hamda tadbirkorlik sohasini rivojlantirish uchun islohotlarni amalga oshirib kelmoqda. Korxonalar darajasida biznes muhitini optimallashtirishni foyda solig‘i va xususiy mulk dahlsizligi o‘zida aks ettiradi. Bu omillar korxonalarining transaksion harajatlari va risklarini kamaytirishga xizmat qiladi. Aslida kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirishga

<sup>94</sup> www.worldbank.org va www.stat.uz saytlari malumotlari asosida tayyorlandi



juda ko‘plab omillar ta’sir etadi. Ko‘plab olimlar tomonidan biznes muhitini yaxshilash tadbirkorliklar sonini ko‘paytirishga xizmat qiladigan biznes infratuzilmani rivojlantirish bo‘yicha tadqiqotlar olib borilgan.

Shu o‘rinda aytish joizki, Xitoy kompaniyalari har kuni biznes yuritishning yangicha yo‘llarini o‘ylashsa, boshqalar esa o‘zgarishlarga tezkorlik bilan moslashish to‘g‘risida bosh qotirishadi. Hukumat tomonidan yaxshigina tadbirkorlik qilish uchun infratuzilma yaratilgan bo‘lib, ular iste’molchiga yo‘naltirilgan infratuzilmani rivojlantirish haqida ko‘proq bosh qotirishadi.

Xitoyda kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirishda e’tibor berilishi kerak bo‘lgan jihatlar quyidagicha (3.2.-jadval) uch toifaga ajratiladi.

### 3.2.-jadval

#### Xitoyda kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirishda omillar toifalari<sup>95</sup>

<b>Birlamchi omillar</b>	<b>Ikkilamchi omillar</b>	<b>Uchinchi darajali omillar</b>
<b>Hukumat samaradorligi</b>	Davlat xarajatlari Davlat xizmatlari	Davlat byudjeti xarajatlari (mln) Hukumat samaradorligi (%)
<b>Inson kapitali</b>	Ishchi kuchi	O‘rtacha oylik ish haqi (Yuan)
	Ishchi kuchiga xarajatlar	Ta’lim bilan qamrab olish (jon boshiga)
<b>Moliyaviy xizmatlar</b>	Xizmat ko‘lami	Moliyaviy xizmat ko‘rsatuvchilar (har 10 000 kishiga) Xususi moliyaviy xizmat ko‘rsatuvchilar (har 10 000 RMB)
<b>Davlat xizmati darajasi</b>	Gaz ta’minoti potentsiali	Tabiiy gaz ta’minoti (mln tonna)
	Suv ta’minoti	Suv ta’minoti (mln kub metr)
	Elektr energiyasi ta’minoti	Sanoat uchun elektr energiyasi (mln kw)
	Tibbiy xizmat	Koykalar soni (mln kishiga)
	Iqtisodiy ko‘rsatkichlar	Aholi jon boshiga YIM (Yuan)
	Import va eksport	Asosiy vositalarga investitsiyalar (aholi jon boshiga)

<sup>95</sup> Rong, K., Liu, Z. and Shi, Y. (2011), “Reshaping the business ecosystem in china: case studies and implications”, *Journal of Science and Technology Policy in china*, Vol. 2 No. 2, pp. 171-192. <https://doi.org/10.1108/17585521111155228>

<b>Bozor shart-sharoitlari</b>	Korporativ institutlar	Xorijiy kapital o‘zlashtirilishi (aholi jon boshiga) Yangi tuzilgan shartnomalar soni Sanoat korxonalar soni
<b>Innovatsion soha</b>	Innovatsion sohaga xarajatlar	Ilmiy tadqiqotlar uchun xarajatlar
	Innovatsion soha natijalari	Qo‘lga kiritilgan patentlar soni
	Innovatsion salohiyat	Innovatsion salohiyat indeksi

1970-yildan boshlab Xitoy hukumati tomonidan kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirish maqsadida amalga oshirilgan islohotlari sabab xususiy sektor asta-sekinlik bilan rivojlandi va iqtisodiy o‘shishni ta’minlashda juda katta ahamiyat kasb eta boshladi.

**Xitoy tadbirkorligining dinamik infratuzilmasi.** Bugungi kundagi Xitoyning tadbirkorlik uchun yaratgan infratuzilmasi samarali olib borilgan islohotlar va tizim natijasi deyish mumkin. Sababi mamlakat yillar mobaynida infratuzilmani shakllantirar ekan, iqtisodiyotda investitsiyalar faolligini ta’minlay oldi. Bu esa yangidan yaratiladigan firmalarning manbalaridan biriga aylandi. Tadbirkorlik sub’yekti yaratilar ekan, u “tug‘ilganidan” boshlab bozorning boshqa ishtirokchilari bilan munosabatlarining qanday bo‘lishining institutsional asoslari mustahkamlab qo‘yilgan edi. Aniqroq aytganda, qonuniy ravishda ish boshlashidan oldin xususiy tadbirkor qancha ishchi kuchi ishlata oladi, faoliyati davomida hamkorlari kimlar bo‘ladi, bank sektori bilan aloqasi qanday bo‘ladi kabi savollarga javobni yaxshi biladi. Bu orqali tadbirkor faoliyat yo‘nalishini baholash imkoniga ega bo‘ladi.

Xitoy firmalari infrastukturaning turli xil ko‘rinishlari sharoitida shakllanadi. Davlat sektoridagi tadbirkorliklar asosan investitsiyaga yo‘nalgan infratuzilma yaratadi. Mazkur tizim bozorda talabni hosil qiladigan ishlab chiqaruvchilar zanjiriga o‘xshaydi. Hukumat tez-tez korxonalar, bank va universitet ko‘rinishlarida paydo bo‘ladi va investor sifatida ham katta ro‘l o‘ynaydi. Davlat korxonalarida yangi investitsiya ko‘proq investitsiya olib kelganligi sababli o‘zlariga o‘zlari investitsiya qiladi. Ishlab chiqarishlar asosan zamonaviy asbob uskunalar bilan hamda malakali ishchilar bilan ta’minlangan yuqori bo‘g‘in va monopol sohalarga

a'loqador infratuzilma (telekommunikatsiya, logistika kabilar) yoki neft, gaz kabi sohalarda bo'lgan.

Xitoyning mahalliy hokimiyatlari tomonidan ham tadbirkorlarni doimiy ravishda qo'llab-quvvatlash amalga oshiriladi. Ayniqsa, xorijiy korxonalar bilan mahalliy korxonalarni bir-biri bilan bog'lashga va ularni bir-biri bilan xaridor bo'lishiga intilishadi. Mahalliy miqyosda qulay infratuzilma yaratish maqsadida sanoat klasterlarini yaratishgan. Bu esa korxonalar uchun zarur bo'lgan ishlab chiqarish, tashish, sotish kabi infratuzilmalardan bir joyda turib foydalanish imkonini beradi. Natijada ishlab chiqarish samaradorligi oshadi, vaqt sarfi kamayadi va xarajatlarni pasaytiradi.

Xitoy asosan iqtisodiy infratuzilmaga 1998-yildan boshlab katta e'tibor bera boshladi. Transport, elektr energiyasi, gaz tarmog'i, telekommunikatsiya, shahar suv ta'minoti va sanitariya sohalariga xarajatlar 1994-yilgi 39 mlrd dollardan 1998 yilga kelib 88 mlrd dollarga etdi. 2003-yilda 123 mlrd dollargacha oshib YIMga nisbatan 8.7 foizini tashkil etdi. Boshqa Osiyo davlatlari moliyaviy inqirozni boshdan kechirayotgan bir paytda Xitoy moliyaviy islohotlarni amalga oshirgan holda infratuzilmaga mablag' yo'naltira oldi. Shu bilan bir qatorda mazkur soha markaziy hukumatdan hududiy birliklari sari harakatlana boshladi. Bosh hukumat sohani rejalashtirish, moliyalashtirish va siyosiy muvofiqlashtirishda o'z rolini mustahkamlayotgan bir paytda, hududiy birliklar infratuzilmani qanday qilib moliyalashtirish va boshqarish bo'yicha moslashish jarayonini boshdan kechirayotgan edi. Eng muhimi, mamlakatning investitsiya siyosati milliy raqobatbardoshlikni va iqtisodiy infratuzilmani rivojlantirishni maqsad qilgan edi. Bugungi kundagi rivojlangan kichik biznes va tadbirkorlik sohasini hududlardagi keng ko'lamli infratuzilmaviy islohotlarsiz tasavvur etish mushkul.

Xitoy tajribasidan aytish mumkinki, uning hududlarida kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirishda ishchi kuchi bozorida arzon taklifning haddan tashqari ko'pligi va infrastukturaga sarflar strategik ahamiyat kasb etdi. 1994-yildagi soliq islohoti bilan bog'liq funksional hamda fiskal nomarkazlashish hududiy birliklar uchun infratuzilmani rivojlantirishga bo'lgan rag'batni va moliyaviy salohiyatni ancha oshirdi.

Ammo aytish joizki, hech bir narsa nomukammallikdan, kamchiliklardan holi emas, jumladan hududlarda infratuzilmani rivojlantirishning Xitoy tajribasi ham: bir qator kamchiliklar mavjud edi:

- Investitsiyalarning behuda sarflanishi:
- davlat fondlarining suiste'mol qilinishi:
- qishloq hududi erlarini qurilish maqsadida haddan tashqari ko'p ajratilishi:
- Tabiatga zarar etkazilishi.

Agar ijtimoiy-iqtisodiy infratuzilmaga yetarlicha e'tibor berilmaganda, o'sib borayotgan shahar aholisida qashshoqlik darajasi oshib ketgan bo'lardi. Bu holatning e'tiborga molik tomoni shuki, mamlakatning hududiy mutasaddilari shunchaki markaziy hukumatga qarab qo'l qovushtirib o'tirishmadi, balki infratuzilmani rivojlantirish uchun qo'shimcha ichki va tashqi resurslarni jalb etishning uddasidan chiqishdi.

Xitoyda kichik biznes va tadbirkorlik, xususiy sektor rivojlanishining o'ziga xos tarixi mavjud. 1978 - 1992 yillar oralig'ida hukumat dastlab qishloq xo'jaligini nomarkazlashgan boshqaruvga o'tkazish orqali fermerlarga nimani, qancha va qanday etishtirish bo'yicha imkoniyat yaratib berdi. Natijada, kichik shaharchalar va qishloqlarda (TVE - township and village enterprises) kichik biznes va tadbirkorlikning rivojlaishiga sabab bo'ldi. Bu vaqt oralig'ida hukumat turli xil siyosiy islohotlarni amalga oshirdi va xususiy sektor rivoji uchun huquqiy o'zgarishlar qildi.

1992 – 2000 - yilgacha bo'lgan davr mobaynida, xususiylashtirish jarayonlari jadallashdi. Davlat tasarrufidagi tadbirkorliklar ulushi 1978-yildagi 77 % dan 1999-yilga kelib 28 % gacha pasaydi. Ammo, davlat hamda xususiy tadbirkorliklar o'rtasida diskriminatsiya saqlanib qolgandi.

2000-yildan hozirga qadar davlat va xususiy tadbirkorliklar maqomi tenglasha bordi. Ularga teng huquqli imkoniyatlar berila boshlandi.

Mamlakat hududlari bo'ylab kichik biznes va tadbirkorlik rivojlanishi bir-biridan farq qilardi. Davlat darajasidagi institutsional o'zgarishlardan tashqari kichik biznes va tadbirkorlik rivojlanishida siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy ahvolning hududiy xususiyatlari ta'sir etmasdan qolmadi. Ushbu farqlanish ro'yxatdan o'tgan

korxonalar sonida ham namoyon bo‘ldi. 2003 yilda 69.3 % xususiy tadbirkorliklar mamlakatning qirg‘oq bo‘yi hududlarida, 17.1 % va 13.5% i mos ravishda markaziy va g‘arbiy provinsiyalarda joylashgan edi<sup>96</sup>.



### 3.1.- rasm. Xitoyda EIZ (erkin iqtisodiy zona) va MIZ (maxsus iqtisodiy zona)lar va ularning joylashuvi <sup>97</sup>.

Tadbirkorlik sohasi uchun infratuzilmani yaratishning samarali usullaridan biri – bu MIZ hamda EIZlarni tashkil etishdir. Bu usul Xitoy tajribasida yaxshi samara berganini ko‘rish mumkin.

Yuqoridagi rasm ma’lumotidan ko‘rinadiki, MIZlar mamlakatning qirg‘oq bo‘yi hamda chegara hududlari bo‘ylab joylashgan. MIZlarning bunday joylashuvi geografik jihatdan juda katta ahamiyatga ega. Suv bo‘ylab joylashtirilgan MIZlar suv transporti orqali tashishda ustunlik bersa, Horgos va Qoshg‘ar kabilar

<sup>96</sup> Li, H. (2012). History and Development of Entrepreneurship in china. Entrepreneurship and Economic Growth in china, 13–34. doi:10.1142/9789814273374\_0002

<sup>97</sup> [https://www.google.com/search?q=special+economic+zones+in+china&source=lnms&tbm=isch&sa=X&ved=2ahUKEwicqWt1676AhXmlYsKHZl6CvkQ\\_AUoAXoECAIQAw&biw=1366&bih=635&dpr=1#imgrc=zar-k1hHLVj0M](https://www.google.com/search?q=special+economic+zones+in+china&source=lnms&tbm=isch&sa=X&ved=2ahUKEwicqWt1676AhXmlYsKHZl6CvkQ_AUoAXoECAIQAw&biw=1366&bih=635&dpr=1#imgrc=zar-k1hHLVj0M)

quruqlikda chegara bo‘ylab joylashishi mamlakatning boshqa qismlarini dunyo davlatlari bilan bog‘lashda “hub” vazifasini bajarish orqali ustunlik beradi.

“Maxsus iqtisodiy zonalar” tadbirkorlik sohasi vakillari uchun imtiyoz va preferensiyalarga ega infratuzilmalar majmuasi hisoblanadi.

### 3.3.- jadval

Xitoy davlatida “Maxsus iqtisodiy zonalar” turlari va umumiy soni<sup>98</sup>

Maxsus iqtisodiy zonalar				
Maxsus iqtisodiy zonalar (SEZ)	Davlat darajasidagi yangi hududlar (State-level new areas)	Erkin savdo zonalar (FTZ)	Qirg‘oqbo‘yi ochiq shaharlar (COC)	High-Tech sanoat rivojlanish zonolari (High-Tech IDZ)
7	19	10	16	168
<b>220</b>				

Yuqoridagi jadval ma’lumotlariga ko‘ra, mamlakatda “maxsus iqtisodiy zonalar”ning bir necha ko‘rinishlari farq qiladi. Ular joylashuvi, maqsadi va vazifasiga ko‘ra bir-biridan farqli hisoblanadi. E’tiborli jihati shundaki, High-Tec sanoat rivojlanish zonalar eng yuqori ulushga ega. Mamlakat bo‘ylab hududlarda kamida bitta, ko‘pi bilan 12 atrofida High-Tec sanoat rivojlanish zonolari tashkil etilgan.

Shuningdek, hukumat tomonidan kichik biznes va tadbirkorlik sohasini rivojlantirish va unga qulay shart-sharoitlar yaratish bo‘yicha amalga oshirilgan ishlardan biri – bu sanoat klasterlarining tashkil etilishidir. Xitoy iqtisodiyoti tarixida sanoat klasterlarini tashkil etish samarali islohotlardan biri hisoblanadi. Ushbu klasterlar hukumat tomonidan, ayniqsa hududiy boshqaruv birliklari tomonidan faol ravishda qo‘llab-quvvatlangan. Mahalliy hukumat yordamlari turli xil bo‘lishiga qaramasdan, sifatli infratuzilma yaratish maqsadida asosan “bozor muvaffaqiyatsizlik” lari yuzaga kelgan tomonlarga e’tibor berilar edi. Hukumat uchun yo‘llar, energiya ta’minoti, suv va internet tarmoqlari ta’minotlari orqali infratuzilmani shakllantirish eng asosiy prioritet hisoblansa, hududiy hukumatlar biznes faoliyatiga ko‘maklashish maqsadida maxsus bozorlar yoki sanoat

<sup>98</sup> Muallif tadqiqotlari asosida tuzilgan

parklarini bunyod etishga harakat qiladi. Bu kabi bozorlar ishlab chiqaruvchilar, sotuvchilar va iste'molchilarni bir joyda jamlash uchun qulay shroitlarga ega bo'lib, sanoat klasterlarini rivojiga katta hissa qo'shdi. Shichiao provinsiyasida mahalliy bozorni tartibga solish va ishlab chiqarish, savdoni rivojlantirish maqsadida shahar hukumati norasmiy bozorning o'rniga Janubiy Tekstil bozorini tashkil etdi. Shenjou provinsiyasida munitsipal hukumat tomonidan 557 mln RMB "Xitoy Poyabzal Kapital" sanoat zonasini va Lu cheng shahrida poyabzal ishlab chiqarishga ixtisoslashgan kompleksni barpo etish uchun sarfladi. Jejiangda esa, turli xil manbalar hisobidan "Kashmir sviter bozori" ni tashkil etdi va qo'shimcha infratuzilmani shakllantirish uchun xususiy tadbirkorlar jalb etildi. Investorlarga, asosan logistik markaz, yuklash joylari, omborxonalar va avtoturargoh kabilarni barpo etishga ruxsat berildi. Yuqoridagi kabi misollarni mamlakat bo'ylab istalgancha topish mumkin edi<sup>99</sup>.

Biznesga imkoniyatlar berish va shart-sharoitlar yaratish bilan birgalikda zarur holatlarda sifat va standartlar ustidan nazorat qilish zarur hisoblanadi. Tekstil klasterida dastlab sifatga emas, hajmga e'tibor berildi va natijada arzon va past nufuzli tovarlar hajmi ortib ketdi. Buni to'g'irlash uchun mahalliy hukumat tomonidan sifat va standart nazoratlar o'rnatildi.

Ochiqlik siyosatiga asosan, avvalo kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirish uchun infratuzilma Xitoyning sharqiy qirg'oq bo'yi hududlarida rivojlantirila boshlandi. Ushbu hududlarda xalqaro savdoni rivojlantirish maqsadida "erkin iqtisodiy zonalar" tashkil etildi. Sekin-astalik bilan "erkin iqtisodiy zonalar" boshqa sohil bo'yi hududlarda ham ochila boshladi. Qirg'oq bo'yi hududlari geografik jihatdan boshqa hududlarga nisbatan ustunliklarga ega bo'lganligi sababli to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb etishga katta yordam beradi. Aytish mumkinki, Janubiy sohil bo'yi hududlari hududiy, madaniy jihatdan yaqin xorijiy davlatlar bilan munosabat o'rnatishda lingvistik jihatdan ustunlikka ega edi. Bu esa Gongkong, Makau va Taivan kabi hududlarni

---


<sup>99</sup> Douglas Zhihua Zeng (2012) "China's Special Economic Zones and Industrial Clusters: Success and challenges" Lincoln Institute of Land Policy Working Paper, [help@lincolninst.edu](mailto:help@lincolninst.edu)

to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar makoniga aylantirgan muhim omillardan hisoblanadi.

Shuningdek, hududlarda kichik biznes va tadbirkorlik rivojlanishining farqlanishi hududlarda huquqiy tizimning shakllanganligi va amal qilishidir. Mamlakatda kichik biznes va tadbirkorlik rivojlanishining besh ta hududiy modeli farqlanadi. Ular quyidagilar:

- Shenjou modeli:
- Sunan modeli:
- Yujiang modeli:
- davlat ustunligi modeli:
- Cheklangan rivojlanish modeli.

Bugungi kunda mamlakatda kichik biznes va tadbirkorlik uchun yaratilgan shart-sharoitlar bilan tanishadigan bo‘lsak, quyidagicha ma’lumotlarga ega bo‘lamiz. Dastlab sohalar bo‘yicha elektr energiya iste’moliga to‘xtalamiz.




### **3.2.-rasm. Xitoyda barcha sohalarda elektr energiya iste'moli dinamikasi <sup>100</sup>**

Yuqoridagi chizma ma’lumotlaridan ko‘rinadiki, barcha sohalar bo‘yicha elektr energiya iste’moli kuchli dinamik o‘zgarishlarga ega. Umumiy hisobda ko‘rsatkich vaqt o‘tgan sari oshib bormoqda. Qiziqarli jihati shuki, yil ohirida elektr energiya iste’moli keskin kamayadi.

<sup>100</sup> www.worldbank.org sayti malumotlari asosida tayyorlandi



2009-yilda sohalarda elektr energiya iste'moli 350 mlrd KVni tashkil etgan bo'lsa, 2021-yilga kelib bu ko'rsatkich deyarli ikki barobarga oshib, 670 mlrd KVga yaqinlashdi.



### 3.3.-rasm. O'zbekistonda sohalarda bo'yicha elektr energiya istemoli dinamikasi<sup>101</sup>

Yuqoridagi chizma mamlakatimizda elektr energiyasini tasvirlab berar ekan, unda quyidagicha ma'lumotlar shakllanadi.

Birinchidan, dastlabki dekadada elektr energiya iste'moli umumiy hisobda unchalik ham o'zgarishga uchramagan. Keyingi o'n yillikda elektr iste'moli sezilarli darajada oshgan.

Ikkinchidan, elektr energiya iste'molida eng katta ulush sanoat hamda qishloq xo'jaligi korxonalarini hisobiga to'g'ri keladi. Undan keyingi o'rin aholi tomonidan band etilgan va ikkinchi dekadada sezilarli darajada ortgan. Eng kam elektr energiya iste'molini qurilish, tijorat korxoalari hamda davlat idoralariga to'g'ri keladi. Oxirgi yillarda esa, sanoat korxonalarini hamda aholining elektr energiya iste'moli hajmi deyarli tenglashishga ulgurgan. Qishloq xo'jaligi sohasida bo'lsa bu ko'rsatkich pasayib bormoqda.

Xitoy hukumati o'z iqtisodiyotini zamonaviylashtirish va barqaror o'sishini ta'minlash maqsadida doimiy ravishda infratuzilmaga davlat xarajatlarini amalga oshirib keladi ya'ni turli xil davlat dasturlari, rivojlanish dasturlari va yirik infratuzilmaga investitsion xarajatlarni amalga oshiradi.

<sup>101</sup> www.stat.uz sayti malumotlari asosida tayyorlandi

Umumiy xarajatlar 2003-yilda 0.62 trln dollarni (YIMning 13%i) tashkil etgan bo'lsa, 2015-yilga kelib ushbu ko'rsatkich 2.1 trln dollargacha (YIMning 20%i) oshdi<sup>102</sup>.

Tadqiqotlarga ko'ra ushbu yo'nalishda islohotlar davom etadi va 2030 yilga kelib infratuzilmaga xarajatlar taxminan 16 trlnni tashkil etadi.

Jahon tajribasida kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirish va unga zarur infratuzilmani yaratish bo'yicha o'z o'rniga ega davlat Turkiya hisoblanadi. Bu sohada Turkiyaning eng katta yutug'i bu – tartibli va samarali xususiylashtirish hisoblanadi. Bu sohada ishlarning boshlanishi 1980 yilga borib taqaladi. Hukumat davlat mulkini xususiylashtirish hamda yangilarini barpo etishni birgalikda olib bordi. Shu bilan birgalikda mavjud hamda yangidan yaratilayotgan korxonalar uchun albatta talab darajasidagi infratuzilma zarur ekanligini bilishardi.

Zarur infratuzilmalardan biri – bu logistika sohasi bo'lib, mazkur sohada texnologik o'sish hisobiga xalqaro savdoda samaradorlik oshishiga erishildi. Bu esa turk firmalarining jahon bozorlari bo'ylab tovar va xizmatlari kengroq yoyilishiga katta hissa qo'shdi. Temir hamda suv yo'llaridagi ulkan yutuqlar mamlakatni xalqaro savdodagi o'rnini yanada mustahkamlashga yordam berdi. Bu orqali tranzit yuk tashish xizmati rivojlandi va hududiy korxonalar uchun muhim infratuzilmalardan biri bo'lib xizmat qildi.

Hududlarda infratuzilmani yaxshilash orqali hududiy tadbirkorlikni rivojlantirish bo'yicha Turkiya o'ziga xos tajribaga ega. Davlat, biznes va nodavlat tashkilotlar birgalikda iqtisodiy o'sishni ta'minlash maqsadida jamoaviy tarzda ulkan ishlarni amalga oshirdi. Hududiy boshqaruv organlari munitsipal jihatdan chegaralab qo'yilmadi. Ularning asosiy maqsadi hududiy iqtisodiy rivojlanishni ta'minlash edi. Hududiy iqtisodiy rivojlanishning asosiy xususiyati – bu mahalliy reurslar hamda mahalliy potensialdan foydalanish hisoblanadi. Bu yerda asosiy maqsad hududning iqtisodiy salohiyatini oshirish orqali biznes vakillari va aholiga qulay shart-sharoitlar yaratish sanaladi. Hududiy iqtisodiy rivojlanish yondashuvi vaqt o'tishi bilan o'zgarib bordi. 90-yillarda “qattiq infratuzilma”ga investitsiyalar

---

<sup>102</sup> <https://www.rics.org/es/wbef/megatrends/markets-geopolitics/case-study-how-does-china-pay-for-her-infrastructure--an-introduction/>

jalb etila boshladi va e'tibor markazida bo'ldi. Shundan so'ng sekinlik bilan "Yumshoq infratuzilma"ga qarab yo'nalish o'zgardi va inson kapitali rivojlanishiga ko'proq e'tibor qaratildi. Davlat sektori o'rniga xususiy sektor investitsiyalari va davlat-xususiy sheriklik yetakchi o'rinni egallab, infratuzilmani yaratishga kirishadi. Va mahalliy firmalarning infratuzilmasi o'sishi, hamkorlik biznes aloqalari va kommunikatsiya tizimini yaxshilash asosiy maqsadlardan biriga aylanadi. Hududiy infratuzilmani rivojlantirish asosan hududiy resurslardan foydalanish, hududiy nazorat, hududiy manfaatlar uchun prinsiplariga asoslanadi.

Infrstrukturani juda muhim deb biladigan Turkiya hukumati 2053-yilgacha o'zining uzoq yillik strategiya va maqsadlarini ishlab chiqdi. Unga ko'ra, kelgusi 30 yilda katta yo'llar hajmini, temir va suv yo'llari orqali tashishni va infratuzilmaga investitsiyalarni ikki barobardan ko'proq oshirish belgilangan. Transport va infratuzilma vazirining aytishicha, temir yo'l tarmog'i 2053-yilgacha bugungi 13000 kmdan 28590 kmgacha uzaytiriladi.

2003-2021 yillar oralig'ida 172 mlrd dollardan ko'proq investitsiyalar transport va kommunikatsiya sohasiga o'zlashtirilgan, - deydi Transport va infratuzilma vaziri. Vazirning aytishicha, "2053-yilgacha investitsiyalar hajmi 198 mlrga oshiriladi"

Hisob-kitoblarga ko'ra, yuqorida keltirib o'tilgan infratuzilmaga sarflar natijasida quyidagilarga erishiladi:

Hukumat 176 mlrd dollar tejaydi, shundan:

- vaqt hisobidan 59 mlrd dollar:
- yoqilg'i hisobidan 26 mlrd dollar:
- baxtsiz hodisalar kamayishi hisobidan 10 mlrd dollar:
- tabiat ifloslanishining kamayishi hisobidan 31 mlrd dollar:
- boshqa tashqi omillar hisobidan 56 mlrd dollar.

Vazirning aytishicha Turkiya yo'lovchi va yuk tashish bo'yicha Yevropa, G'arbiy Osiyo va Afrika davlatlari uchun bog'lovchi markaz vazifasini bajaradi.

Shuningdek, turizm sohasi rivojlanib, turistlar oqimining infratuzilmaga bosimining ortishi sababli, 2053-yilgacha bugungi kunda faoliyat yuritayotgan 56 ta aeroport 61 taga yetkaziladi.

**HUDUDLAR INFRATUZILMASINI RIVOJLANTIRISHDA XORIJ TAJRIBASIDAN  
FOYDALANISH. SWOT.**

<b>STRENGTHS ?</b>	<b>WEAKNESSES ?</b>
<ul style="list-style-type: none"> <li>• ISHCHI KUCHI TARKIBINING NISBATAN YOSH EKANLIGI</li> <li>• TURLI DARAJADAGI TA'LIM OLISH IMKONIYATLARI</li> <li>• XUSUSIY HAMDA DAVLAT OLIYGOHLARINING MAVJUDLIGI</li> <li>• ARZON ISHCHI KUCHI</li> <li>• ISHCHAN VA QO'LLAB-QUVVATLOVCHI INSTITUTLAR</li> </ul>	<ul style="list-style-type: none"> <li>• ISHSIZLIK VA KAMBAG'ALLIK</li> <li>• TALAB DARAJASIDA BO'LMAGAN INFRATUZILMA, AYNIQSA YANGIDAN TASHKIL ETILGAN KORXONALAR UCHUN</li> <li>• BOSHQARUV SOHASIGA NISBATAN SALBIY TASAVVUR</li> <li>• MOTIVATSIYASINI YO'QOTGAN TADBIRKORLIK SUB'EKT LARI</li> <li>• TALAB DARAJASIDA BO'LMAGAN ISHCHI KUCHI</li> <li>• SAMARASIZ HUDUDIY BOSHQARUV ORGANLARI</li> </ul>
<b>OPPORTUNITIES ?</b>	<b>THREATS ?</b>
<ul style="list-style-type: none"> <li>• TRANSPORT TIZIMINING TALAB DARAJASIDA SHAKLLANTIRISH IMKONIYATLARI</li> <li>• JAHON SAVDO TASHKILOTIGA KIRISH</li> <li>• TURLI XIL XALQARO KELISHUVLARGA ERISHISH</li> <li>• SIYOSIY VA IQTISODIY BARQARORLIK</li> <li>• KICHIK BIZNES VA TADBIRKORLIKNI QO'LLAB-QUVVATLOVCHI INSTITUTLAR</li> <li>• KICHIK BIZNES VA TADBIRKORLIKNI QO'LLAB-QUVVATLASH YUZASIDAN HUQUQIY YAXSHILANISSH.</li> </ul>	<ul style="list-style-type: none"> <li>• TEZ SURA'TLARDA O'SAYOTGAN AHOLI</li> <li>• MOLIYAVIY TAQCHILLIK</li> <li>• QO'SHNI DAVLATLARDA SIYOSIY BEQARORLIK</li> <li>• BUROKRATIK VA KOMPLEKS BOSHQARUV</li> </ul>

Yuqoridagi SWOT tahlildan ko'rinadiki, mamlakatimizda kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirish, ularga zarur infratuzilmani yaratish, rivojlantirish bo'yicha boshqa davlatlar tajribasini amaliyotga joriy etishda o'ziga xos imkoniyatlar va muammolar yuzaga kelish ehtimoli mavjud.

Boshqa davlatlar tajribasidan foydalanishda yetarlicha imkoniyatlar mavjud. Hududlarimizda turli malakaga ega ishchi kuchini topish mumkin. Har bir hududning o'ziga xos bo'lgan, bir-birini takrorlamaydigan ichki resurslari mavjud.

Bugungi kunda olib borilayotgan iqtisodiy siyosat zamirida jamiyat farovonligi yotibdi. Bunda ochiqlik siyosati, tadbirkorlikni rivojlantirish, shaffof sud huquq tizimi kabilarga asoslanilmoqda. Shu sababli jahon hamjamiyatiga integratsiya jarayoni ham jadallashib bormoqda. Bu kabi islohotlar mamlakatimizda biznes infratuzilmani rivojlantirishning xorij tajribasini qo'llashda qo'l keladi.

Geosiyosiy beqarorlik, korrupsiya, quyi boshqaruv tizimining samaradorligi past ekanligi kabi omillar ayrim xorijiy tajribalarni amaliyotga tadbiiq etishga xalaqit berishi mumkin.

### **3.2.-Hududlarda kichik biznes va tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash infratuzilmasini rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari.**

Mahalliy tajribaga ko'ra, hududlarni iqtisodiy rivojlantirishning eng yaxshi strategiyasi bu tadbirkorlikni rivojlantirishdir, chunki u ichki va tashqi muammolar hisoblanmish ishsizlik, kambag'allik va tashqi savdodagi negativ saldoni kamaytirishga va hududiy YIM hajmini oshirishda muhim rol o'ynaydi. Boshqacha qilib aytganda, ishlab chiqarishni harakatga keltiruvchi faoliyat yer, xom ashyo, ishchi kuchi va kapital kabi mahalliy resurslarni birlashtiradi. 2021-yilda yalpi ichki mahsulotning yarmidan ko'pi yoki iqtisodiyotimizning 54,9 foizi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'yektlari hissasiga to'g'ri keldi.

Mamlakatimizda tadbirkorlik subyektlari soni yildan-yilga ortib, kichik biznes rivojlanib borayotgani sari mahalliy tadbirkorlar duch kelayotgan muammolarni hal etishda yangi, samarali jarayonlar amalga oshirilmoqda. 2021-yilda "Mahallabay mehnat va tadbirkorlikni rivojlantirish agentligi" tashkil etildi, Iqtisodiy rivojlanish va qashshoqlikka kambag'allikka qarshi kurashish vazirligi huzurida hududiy boshqarma va markazlar tashkil etildi. Mazkur agentlik hududlarda tadbirkorlik rivojiga to'sqinlik qilayotgan muammolarni hal etish, ishbilarmonlik muhitini yaxshilash uchun qulay shart-sharoitlar yaratish,

tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash va rag‘batlantirish dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirish hamda buning uchun tadbirkorlik sub’yektlarining murojaatlarini qabul qilish asosida ish olib borish va chuqur tahlil qilish bilan shug‘ullanadi<sup>103</sup>.

Shuningdek, davlatimiz rahbari va tadbirkorlar o‘rtasida odat tusiga kirgan ochiq muloqot shakllandi. Mamlakatimizdagi barcha biznes egalari Prezidentning nutqi ahamiyatini, unda yoritilgan sohaning rivojlanishi bilan bog‘liq mavzularni va biznes egalari uchun yaratilgan zarur shart-sharoitlarni ishonch bilan qabul qiladilar. Jumladan, Prezidentimiz 2022-yilning 22 avgust kuni bo‘lib o‘tgan navbatdagi yig‘ilishda tadbirkorlikni rivojlantirish bo‘yicha 5 ta chora-tadbirlarni taklif etdilar. Bundan tashqari, hududlarda zarur infratuzilma, shart-sharoitlar va bozorlarni barpo etish uchun nima qilish kerakligi belgilab olindi. Bu maqsadlarga erishish uchun, birinchi navbatda, tuman va shaharlar sharoitini o‘rganib chiqib, tadbirkorlik faoliyatini yuritishning o‘ziga xos uslublarini yaratish taklif etildi. Bunday strategiya mintaqaning mavjud resurslari va ishlatilmagan salohiyatidan foydalanish uchun ko‘plab imkoniyatlarni taqdim etadi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib aytish mumkinki, O‘zbekiston hududlarini o‘rta muddatli istiqbolda (2022-2026-yillar) mutanosib rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlari quyidagilardan iborat:

- hududlardagi mavjud erkin iqtisodiy zonalar, texnik parklar, kichik sanoat zonolari, maxsus logistika, farmatsevtika va turizm zonolari faoliyati samaradorligini oshirish, shu bilan birga, ularning iqtisodiy salohiyatini kengaytirish;

- hududlarda raqamli texnologiyalar xizmatlarini (aloqa va axborotlashtirish, IT-dasturlash va elektron xizmatlar) ko‘rsatishga yo‘naltirilgan tadbirkorlik sub’yektlari uchun yangi xizmat ko‘rsatish ob’yektlarini rivojlantirish salohiyatini kengaytirish;

- hududiy sanoatda energiya va resurslarni tejoychi tizimlarni joriy etish, energiya va resurslardan foydalanishni qisqartirish;

---

<sup>103</sup> “IQTISODIY TARAQQIYOT VA KAMBAG‘ALLIKNI QISQARTIRISH VAZIRLIGI HUZURIDAGI MAHALLABAY ISHLASH VA TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISH AGENTLIGI FAOLIYATINI TASHKIL ETISH CHORA-TADBIRLARI TO‘G‘RISIDA”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 24.12.2021yildagi PQ-62-son

- hududlarda ichki turizmning uzluksiz o'sishi uchun hozirda foydalanilmayotgan resurslar asosida yangi turistik tovarlarni yaratish, koronavirus epidemiyasining turizm sohasiga ta'sirini kamaytirishga yordam berish;

- qishloq joylarining tabiiy resurslari va iqlimidan foydalanadigan yangi xizmatlar (ekoturizm, sog'lomlashtirish, sport va dam olish maskanlari) yaratish va rivojlantirish, hududlarda internet (elektron buyurtma) asosida aholiga xizmat ko'rsatishni yo'lga qo'yish.

Ishlab chiqarilayotgan va bozorga chiqarilayotgan mahsulotlar hajmini oshirish, qo'shimcha qiymatni oshirish, eksport geografiyasini kengaytirish, iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish uchun hududlarda xalqaro standartlar va sifat talablariga javob beradigan laboratoriyalar, ulgurji bozorlar, logistika markazlarini rivojlantirish zarur. Ushbu chora-tadbirlar yuqori iqtisodiy ko'rsatkichlarga erishish va qo'shilgan qiymat zanjirlariga qo'shilish imkoniyatini oshirish uchun qulay imkoniyat yaratadi.

Hududlarning investitsion jozibadorligini oshirish uchun ishlab chiqaruvchi kuchlarni rivojlantirish va joylashtirish sohalarida xorijiy mamlakatlar bilan mintaqaviy hamkorlikni kengaytirishga qaratilgan mintaqaviy tashabbuslarni yaratish ham ko'zda tutilgan.

Shuningdek, tadbirkorlik sub'yektlarining huquqlarini himoya qilishni ta'minlash, ularning faoliyati samaradorligi va miqyosini oshirish;

- Hududiy klasterlar sub'yektlarini tashkiliy va axborot bilan ta'minlovchi institutlar (lizing va sug'urta kompaniyalari, konsalting-auditorlik firmalari, infratuzilmani ta'minlovchi tashkilotlarni) rivojlantirish;

- Mahalliy institutlar va tadbirkorlik sub'yektlari o'rtasida hamkorlikni rivojlantirish (infratuzilmani ta'minlovchi tashkilotlar)


- Hududiy klasterlar sub'yektlarini tashkiliy va axborot materiali bilan ta'minlash ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyatga ega bo'lgan vazifalarni o'zaro manfaatli asosda amalga oshirish va mintaqaviy raqobatbardoshlikni oshirish maqsadida davlat-xususiy sheriklikni (davlat, yirik biznes, kichik biznes va uy xo'jaliklarining yaqin hamkorligini) rivojlantirish.

Yuqorida sanab o‘tilgan infratuzilmani rivojlantirish borasidagi islohotlar nafaqat tadbirkorlarni qiynab kelayotgan muammolarni bartaraf etishga, shu bilan birga, yangi biznes turlarini tashkil etishga ham keng imkoniyatlar yaratadi.

Olib borilgan tadqiqotlar natijalari shuni ko‘rsatadiki, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish uchun ichki resurslarga asoslangan infratuzilmani takomillashtirish uchun mamlakat ichidagi mintaqaviy farqlarni hisobga olish kerak. Hozirgi vaqtda hukumatimiz yordami bilan ushbu sohada muhim tarkibiy o‘zgarishlar amalga oshirilmoqda. Mamlakatimizning turli hududlarida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish uchun qulay shart-sharoit va infratuzilma, ular uchun mustahkam qonunchilik bazasini yaratish, barcha jabhalarda samaradorlik va oshkoralik investitsiya faoliyati jozibadorligini oshirish borasida ko‘plab islohotlar amalga oshirilmoqda.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning asosiy xususiyati shundaki, ular uchun investitsiyalarni jalb qilish jarayoniga, odatda geografik jihatlar ko‘proq ta’sir ko‘rsatadi. Ta’kidlash joizki, sanoat investitsiya muhitini ekspertizadan o‘tkazish kerak, chunki qulay investitsiya mezonlari ko‘plab korxonalar uchun o‘ziga xos xususiyatlarga ega. Ba’zi hollarda bir tarmoq uchun foydali bo‘lishi mumkin bo‘lgan elementlar boshqasi uchun zararli bo‘lishi mumkin yoki hatto bitta tarmoq uchun ko‘rsatkich yetarlicha aniq bo‘lsa ham, boshqa tarmoqning muvaffaqiyatli rivojlanishi ehtimoli juda past bo‘lishi mumkin. O‘zbekistonda xususiy tadbirkorlik va kichik biznes uchun sohaga va hududlarga oid investitsiya muhiti alohida ahamiyatga ega.





### 3.4.-rasm. Hududlarning asosiy kapitalga o‘zlashtirilgan investitsiyalar bo‘yicha ulushi (2022 yil holatiga ko‘ra foizda)

*Manba: O‘zbekiston Respublikasi Statistika qo‘mitasi.*

O‘zbekiston Respublikasi miqyosida asosiy kapitalga investitsiyalarning katta qismi Toshkent shahri va Toshkent viloyati hissasiga to‘g‘ri kelayotgan bo‘lsa, Sirdaryo va Jizzax viloyatlari bu borada eng kam ulushga ega hududlar ekanligini ko‘rish mumkin. Ushbu ma‘lumotlarning o‘zi ham infratuzilmaning investitsion faoliyatga qay darajada bog‘liqligini aniqlashga imkon beradi. Jumladan, tadbirkorlik infratuzilmasi eng rivojlangan hududlar sanaladigan Toshkent shahri va Toshkent viloyati investitsiyalarni eng ko‘p jalb etgan bo‘lsa, infratuzilmaviy kamchiliklarga ega hududlarda bu ko‘rsatkich keskin darajada past. Hududlarda investitsiyalar oqimini ko‘paytirishning, ishlab chiqarishni diversifikatsiyalashning, tadbirkorlik faoliyatining davomiyligi va raqobatbardoshlilikni ta‘minlashning va eng muhimi, aholi farovonligini oshirishning asosiy kaliti bu mamlakatimizning barcha hududlarida birdek infratuzilmani rivojlantirishdir. Shundagina tadbirkorlar o‘z faoliyatlarini infratuzilma yaxshi rivojlangan Toshkent shahri va uning atrofidagi hududlarga emas, balki ishsizlik muammosi mavjud, aholi daromadlari nisbatan past bo‘lgan chekka hududlarda tashkil etishlari mumkin bo‘ladi.

## 3.5.-jadval

Moliyalashtirish manbalari bo'yicha asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar tarkibi  
(chet el investitsiyalari va kreditlari, jami foizda)

Xududlar	2015	2016	2017	2018	2019	2020	2021
O'zbekiston Respublikasi	18,5	20,7	23,8	24,3	43,6	42,7	42,3
Qoraqalpog'iston Respublikasi	48,2	44,6	10,0	23,7	36,9	38,9	37,4
Andijon	4,4	4,9	7,2	14,8	39,6	36,3	45,6
Buxoro	35,9	52,4	71,0	44,0	53,9	48,2	58,5
Jizzax	2,9	7,3	10,8	8,7	48,8	61,9	44,5
Qashqadaryo	17,6	27,5	18,0	51,1	70,3	69,3	53,6
Navoiy	3,0	5,1	24,2	34,0	39,9	67,8	61,3
Namangan	21,9	22,6	31,6	33,5	45,8	37,2	29,8
Samarqand	4,0	2,2	2,8	4,7	27,8	27,0	34,9
Surxondaryo	10,4	9,8	11,5	21,4	66,3	60,1	45,2
Sirdaryo	10,8	7,7	4,6	9,6	44,8	48,7	59,8
Toshkent	15,3	13,7	12,0	9,6	26,0	26,7	34,3
Farg'ona	7,6	8,9	5,8	19,4	42,7	41,3	39,1
Xorazm	2,7	5,8	6,8	8,5	42,5	32,0	33,5
Toshkent.Sh	13,0	16,4	18,1	15,1	36,7	29,9	37,3

*Manba: O'zbekiston Respublikasi Statistika qo'mitasi*

Mamlakatimizda so'nggi yillarda hududlarga yo'naltirilgan xorijiy investitsiyalarling jami investitsiya hajmidagi ulushi keskin ortib bormoqda. Ayniqsa, tabiiy resurslarga boy, ammo potensialidan to'liq foydalanilmagan viloyatlar Qashqadaryo, Surxondaryo, Navoiy va Qoraqalpog'iston Respublikasida bu ko'rsatkich sezilarli darajada o'sgan. Bu esa olib borilayotgan islohotlar o'z samarasini berayotganidan va kelajakda ushbu hududlarda ham infratuzilma sifatining yaxshilanishidan dalolat beradi.

### Hududlarning tadbirkorlikni rivojlantirish bo'yicha reytingi va asosiy ko'rsatkichlari

Reyting	Hududlar	Ball	Davlat xizmatlarini ko'rsatishda qonun hujjatlariga rioya qilinishi	Erkin iqtisodiy va kichik sanoat zonalari	Bank xizmatlari ko'rsatilishi sifati	Muhadislikkommuni katsiya tarmoqlariga ulanish va ta'minlanganligi
1	Toshkent.Sh	6.6	4.7	5.7	6.0	5.4
2	Buxoro	6.4	8.9	3.9	6.7	6.4
3	Navoiy	6.1	1.0	9.9	5.3	7.4
4	Farg'ona	6.0	8.6	2.4	3.9	4.8
5	Toshkent	6.0	6.1	4.0	3.6	3.3
6	Qashqadaryo	5.9	10.0	1.0	4.0	2.1
7	Namangan	5.8	6.1	4.7	3.4	4.8
8	Xorazm	5.7	8.1	2.4	4.1	4.4
9	Surxondaryo	5.7	9.0	1.5	3.7	2.3
10	Sirdaryo	5.6	9.2	5.5	10.0	10.0
11	Jizzax	5.5	9.6	2.2	5.3	6.2
12	Andijon	5.4	6.6	3.9	5.7	5.7
13	Qoraqalpog'iston Respublikasi	5.2	7.7	3.4	4.0	6.1
14	Samarqand	5.1	8.7	3.1	1.0	1.0


**Manba:** «BUSINESS INDICATOR» avtomatlashtirilgan onlayn axborot tizimi <https://b-indicator.uz/>

2022-yil birinchi yarim yilligi bo'yicha hududlarda tadbirkorlikning rivojlanganlik darajasi ko'rsatkichlarini hisoblash va baholash bo'yicha o'tkazilgan so'rovnoma ko'ra Toshkent shahri tadbirkorlik eng yuqori rivojlangan hudud deb baholangan bo'lsa, Samarqand viloyati eng past ball olgan hudud bo'ldi. Ushbu reytingni ishlab chiqishda O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va sanoat vazirligi hamda Adliya vazirligi tomonidan "Ijtimoiy fikr" Respublika jamoatchilik fikrini o'rganish markazi bilan birgalikda tasdiqlangan shakldagi so'rovnoma asosida tadbirkorlik sub'yektlari o'rtasida o'tkaziladigan anonim yoki ochiq so'rovlar natijalari bo'yicha to'plangan ma'lumotlar, rasmiy statistik va tahliliy manbalardan foydalanilgan<sup>104</sup>. Ayniqsa, Qashqadaryo va Samarqand viloyatlarida tadbirkorlik sub'yektlarining muhandislik kommunikatsiya tarmoqlariga ulanish va ta'minlanganligi darajasi juda past ekanligini kuzatish mumkin, bu esa hududlarda

<sup>104</sup> «RESPUBLIKA HUDUDLARIDA TADBIRKORLIKNI RIVOJLANGANLIK DARAJASINI BAHOLASH TARTIBI TO'G'IRISIDA» NIZOM [HTTPS://B-INDICATOR.UZ/METHODOLOGY](https://b-indicator.uz/methodology)

muhandislik kommunikatsiya xizmatlaridan foydalanishda muammolar mavjudligini anglatadi.

Hududlarda faoliyat yuritayotgan KBT sonini iqtisodiyotning asosiy tarmoqlari bo'yicha tahlil qilinadigan bo'lsa, Toshkent shahri, Andijon, Farg'ona, Samarqand va Namangan viloyatlari sanoat tarmog'ida mavjud korxonalar soni bo'yicha yetakchilik qilishmoqda. Qoraqalpog'iston Respublikasi, Sirdaryo, Jizzax va Xorazm viloyatlari esa sanoat tarmog'ida eng kam korxonalariga ega hududlar ekanligini ko'rish mumkin




### 3.5.-rasm. Sanoat tarmog'ida mavjud kichik biznes va tadbirkolik korxonalar soni (dona)

*Manba: O'zbekiston Respublikasi Statistika qo'mitasi.*

Bu esa aynan shu hududlarda sanoat korxonalarini uchun yaxshi infratuzilma, va resurslar mavjudligini anglatadi.

Qishloq va o'rmon xo'jaligida faoliyat yuritayotgan kichik biznes va tadbirkorlik korxonalar soni Toshkent viloyati, Qashqadaryo, Jizzax va Surxondaryo viloyatlarida ko'pchilikni tashkil etadi. Toshkent shahri, Sirdaryo, Navoiy va Farg'ona viloyatlarida eng kichik ko'rsatkichlar qayd etilgan. Bu o'z-o'zidan yuqori ko'rsatkichga ega hududlarda qishloq xo'jaligi sohasida faoliyat yuritayotgan kichik biznes va tadbirkorlik sub'yektlari uchun zarur resurslar, jumladan er, suv va boshqa omillarning mavjudligini, ayniqsa infratuzilmaning aynan shu faoliyat yo'nalishida samarali xizmat ko'rsatishini bildiradi



### 3.6.-rasm. Qishloq va o‘rmon xo‘jaligida mavjud kichik biznes va tadbirkorlik korxonalari soni (dona)

*Manba: O‘zbekiston Respublikasi Statistika qo‘mitasi*

Yuqorida tahlil qilingan ma’lumotlar shuni ko‘rsatadiki, mamlakatimizdagi har bir hududning o‘ziga xos resurslari va potentsiali mavjud. Shu bilan birga, infratuzilmalarda ham sezilarli kamchiliklarni uchratish mumkin. Bu ma’lumotlar O‘zbekistonda kichik biznes va tadbirkorlik infratuzilmasini yaxshilash va xususiy sektorning YIMdagi ulushining o‘shishini rag‘batlantirish bo‘yicha to‘liq siyosat va amaliy islohotlar zarurligini ko‘rsatadi. Quyida amalga oshirilishi kerak bo‘lgan mavjud yettita islohot va tashabbuslarni keltirib o‘tamiz:

**Sof raqobatni rivojlantirishni davom ettirish.** Davlat korxonalarini xususiylashtirish va qayta tashkil etishni rag‘batlantirish qanchalik muhim bo‘lsa, xususiy tadbirkorlik sub’yektlarining raqobatdoshligini rag‘batlantiradigan muhitni yaratish muhim ahamiyatga ega. Shu sababli, bozorga, xususan, davlat korporatsiyalari xususiy tadbirkorlik sub’yektlari bilan raqobatlashadigan sohalarda ta’sir ko‘rsatadigan noto‘g‘ri qoidalar va aralashuvlarni kamaytirishni davom ettirish zarur.

**Soliq tizimining biznesni kengaytirishga yordam berishini ta’minlash.** Soliq stavkalari va tartibga solish yukini muvozanatlash orqali soliq tizimi kompaniyaning o‘shishiga yordam berishi kerak. Iqtisodiy o‘shish barqarorligini

ta'minlash uchun soliq tizimi korxonalar hajmining o'sishi bilan stavkalarni bosqichma-bosqich oshirishi va ish bilan ta'minlashi, kengayib borayotgan yirik korxonalariga sarmoya kiritish uchun marjinal stavkalarni kamaytirishi kerak.

**Norasmiy sektorda qo'llaniladigan usullarni qisqartirish.** Hukumat chora-tadbirlari mehnat bozorining moslashuvchanligini oshirish, ijtimoiy himoyani qayta qurish, soliq tizimini tartibga solish, tartibga solish muhitini yaxshilash, norasmiy sektorni qisqartirish va resurslarni eng samarali biznesga yo'naltirish uchun adliya tizimini mustahkamlashi kerak. Bundan tashqari, vaqt o'tishi bilan norasmiylikning pasayishiga olib keladigan sifatli rasmiy pozitsiyalarni yaratish uchun qulay sharoitlar mavjud bo'lishi kerak.

**Kichik, o'rta va mikrobiznesning kapitalga kirishini kengaytirish.** Bunga bank sohasida raqobatni rag'batlantirish, yo'naltirilgan davlat kreditlarini kamaytirish, tijorat banklarida davlat mulkini kamaytirish, bank boshqaruvini kuchaytirish va bank sohasida inson kapitalini oshirish orqali erishish mumkin. Kreditlarning tez kengayishini himoya qilish va moliyaviy resurslar eng samarali korxonalariga yo'naltirilishini kafolatlash uchun institutsional infratuzilmani rivojlantirish zarur bo'ladi.

**Energetika sohasini yaxshilash.** Bu eskirgan infratuzilmani modernizatsiya qilish, xizmatlar sifati va ishonchliligini oshirish uchun zarur. O'zbekiston hukumati samaradorlikni oshiruvchi va eskirgan infratuzilmani modernizatsiya qiluvchi bozor jarayonlariga o'tish uchun tegishli sektor o'zgarishlarini amalga oshirmoqda. Narx va raqobatni to'g'ri tartibga solishga e'tibor qaratish ham juda muhimdir.

**Tadbirkorlikni rag'batlantirish bo'yicha faol siyosatni amalga oshirish.** Yuqorida qayd etilgan takliflarni amalga oshirishda tadbirkorlik rivojlanishiga to'sqinlik qilayotgan mavjud kamchiliklarni bartaraf etishga qaratilgan faol chora-tadbirlarni amalga oshirish muhim ahamiyatga ega. Ikkita asosiy g'oya biznesni qo'llab-quvvatlash siyosatini boshqarishi kerak: kichik biznes va tadbirkorlikning omon qolishini emas, birinchi navbatda biznes samaradorligi va o'sish potensialini birinchi o'ringa qo'yish, salohiyatini mustahkamlash uchun moliyaviy va nomoliyaviy vositalarni birlashtirish zarur. Bu korxonalariga ishlab chiqarishni

yaxshiroq boshqarish, bozor imkoniyatlarini aniqlash, yangi loyihalarni ishga tushirish xavfini o'z zimmasiga olish, yangi texnologiyalarni o'zlashtirish va biznesni kengaytirish imkonini beradi.

**Xususiy sektorning kengayishini qo'llab-quvvatlash uchun kadrlar bo'shlig'ini bartaraf etish.** COVID-19 inqirozi oldidan ko'plab xorijiy tashkilotlar O'zbekistonda iqtisodiy o'sish yo'lidagi muhim to'siqni zarur ko'nikma va bilimga ega kadrlarning etishmasligi sifatida qarashgan edi. Epidemiya bolalarning ikki yillik ta'limiga salbiy ta'sir qilgani taxmin qilinmoqda, bu esa kelajakdagi ishchi kuchining potensial mahsuldorligiga ta'sir qiladi. Shu bois ta'lim va malaka oshirish sohasida chora-tadbirlarni amalga oshirish.

O'zbekiston uchun markazlashgan iqtisodiyot ta'siridan ajralib turgan holda xususiy sektorni rivojlantirish qiyin muammo hisoblanadi. Kichik biznes va tadbirkorlikni mamlakat ishlab chiqarishning o'sishi va rivojlanishining asosiga aylantirish uchun hududlarda tadbirkorlik infratuzilmasini salohiyatini oshirish yagona samarali yo'l hisoblanadi. Buning uchun barcha partiyalar va jamoat institutlarini muvofiqlashtirish, shuningdek, muvofiqlashtirish va islohotlarni amalga oshirishni monitoring qilish uchun keng kelishuv va kuchli tuzilmani ishlab chiqish zarur bo'ladi.

### **3.3. O'zbekiston Respublikasida kichik biznes va tadbirkorlik uchun infratuzilmani takomillashtirish istiqbollari.**

Mamlakatimizda so'nggi yillarda nafaqat kichik biznes va kichik tadbirkorlik uchun, balki umumjamiyat uchun zarur bo'lgan infratuzilmani rivojlantirish borasida juda ko'plab islohotlar amalga oshirilmoqda. O'zbekiston transport infratuzilmasi keng temir yo'l tarmog'ini, shuningdek, avtomobil yo'llari, aeroportlar va suv yo'llarini o'z ichiga oladi.

Jahon banki ma'lumotlariga ko'ra, O'zbekistonning 2021-yildagi infratuzilma reytingi quyidagicha edi:

Umumiy infratuzilma: 6 balldan 3,3.

Yo'llarning sifati: 7 balldan 3,8

Temir yo'l infratuzilmasi sifati: 7 balldan 2,9

Port infratuzilmasi sifati: 7 balldan 2,1

Havo transporti infratuzilmasi sifati: 7 balldan 3,5

Shuni ta'kidlash kerakki, infratuzilma sifati ma'lum darajada subyektivdir va reytinglar manbaga qarab farq qilishi mumkin.

O'zbekiston keyingi yillarda o'z infratuzilmasiga katta sarmoya kiritmoqda, hukumat mamlakatning transport tarmoqlari, energetika tizimlari va ijtimoiy infratuzilmasini yangilash va kengaytirish bo'yicha ko'plab loyihalarni amalga oshirmoqda. Bu sa'y-harakatlar kelajakda O'zbekistonning infratuzilma reytingiga ijobiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

So'nggi yillarda olib borilgan islohotlar natijasida mamlakat infratuzilmasini rivojlantirishda sezilarli yutuqlarga erishdi. Toshkent, Buxoro va Samarqand kabi yirik shaharlarda yaxshi asfaltlangan yo'llar, zamonaviy jamoat transporti va ishonchli telekommunikatsiya tizimlaridan iborat shahar infratuzilmasi modernizatsiya qilindi. O'zbekiston hukumati mamlakat infratuzilmasini yuksaltirish, jumladan, avtomobil yo'llarini rivojlantirish, yangi aeroportlar qurish, temir yo'llarni modernizatsiya qilishga qaratilgan turli siyosat va tashabbuslarni amalga oshirdi. Biroq, ayrim qishloq hududlari va mamlakatning kam rivojlangan hududlari sifatli infratuzilmaga kirishda hali ham qiyinchiliklarga duch kelishini kuzatish mumkin.


Tadqiqotlarga ko'ra, kichik va o'rta korxonalarining muhim ahamiyatiga qaramay, ular bir qator qiyinchiliklarni boshdan kechirishda davom etmoqda. Jahon banki tomonidan olib borilgan so'rovnomalarda ishtirok etgan tadbirkorlar tomonidan quyidagi muhim qiyinchiliklar qayd etilgan:

- tijorat qonunchiligidan foydalanishni tartibga soluvchi me'yoriy-huquqiy bazalar, litsenziyalash va ro'yxatga olish talablari;
- moliyaviy resurslardan foydalanish imkoniyati - kichik va o'rta biznes vakillari axborot assimetriyasi, garov ta'minotidan ta'minot sifatida foydalanish imkoniyati va xalqaro buxgalteriya standartlariga muvofiqligi tufayli yuqori kredit xarajatlariga duch kelmoqda.

KBTga yordam berish faoliyati - ular o'zlarining asosiy raqobatbardosh ustunliklarini aniqlash uchun kurashadilar, bu esa ularga kompaniyani



rivojlantirish va bozorga kirish kabi xizmatlarni kengaytirish va taqdim etishda davom etish imkonini beradi<sup>105</sup>.




### 3.7-rasm. O'zbekistonlik tadbirkorlar duch kelgan eng asosiy muammolar (so'rovnomada ishtirok etgan tadbirkorlar ulushida %)

*Manba:* Jahon banki "Biznes muhiti va tadbirkorlik faoliyatini tadqiq qilish" loyihasi BEEPS VI.

O'zbekistondagi kichik va o'rta biznes vakillarining fikricha, moliyaviy resurslardan foydalanish imkoniyatiga ega bo'lish katta muammolardan biridir. Odatda KBT yirik kompaniyalarga nisbatan kattaroq xavf-xatar, garov ta'minotining etishmasligi, shuningdek, moliyaviy boshqaruv va biznesni rejalashtirishdagi kamchiliklar tufayli bank taklifini taqdim eta olmasligi sababli tashqi moliyalashtirishni olishda ko'proq qiyinchiliklarga duch kelishadi. Mamlakatda ko'plab korxonalar kreditga muhtoj, ammo mavjud qiyinchiliklar tufayli buni amalga oshirishni xohlamaydi. Biroq, moliyalashtirishga ega bo'lish biznesga mahsulot ishlab chiqarishni kengaytirishga yoki aylanma mablag'larini oshirishga yordam beradi, ayniqsa O'zbekiston kabi moliyaviy infratuzilma endigina shakllanayotgan mamlakatlarda<sup>106</sup>.

<sup>105</sup> N. Yoshino va F. Tagizade-Hesariy (2016), "Osiyoda kichik va o'rta korxonalar oldida turgan asosiy muammolar va ularni yumshatish yechimlari", Osiyo taraqqiyot banki instituti, Tokio.


<sup>106</sup> <https://2021.lit-ebrd.com/wp-content/uploads/2021/04/law-in-transition-2021-english-SMALL-AND-MEDIUM-SIZED-ENTERPRISE-GROWTH-CONSTRAINTS.pdf>



*Manba: Jahon banki "Biznes muhiti va tadbirkorlik faoliyatini tadqiq qilish" loyihasi BEEPS.*

### **3.8.-rasm. O`zbekistonda ishlab chiqaruvchilarning elektr energiyasiga ulanish va elektr energiyadagi uzilishlar muddatlari**

Shu sababli, kreditga ehtiyoji mavjud korxonalar moliyalashtirish imkoniyatiga ega bo`lishi juda muhimdir. O`zbekistonda kreditga olish maqsadida murojaat qilgan tadbirkorlik sub'yektlarining katta qismi kredit bilan bog`liq muammolarga duch kelgan, ya`ni ular murojaat qilganda kredit olishdan bosh tortgan yoki o`ta yuqori foiz stavkalari, og`ir garov talablari yoki kredit olish qiyinligi sababli umuman murojaat qilishdan to`xtalish jarayonlari ham kuzatilgan. 3-chizmaga ko`ra, KBT odatda yirik kompaniyalarga qaraganda sezilarli darajada ko`proq kredit cheklovlariga duch keladi. O`zbekistonda kreditga ehtiyoji borligini ma`lum qilayotgan kichik va o`rta korxonalarining qariyb yarmi o`zlarini kredit olishga qodir emasdek his qilmoqdalar, bu esa Markaziy Osiyo mintaqasidagi boshqa davlatlardagi kabi o`xshashdir.



*Manba: Jahon banki "Biznes muhiti va tadbirkorlik faoliyatini tadqiq qilish" loyihasi BEEPS VI.*

### **3.9.-rasm KBT va yirik korxonalar orasida mavjud kredit olish cheklangan sub'yektlar ulushi (% da)**

Kichik va o'rtta korxonalarining qonuniy va me'yoriy talablarni bajarish qobiliyatining cheklanganligi muhim sohalardan biridir. Litsenziyalar, soliq qonunchiligi va tegishli masalalarda KBT uchun samarali davlat xizmatiga ega bo'lish juda muhim, chunki ko'plab kichik korxonalar o'z egasi tomonidan boshqariladi yoki boshqaruv xodimlari juda kam. Shu nuqtai nazardan, foydalanish qulayligi, ma'muriy to'siqlarning kamayishi va turli xil biznes kirish nuqtalari hal qiluvchi omillardir. Tadbirkorlik sub'yektlarining iqtisodiy tanglik darajasini kamaytirishning bir varianti elektron davlat xizmatlarini taklif qilish yoki bir vaqtning o'zida ko'plab davlat xizmatlaridan foydalanish mumkin bo'lgan bir darcha orqali xizmatlarni taklif qilishdir.

O'zbekiston hukumati bu yo'nalishda "Yagona darcha" tamoyilini yo'lga qo'yish, tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan litsenziya va ruxsatnomalar sonini qisqartirish orqali muhim qadamlar qo'ydi. Darhaqiqat, o'zbekistonlik kichik va o'rtta biznes egalari yirik korxonalaridagi yoki kengroq ma'noda Markaziy Osiyo va ETTB mamlakatlaridagi raqiblariga qaraganda hukumat qoidalari bilan shug'ullanishga kamroq vaqt sarflaydilar<sup>107</sup>.

<sup>107</sup> <https://2021.lit-ebrd.com/wp-content/uploads/2021/04/law-in-transition-2021-english-SMALL-AND-MEDIUM-SIZED-ENTERPRISE-GROWTH-CONSTRAINTS.pdf>

## **Erkin iqtisodiy zonalar**

Shu bilan birga, KBT qoʻllab quvvatlash va ularning faoliyati samaradorligini oshirish maqsadida har bir hududda erkin iqtisodiy zonalarini tashkil etish ishlari olib borilmoqda. Bu esa hududlarda faoliyat olib borayotgan KBT egalariga yanada samaraliroq infratuzilmadan foydalanish imkonini beradi, chunki mavjud erkin iqtisodiy zonalarda ishlab chiqaruvchilar uchun ham yumshoq, ham qattiq infratuzilmadan foydalanish imkoniyatlari yaratilgan.

Oʻzbekistonda 2022-yil 1-yanvar holatiga koʻra 22 ta erkin iqtisodiy zona (EIZ) mavjud boʻlib, ular eksportga yoʻnaltirilgan tadbirkorlik subektlariga muhim afzalliklar va infratuzilmani taqdim etadi. 2008-2021-yillarda EIZlarda 539 ta investitsiya loyihasi amalga oshirilib, buning natijasida 42,8 mingta ish oʻrni yaratildi, 973,5 million dollar xorijiy kapital jalb etildi.

Hukumat qarori bilan 2017-2021-yillarda “Buxoro-agro”, “Gʻijduvon” va “Urgut” EIZ zonalarini qoʻshildi. Qoraqalpogʻiston Respublikasining “Qoraqalpaq-agro” EIZ va Fargʻona vodiysidagi “Andijon-tekstil” va “Namangan-tekstil” EIZlar. Ushbu loyiha doirasida toʻqimachilik EIZlar ham kengaytiriladi. Hukumat tomonidan EIZlardan tashqari 2008-2021-yillarda umumiy qiymati 21,5 trillion soʻm (2 milliard dollarga yaqin) boʻlgan 3924 ta investitsiya loyihasidan iborat 417 ta MIZ tashkil etildi.

Korxonalar Oʻzbekistonda raqobatbardosh, hamyonbop kommunal toʻlovlar, korporativ daromad soligʻi va qoʻshilgan qiymat soligʻi (QQS) stavkalaridan foydalanishlari mumkin. Mamlakatning jismoniy infratuzilmasida hozirda katta modernizatsiya va kengaytirish loyihasini amalga oshirilmoqda.

Bundan tashqari, Oʻzbekistonda nisbatan past mehnat xarajatlari va daromadlari boʻlgan oliy maʼlumotli ishchi kuchi mavjud.

## **IT Parklar**

KBT uchun IT Park qoʻllab-quvvatlovchi muhit va imtiyozlarni taklif etadi. Tadbirkorlarga bozorga kirishda birinchi navbatda yordam berish maqsadida 2019 yilda Toshkentda IT-park tashkil etilgan. IT-park turli investitsiya obʼektlari va inshootlarini ijaraga berish imkoniyatini taqdim etadi. Andijon, Fargʻona, Navoiy,

Buxoro, Samarqand, Jizzax va Sirdaryo viloyatlarida hozirda oltita filial, Nukus, Buxoro, Namangan, Samarqand, Guliston va Urganch viloyatlarida esa tez orada yana oltita filial ochiladi. 2022 yil 1 yanvar holatiga ko'ra, 523 ta korxonalar, shu jumladan 18 xalqaro investor IT-park tarkibiga kirdi. Ijarachilar uchun mavjud bo'lgan asosiy imtiyozlar (2028 yilgacha) quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- 0% yagona ijtimoiy to'lovlar,
- 7,5% shaxsiy daromad solig'i,
- 0% korporativ daromad solig'i
- Import bojxona imtiyozlari

O'zbekiston iqtisodiyoti hanuzgacha eng cheklangan iqtisodiyot hisoblanadi va Heritage Foundation 2018 yilgi iqtisodiy erkinlik indeksida 178 ta davlat orasida 152-o'rinni egalladi. Bu davom etayotgan yaxshilanishlarga qaramay Osiyo va Tinch okeani mintaqasidagi 43 ta davlat ichida O'zbekiston 37-o'rinni egallab, uning umumiy ko'rsatkichi mintaqalar va butun dunyo bo'yicha o'rtacha ko'rsatkichdan past.

Investitsiyalar erkinligi bo'yicha eng past reytinglardan biri asosiy qonunlarning eskirgan qismlari (Konstitutsiya, Fuqarolik kodeksi, yer kodeksi va boshqalar) bilan kafolatlangan mulk huquqlarining yetarli darajada emasligi va tadbirkorlik faoliyatini tartibga soluvchi muhitning yetarli emasligi bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Investitsion muhitga ta'sir etuvchi muhim omillar qonun ustuvorligi va hukumat samaradorligi ko'rsatkichlarining nihoyatda pastligi 43 va korrupsiyaning yuqori darajasi 42 (154-o'rinda) hisoblanadi. Qonun ustuvorligi keyinroq muhokama qilinadigan ko'plab aniq masalalarni qo'llab-quvvatlaydi va moliyaviy inklyuzivlikni oshirish uchun zaruriy shartdir. Ishbilarmonlik muhiti jamoatchilikning xolis huquq tizimiga ishonchiga bog'liq<sup>108</sup>.

### **Elektr-energiya**

O'zbekistonning elektr tarmog'i asosiy beshta mintaqaviy tarmoqlarga bo'lingan:


- Shimoliy-G'arbiy (Qoraqalpog'iston Respublikasi va Xorazm viloyati);
- Janubi-g'arbiy (Qashqadaryo, Samarqand, Buxoro va Navoiy viloyatlari);

<sup>108</sup> <http://review.uz/uz/post/v-uzbekistane-osenili-uroven-razvitiya-predprinimatelstva-v-regionax>

- Sharqiy (Andijon, Namangan va Farg‘ona viloyatlari);
- Markaziy (Jizzax, Sirdaryo, Toshkent viloyatlari va Toshkent shahri).

2019-yilning qish mavsumida eng yuqori soatlardagi maksimal yuklanish 10,4 ming MVtni tashkil etgan bo‘lsa, minimal va maksimal yuklanish o‘rtasidagi farq 2,3 ming MVtni tashkil qilgan. 2019-yilning yozida 9,4 ming MVt yuqori iste‘mol kuzatilgan bo‘lib, 2,6 ming MVt minimal va eng katta talabni ajratib turadi.

Prognozlarga ko‘ra, 2030-yilgacha elektr energiyasining yillik o‘shish sur‘atlari taxminan 6% dan 7% gacha bo‘ladi. 2030-yilda prognoz qilingan milliy iste‘mol 120,8 mlrd.kVt/soatni tashkil etadi, bu iste‘mol talabi 2018-yilga nisbatan 1,9 baravarga oshadi. Jumladan, aholining elektr energiyasiga bo‘lgan talabi 21,9 mlrd kvv/soatni (2018-yilga nisbatan 1,8 marta), iqtisodiyot tarmoqlarida faoliyat yurituvchi korxonalarining talabi esa 85,0 mlrd. kVt/soat (2018 yilga nisbatan 2,2 barobar).




### 3.10-rasm. Aholi jon boshiga energiya iste‘moli, yiliga kvv

**Manba:** 2020-2030 yillarda O‘zbekiston Respublikasini elektr energiyasi bilan ta‘minlash konsepsiyasi.

Elektr energiyasi iste‘molini oshirishning asosiy omillari quyidagilardir: iqtisodiy o‘shish (2030-yilga borib YIM 1,9 barobarga o‘shishi prognoz qilinmoqda);

energiya sarflaydigan uskunalardan foydalanishning ko‘payishiga olib keladigan hayot sifatini yaxshilash; BMT ma’lumotlariga ko‘ra, aholi soni 37,4 kishiga ko‘paydi; urbanizatsiyaning kuchayishi va qoplanmagan talabning taxminiy 10 foizini qondirish.



### 3.11 - rasm 2019-2030 yillarda maksimal yuklanishga prognoz ishlab chiqarish quvvati (ming MVT)

*Manba: 2020-2030 yillarda O‘zbekiston Respublikasini elektr energiyasi bilan ta’minlash konsepsiyasi*

2030-yilga borib energiya importi va eksporti tenglashib, har yili 6 milliard kvt/soatga etishi kutilmoqda, bu esa mamlakatning transport salohiyatidan foydalanishni rag‘batlantiradi<sup>109</sup>.

Elektr ta’minotidagi uzilishlar tijorat salohiyatiga, shuningdek, maishiy turmush sharoitlariga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Ta’sirlangan korxonalar ishlab chiqarilgan mahsulot yoki ko‘rsatilgan xizmatlar bo‘lishi mumkin bo‘lgan ishlab chiqarishda yo‘qotishlarga duch kelishadi. Elektr ta’minotidagi uzilishlar, tadqiqot natijalariga ko‘ra, korxonalarining unumdorligi va ishlab chiqarish samaradorligiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi<sup>110</sup>. Abeberese va boshqalarning hisob-kitoblariga ko‘ra agar bir oyda elektr energiyasi bo‘lmagan kunlar soni boy davlatlar darajasiga (nol) tushirilsa, hosildorlik taxminan 10% ga oshadi<sup>111</sup>. O‘zbekistondagi bir qancha ishbiarmonlarning fikriga ko‘ra, energiya ta’minoti barqaror bo‘lganida

<sup>109</sup> 2020-2030 yillarda o‘zbekiston respublikasini elektr energiyasi bilan ta’minlash konsepsiyasi <https://minenergy.uz/uz/lists/view/77>

<sup>110</sup> A. K. Abotsi, “Power Outages and Production Efficiency of Firms in Africa,” International Journal of Energy Economics and Policy, vol. 6, no. 1, 2016.

<sup>111</sup> A. B. Abeberese, C. G. Ackah, and P. O. Asuming, “Productivity Losses and Firm Responses to Electricity Shortages: Evidence from Ghana,” The World Bank Economic Review, vol. 35, no. 1, pp. 1–18, Feb. 2021, doi: 10.1093/wber/lhz027.

kompaniya daromadi ikki baravar oshishi mumkin edi<sup>112</sup>. Korxonalar nafaqat biznes imkoniyatlarini yo‘qotibgina qolmay, balki elektr ta‘minotidagi uzilishlar vaqtida elektr energiyasini talab qiladigan mahsulotlarni saqlash uchun ham ko‘proq pul to‘laydilar.

Mamlakatimizda 2021-yilda jami 222,43 soat elektr ta‘minotidagi yillik uzilishlar hisobiga to‘g‘ri kelgan. Agar korxonalar yiliga 222,43 soatlik elektr uzilishlarini boshdan kechirmasalar, korxonalar YIMda qo‘shimcha 0,76 milliard dollar ishlab chiqargan bo‘lar edi, bu esa 2021-yil uchun YIMni 49,52 milliard dollarga yoki 1,55 foizga oshirgan bo‘lar edi. Agar bu natijalar korxonalarining barchasiga tatbiq etilsa, 222,43 soatlik elektr energiyasining yillik uzilishlari 2018-yilda iqtisodiyotga 7,03 milliard dollarga tushgan bo‘lar edi. 2021-yildagi haqiqiy YIM (48,76 milliard dollar) dan 14,42 foizga (55,79 milliard dollar) oshirish imkoniyatiga erishilardi.

### **Transport**

O‘zbekiston 2020-yilda xalqaro miqyosda 47,1 million tonna tovar tashidi, shundan 13,3 million tonnasi eksportga, 24,7 million tonnasi importga to‘g‘ri keldi. Eksport va import ko‘rsatkichlari mos ravishda 17,2 va 3,1 foizga o‘sdı. 9,1 million tonna yoki o‘shı 15,3 foizga tranzit tashildi. Yuklarnı tashishning ikkita asosiy shakli temir yo‘l va avtomobildir. Avtomobil transporti o‘zining moslashuvchanligi tufayli qisqa masofali transportdan foyda ko‘rsa-da, temir yo‘l tranziti uzoq masofalarda arzonroq. 2018-yilda temir yo‘l transporti yuk tashish hajmining 66 foizini eksportga, 85 foizini importga, 92 foizini esa tranzitga yetkazib berdi. Temir yo‘l hali ham tijorat mahsulotlarini tashish uchun zarur bo‘lsa, avtomobil transporti ulushi 2015 va 2018 yillar orasida, ayniqsa yuk eksporti uchun sezilarli darajada oshdi<sup>113</sup>.

Ushbu savdo harakati uchun transport koridorlarining barqarorligi zarur. Natijada O‘zbekiston transport siyosatini qayta ko‘rib chiqdi va bir qator muhim yaxshilanishlarni amalga oshirdi. Birinchidan, Prezidentning 2019-yil 1-fevraldagi

---

<sup>112</sup> Kun.uz, “«Elektr doimiy bo‘lsa, daromadimiz ikki barobar ko‘p bo‘lardi» - asakalik tikuvchilar muammosi,” Mar. 29, 2021.

<sup>113</sup> CAREC (2021). *Railway Sector Assessment for Uzbekistan*. Retrieved from [https://www.carecprogram.org/uploads/2020-CAREC-Railway-Assessment\\_UZB\\_4th\\_2021-5-20\\_WEB.pdf](https://www.carecprogram.org/uploads/2020-CAREC-Railway-Assessment_UZB_4th_2021-5-20_WEB.pdf). Accessed on 12.07.2021.



Farmoni bilan mamlakat Transport vazirligi tashkil etildi. Vazirlik avtomobil, temir yo‘l, aviatsiya, daryo, metro va boshqa transport tizimlarini rivojlantirish bo‘yicha yagona davlat siyosatini yaratish va amalga oshirish uchun mas’ul davlat organi hisoblanadi. Ikkinchidan, “2018-2022-yillarda mahsulot tashish bo‘yicha transport vositalarini rivojlantirish va xalqaro savdo kanallarini diversifikatsiya qilish kompleks dasturi”ni amalga oshirish doirasida O‘zbekistonda yangi transport va tranzit yo‘laklari hamda logistika markazlari tarmog‘i yaratilmoqda. Nihoyat, xalq tomonidan yo‘lovchi va yuk tashish hajmini kengaytirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratishni nazarda tutuvchi “O‘zbekiston Respublikasi transport tizimini 2035-yilgacha rivojlantirish strategiyasi” loyihasi ishlab chiqildi. Ushbu strategiya transport va davlat tashqi siyosatining muhim yo‘nalishlarini belgilovchi hal qiluvchi hujjat bo‘lib qolmoqda. Bu O‘zbekiston o‘z transport tizimini takomillashtirish, turli davlatlar va xalqaro moliya tashkilotlari boshchiligidagi deyarli barcha mintaqaviy loyihalarda ishtirok etishga intilayotganini ko‘rsatadi<sup>114</sup>.

Shuning uchun O‘zbekiston raqobatbardoshligini oshirish uchun asosiy e’tiborni transport bilan bog‘liq muammolarga qaratishi kerak. Savdo xarajatlarini kamaytirish uchun mamlakat birinchi navbatda temir yo‘l va yo‘l infratuzilmasidagi xarajatlarini oshirishi kerak. Bu sarmoyalardan mamlakat ishlab chiqaruvchilari katta foyda olishlari mumkin. Masalan, infratuzilmaning mavjudligi mintaqaviy iqtisodiy ko‘rsatkichlarga sezilarli ta’sir ko‘rsatishi taxmin qilinmoqda. Xususan, O‘zbekiston hududlarini bog‘lovchi Toshguzar-Boysun-Qumqo‘rg‘on temir yo‘l liniyasi hududlarda mintaqaviy yalpi ichki mahsulotning o‘sish sur‘atlarining qariyb 2 foizga oshishiga yordam berdi. Sanoat va xizmatlar uchun qo‘shilgan qiymatning taxminan 5% va 7%, qishloq xo‘jaligi mahsulotlariga qo‘shilgan qiymatning atigi 1% o‘sdi<sup>115</sup>.

Hukumatimiz hozirda Islom taraqqiyot banki (ITB), Osiyo taraqqiyot banki (OTB), Saudiya taraqqiyot jamg‘armasi (STJ), Jahon banki (JB), Quvayt kabi xalqaro moliya tashkilotlari mablag‘lari hisobidan investitsiya loyihalarini amalga

<sup>114</sup> Juraev, Farrukh (2021). *Key priorities of Uzbekistan for the comprehensive development of transport corridors in Central Asia*. Retrieved from <http://isrs.uz/en/maqolalar/klucevye-priority-uzbekistana-po-vsestoronnemu-razvitiu-transportnyh-koridorov-v-centralnoj-azii>. Accessed on 12.07.2021

<sup>115</sup> Yoshino, NaoYuki, and Umid Abidhadjaev (2015). *An Impact Evaluation of Investment in Infrastructure: The Case of the Railway Connection in Uzbekistan*. Retrieved from <https://www.adb.org/sites/default/files/publication/175724/adb-wp548.pdf>. Accessed on 12.07.2021.

oshirish tizimini takomillashtirishga alohida e'tibor qaratmoqda. Arab iqtisodiy taraqqiyot jamg'armasi (KFAED) va boshqalar yo'l infratuzilmasi tizimini takomillashtirish maqsadida.

IFI ishtirokida birgalikda amalga oshirilgan loyihalardan ba'zilari quyidagilardan iborat:

- OTB ishtirokida "Hududiy yo'llarni rivojlantirish";
- ITB ishtirokida "Toshkent – Termiz" M-39 avtomobil yo'lini rekonstruksiya qilish;
- 4P87-sonli "G'uzor – Chim – Ko'kdala" avtomobil yo'lini DSX va KFAED ishtirokida rekonstruksiya qilish;
- JB ishtirokida "Mahalliy yo'llarni rivojlantirish";
- "OTBning A-380 "G'uzor – Buxoro – Nukus – Beyneu" yo'lining 87 kilometrini rekonstruksiya qilish bo'yicha hamkorligi";
- "OTB ko'magida "Qarshi – shahrisabz – Kitob" yo'nalishidagi 77 kilometrlik avtomobil yo'lini rekonstruksiya qilish;
- OTB ko'magida "CAREC 2 yo'lak investitsiya dasturi" doirasida joriy etilgan "Yo'l aktivlarini boshqarish tizimi"<sup>116</sup>.

Xulosa qilib aytganda, O'zbekiston keyingi yillarda transport infratuzilmasini rivojlantirishda sezilarli yutuqlarga erishdi. Avtomobil, temir yo'l va havo tarmoqlariga investitsiyalar davom ettirilsa, mamlakat iqtisodiy o'sishni davom ettirishga va hududlarda transport infratuzilmasi bilan bo'g'liq muammolarni yaxshilashga erishish mumkin.

### **Davlat siyosati**

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 17-avgustdagi "Tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash davlat jamg'armasini tashkil etish to'g'risida" PR-3225-son qarori Tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash davlat jamg'armasini (Jamg'armasini) tashkil etishda asos bo'lib xizmat qildi.

Tadbirkorlikni rivojlantirish agentligi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 13-avgustdagi PQ-5780-son qarori hamda "Tadbirkorlik

---

<sup>116</sup> Yo'l transport infratuzilmasi <https://invest.gov.uz/investor/dorozhno-transportnaya-infrastruktura-2/>

faoliyatini rivojlantirish agentligi huzuridagi Tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash davlat jamg‘armasi to‘g‘risida”gi Nizomga muvofiq samarali tashkil etilmoqda. Nizom Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 16-yanvardagi 77- son qaroriga 2-ilova bilan tasdiqlangan.

Jamg‘arma ikki turdagi moliyaviy yordamni taklif qiladi (kafolat va foiz xarajatlarining bir qismi uchun kompensatsiya).

Tijorat banklari tomonidan kichik firmalarga berilgan kreditlarning 50 foizigacha, lekin 8 milliard so‘mdan oshmasligini kafolatlaydi.

Tijorat banklarining kichik firmalarga 10 milliard so‘mga yaqin kreditlari bo‘yicha foizli xarajatlarning bir qismi jamg‘arma hisobidan qoplanadi.

Tijorat banklari tomonidan xalqaro valyutada 10 milliard so‘mdan ortiq bo‘lmagan kreditlar bo‘yicha foiz xarajatlarini to‘lash uchun tijorat banklari tomonidan qo‘yiladigan foiz stavkasining 30 foizigacha, biroq 3 foiz banddan ko‘p bo‘lmagan miqdorda to‘lanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 13 ta Farmoni, 35 ta qarori va Vazirlar Mahkamasining 4 ta qarori moliyaviy qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha ko‘plab standartlarni belgilab beruvchi jamg‘arma faoliyatini tartibga soladi.

Ushbu hujjatlardan sakkiztasida me‘yoriy matn chiqarilgunga qadar berilgan kreditlar bo‘yicha (eksport qiluvchi korxonalar, tikuvchilik ishlab chiqaruvchilari, turizmni qo‘llab-quvvatlash, yoshlar tadbirkorligini qo‘llab-quvvatlash, mehnat migratsiyasi va hududlarni sanoatni rivojlantirish uchun) qo‘shimcha ravishda moliyaviy qo‘llab-quvvatlash taklif etiladi.

Bundan tashqari, 2 ta loyihaga Markaziy bank tomonidan belgilangan bazaviy stavka bo‘yicha 50% gacha, 11 ta loyihaga esa 10% gacha kreditlar taqdim etiladi. O‘n bitta hujjatda kredit foiz stavkasining 50 foizi miqdorida kompensatsiya nazarda tutilgan. 2022-yilning 1-iyul holatiga ko‘ra, jamg‘arma tomonidan 38161 ta loyihaga 58757 milliard so‘m kredit ajratilib, korxonalarga 12384,9 milliard so‘m moliyaviy yordam ko‘rsatildi. Shundan 9955 ta loyiha bo‘yicha jami 19409,8 mlrd.so‘mlik kreditlar jami 7501,8 mlrd.so‘mga sug‘urta qilingan bo‘lsa, 39322,1 mlrd.so‘mlik 28357 ta loyiha bo‘yicha 4749 mlrd. so‘m,

49 ta loyihaga jami 33,4 milliard so‘m kredit ajratildi. Natijada 287 ming 258 ta yangi ish o‘rni yaratish ko‘zda tutilgan.

“Tadbirkor” loyihasi axborot tizimi ([www.tadbirkor.statefund.uz](http://www.tadbirkor.statefund.uz)) 2020-yil 1-iyundan ishga tushdi. Barcha buyurtmalar uchun elektron shaklda ariza berish qo‘llaniladi. Jamg‘arma tomonidan epidemiya davrida korxonalariga 24 373,6 milliard so‘mlik kreditlar (15 390 ta loyiha) bo‘yicha 5 089,7 milliard so‘m miqdorida moliyaviy ko‘mak berildi. Shundan 3920 ta loyiha bo‘yicha jami 7376,5 mlrd.so‘m kreditlar bo‘yicha jami 3057,5 mlrd.so‘m kafolatlangan bo‘lsa, 16997,1 mlrd.so‘mlik 11470 ta loyiha bo‘yicha 2032 mlrd.so‘m foiz to‘lovlarining bir qismini qoplash talab etildi.

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 3-apreldagi PQ-5978-son qaroriga muvofiq, bir qarz oluvchiga bir vaqtning o‘zida kafolatlar va kompensatsiyalar taqdim etish bo‘yicha Jamg‘armaning cheklovlari bekor qilindi hamda tadbirkorlik sub’yektlari endilikda xuddi shu paytni o‘zida kafolat va kompensatsiya olishlari mumkin.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 21-apreldagi “Tadbirkorlik faoliyatini qo‘llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish, ishbilarmonlik muhitini yanada yaxshilashga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-5087-son qarori bilan Jamg‘arma tomonidan davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashning quyidagi qo‘shimcha chora-tadbirlari joriy etildi. Qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarini kengaytirish maqsadida 2021-yil 1-may holatiga ko‘ra tadbirkorlik sub’yektlari, jumladan:

kichik korxonalariga milliy valyutada berilgan kreditlar bo‘yicha foiz xarajatlari o‘rnatilgan miqdorda saqlanib qolgan holda, Markaziy bank bazaviy stavkasining 1,75 baravaridan oshmaydigan foiz stavkasida kompensatsiya to‘lanadi; “Ijtimoiy muhofaza qilishning yagona reestri” axborot tizimiga kiritilgan fuqarolarga tijorat banklarining kreditlari tadbirkorlik loyihalari uchun ajratiladigan kreditlar summasining 75 foizigacha, lekin bazaviy miqdorning 150 baravaridan ko‘p bo‘lmagan miqdorda sug‘urta qilinadi;

kredit shartnomalari miqdoridan qat’iy nazar, korxonalar bank kreditlari bilan kompensatsiya va sug‘urta qilinadi.

Bundan tashqari, kompensatsiya va kafolatlar uchun berilgan kreditlarning umumiy summasi mos ravishda 10 milliard so‘m va 8 milliard so‘mdan ko‘p bo‘lmasligi yoki kredit umumiy summasining 50 foizidan ko‘p bo‘lmasligi kerak<sup>117</sup>.

2022-yil 21-yanvarda Prezident SH.M.Mirziyoyev tomonidan “Respublika hududlarida tadbirkorlik infratuzilmasini rivojlantirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-54-son Farmon imzolanishi hududlarda mavjud infratuzilmani yanada rivojlantirish va tadbirkorlik uchun mavjud bo‘lgan muammolarni bartaraf etishga jiddiy qadam ekanligini ko‘rish mumkin.

Farmonda keltirilishicha Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari huzurida tadbirkorlik uchun infratuzilmalarni rivojlantirish jamg‘armalari tashkil etiladi.

Tashkil etiladigan jamg‘armalarning daromadlarini quyidagi manbalar orqali shakllantirish belgilab olindi:

qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yer uchastkalarini xususiy lashtirishdan hamda yer uchastkalarini ijaraga olish huquqini elektron onlayn-auksion orqali sotishdan tushadigan mablag‘larning Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilangan xarajatlar chegirib qolingandan so‘ng qolgan qismining 70%i, bundan maxsus iqtisodiy zonalar, kichik sanoat zonolari va “Business city” markazlari hududlaridagi yer uchastkalari mustasno;

jismoniy va yuridik shaxslarining homiylik xayriyalari;

qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa manbalar.

Jamg‘armalarning mablag‘lari quyidagi tadbirlarni moliyalashtirishga yo‘naltiriladi:

“Yangi O‘zbekiston” massivlari, davlat uy-joy dasturlarida ko‘zda tutilgan massivlar, shuningdek, maxsus iqtisodiy zonalar, kichik sanoat zonolari, yoshlar sanoat va tadbirkorlik zonalarini tashqi muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlari (ichimlik va oqova suv, elektr energiyasi, tabiiy gaz tarmoqlari va avtomobil yo‘li) bilan ta’minlash;

---

<sup>117</sup> TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISH AGENTLIGI HUZURIDAGI TADBIRKORLIK FAOLIYATINI QO‘LLAB-QUVVATLASH DAVLAT JAMG‘ARMASI TO‘G‘RISIDA MA’LUMOT [HTTPS://MINECONOMY.UZ/EN/INFO/4054](https://mineconomy.uz/en/info/4054)

qiymati 200 mlrd so‘mdan oshadigan, investorning o‘z mablag‘lari ulushi 25% dan kam bo‘lmagan, investitsiya dasturlariga kiritilgan loyihalar, shuningdek, xalqaro va Respublika ahamiyatidagi avtomobil yo‘llari bo‘yidagi yaxlit yer maydonlarida tashkil etiladigan yo‘l bo‘yi infratuzilma ob‘yektlarini tashqi muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlari bilan ta‘minlash;

aholi punktlari bosh rejalari, hududlarning ma‘muriy-rejalashtiruv topshiriqlari va batafsil rejalashtirish loyihalarini ishlab chiqish.

Yuqoridagi tadbirlar xarajatlarini qoplash uchun mablag‘lar Davlat byudjeti va qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobidan ajratiladi<sup>118</sup>.

### 3.7.-jadval

#### 2023-yilda ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirishning asosiy parametrlari hamda 2024-2025-yillar uchun maqsadli mo‘ljallar(mlrd. so‘m)<sup>119</sup>

T/r	Mablag‘lardan foydalanish yo‘nalishlari	2023-2025-yillar, reja	shu jumladan:		
			2023-yil reja	2024-yil	2025-yil <sup>120</sup>
	Jami	55 833,0	15 520,0	18 424,5	21 888,6
I	Ijtimoiy sohalar	19 413,3	5 370,0	6 399,0	7 644,3
II	Muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlari	4 690,1	1 300,0	1 547,5	1 842,6
III	Yo‘l-transport infratuzilmasi	8 252,3	2 280,0	2 722,0	3 250,3
IV	Irrigatsiya va melioratsiya	4 167,0	1 200,0	1 380,0	1 587,0
V	Maxsus iqtisodiy zonalar, kichik sanoat zonalar, yoshlar sanoat va tadbirkorlik zonalar hamda yirik ishlab chiqarish loyihalarini tashqi muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlari bilan ta‘minlash	4 514,3	1300,0**	1 495,0	1 719,3
VII	Boshqa yo‘nalishlar	6 501,7	1 900,0	2 155,5	2 446,3
VIII	Turizm obyektlari atrofidagi yer maydonlari, suv va yo‘l infratuzilmalarini yaxshilash	972,3	280,0	322,0	370,3
IX	“Yangi O‘zbekiston” massivlarida barpo etiladigan infratuzilma obyektlari uchun	2 420,6	697,1	801,6	921,9

<sup>118</sup>ТАДБИРКОРЛИК ИНФРАТУЗИЛМАСИ ҚАНДАЙ РИВОЖЛАНТИРИЛАДИ ПОДРОБНЕЕ:

[HTTPS://WWW.NORMA.UZ/UZ/QONUNCHILIKDA\\_YANGI/TADBIRKORLIK\\_INFRAUZILMASI\\_QANDAY\\_RIVOJLANDI](https://www.norma.uz/uz/qonunchilikda_YANGI/TADBIRKORLIK_INFRAUZILMASI_QANDAY_RIVOJLANDI)

<sup>119</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 30.12.2022 yildagi “2023 — 2025-YILLARDA O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINING IJTIMOYIY VA ISHLAB CHIQRISH INFRAUZILMASINI RIVOJLANTIRISH CHORA-TADBIRLARI TO‘G‘RISIDA”gi PQ-465-son qarori, <https://lex.uz/uz/docs/-6333021>

<sup>120</sup> 2024-2025-yillar uchun maqsadli mo‘ljallarga O‘zbekiston Respublikasi budjeti parametrlarini shakllantirishda aniqlik kiritiladi.

Shu bilan birga O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 30-dekabrda “2023-2025-yillarda O‘zbekiston Respublikasining ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori yuzasidan Respublikamiz hududlarida infratuzilmani rivojlantirish uchun davlat budjetidan 2023-2025 yillar uchun umumiy 56 trln. so‘mlik loyihalarni amalga oshirish maqsad qilingan.

Ushbu maqsadli mablag‘larning 30 foizdan ko‘proq qismi ijtimoiy soha infratuzilmasini rivojlantirishga qaratilgan bo‘lsa, qolgan qismi asosan muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlari, yo‘l-transport infratuzilmasi va maxsus iqtisodiy zonalar infratuzilmasini rivojlantirishga yo‘naltirish rejalashtirilgan.

Yuqoridagi kabi qabul qilinayotgan loyihalar tadbirkorlikni rivojlantirish uchun zarur bo‘lgan infratuzilmani yanada takomillashtirishda muhim rol o‘ynaydi.

Ko‘rinib turibdiki respublikamizda kichik biznes va tadbirkorlikning yalpi samaradorligi birlik koeffitsiyentdan yuqori va so‘nggi yillarda oshib bormoqda. Ushbu natijaning ijobiy va rivojlanayotganligining eng muhim sabablaridan biri infraturilmaviy xizmatlarning ham son ham sifat jihatdan ortib borayotganligidir. 3.8.-jadvaldagi ma’lumotlarga asoslangan holda yalpi samadadorlikni kelgusi yillarga mo‘ljallangan prognozini amalga oshiramiz. O‘rtacha harakatlantirish (moving average) usulidan foydalanamiz.

### 3.8.-jadval

#### O‘zbekistonda kichik biznes va tadbirkorlikning Solou ishlab chiqarish funksiyasi bo‘yicha yalpi samaradorlik ko‘rsatkichlari<sup>121</sup>

Yil	LNGDP	LN BAND	LN KAPITAL	TFP (YALPI SAMARADORLIK)
2000	7.684462	8.404495	6.61271	1.09
2001	8.102465	8.462315	7.18607	1.10
2002	8.504695	8.516012	7.3308	1.38
2003	8.700664	8.600928	7.58989	1.39
2004	9.143773	8.695323	7.87436	1.26

<sup>121</sup> Muallif tomonidan excel dasturida hisoblandi

2005	9.374379	8.795204	8.05997	1.28
2006	9.700582	8.886561	8.30425	1.31
2007	10.22696	8.954557	8.6833	1.25
2008	10.48823	8.996045	9.16491	1.15
2009	10.74185	9.032421	9.43603	1.11
2010	11.29012	9.064609	9.70891	1.34
2011	11.61528	9.099487	9.87817	1.41
2012	11.8426	9.131265	10.1046	1.36
2013	12.06205	9.169935	10.3252	1.29
2014	12.29314	9.205408	10.536	1.25
2015	12.49514	9.227237	10.7102	1.23
2016	12.70265	9.249321	10.8441	1.20
2017	12.89429	9.263075	11.1866	1.14
2018	13.15484	9.223138	11.7299	1.23
2019	13.30268	9.241732	12.1855	1.08
2020	13.45638	9.196819	12.2558	1.31
2021	13.66045	9.217385	12.3865	1.33


Bu usulning asosiy afzalligi kelajakdagi ma'lumotlar nuqtalarini loyihalashda o'tmishdagi qiymatlarni har tomonlama hisobga olishdadir. Bu xususiyat bir qator afzalliklarni taqdim etadi, jumladan, prognozlarga nisbatan o'zgaruvchan ko'rsatkichlarning ta'sirini yumshatish va vaqtli qatorlardagi ma'lumotlarda mavsumiy harakatlarini aniqlashni osonlashtiradi. Bundan tashqari, o'rtacha harakatlantirish usulida qo'llaniladigan siljitish sxemasi so'nggi ma'lumotlarga katta ahamiyat beradi va ularni qisqa muddatli tendensiyalarni bashorat qilish uchun ayniqsa ishonchli ko'rinishga keltiradi.

Xulosa qilib aytganda, o'rtacha harakatlantirish usuli qisqa muddatli prognozlash uchun ko'p qirrali va foydalanuvchilarga qulay vosita bo'lib, mavsumiy



tendensiyalarni aniqlash orqali uzoq muddatli prognozlash ehtiyojlarini qondirish bilan birga tarixiy ma'lumotlarni kiritish orqali aniqlikni taklif qiladi.

### 3.12.-rasm. Kichik biznes va tadbirkorlikning yalpi samaradorligi ko'rsatkichlarining 5 va 10 yillik prognoz ko'rsatkichlari<sup>122</sup>.



Grafik ma'lumotlaridan, 5 yillik o'rtacha harakanlantirishdan olingan natijalar 2027-yilga borib TFPni 1.2 va 1.3 intervali oralig'ida ekanligini ko'rish mumkin, shuningdek 10 o'rtacha harakanlantirish usulidan olingan natijalar ham 2032-yilgacha TFPni 1.2 va 1.4 intervalida bo'lishini prognoz qilgan.

Olingan natijalarni ishonchliligini tekshirish uchun MAPE (o'rtacha mutlaq foiz xatosi) - modelidan foydalanamiz. Ushbu model bashoratlarining to'g'riligini baholash uchun, prognozlash va bashoratli modellashtirishda qo'llaniladigan umumiy ko'rsatkichdir. MAPEning afzalligi shundaki, unda bashorat qilingan qiymatlar va haqiqiy qiymatlar o'rtasidagi o'rtacha mutlaq foiz farqini o'lchanadi, ayniqsa, prognozning foiz aniqligi bo'yicha haqiqiy natijalarga qanchalik mos kelishini aniqlashda juda samarali. Modelni hisoblashning formulasi quyidagicha:

<sup>122</sup> Muallif tomonidan excel dasturida hisoblandi

$$\text{MAPE} = (\sum |\text{Actual} - \text{Forecast}| / \sum \text{Actual}) \times 100 \quad (1)$$

Kichikroq ko'rsatkichli MAPE modeli bashoratlari haqiqiy qiymatlarga yaqinroq ekanligini va shuning uchun aniqroq model ekanligini ko'rsatadi. Aksincha, yuqori ko'rsatkichli MAPE bashorat qilishda xatolarini keltirib chiqaradi. MAPE foiz sifatida ifodalanadi, bu prognozning aniqligini nisbiy jihatdan tushunishni osonlashtiradi.

	5-yillik o'rtacha	10 yillik o'rtacha
<b>MAPE</b>	0.95%	0.84%

Mape natijalari 10 yillik o'rtacha harakanlantirishdan olingan natijalarni ishonchli ekanligini ko'rsatmoqda. Shu sababli natijalarni tahlil qilishda 10 yillik o'rtacha harakanlantirish usulda olingan prognozlardan foydalanish maqsadga muvofiq.

Biz o'z tadqiqotlarimiz asosida O'zbekistonda biznes infratuzilmasini rivojlantirishning umumiy yo'llarini taklif qilishimiz mumkin:

Davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash: hukumat imtiyozlar, soliq imtiyozlari, moliyalashtirish va tartibga solish tartib-qoidalarini soddalashtirish orqali tadbirkorlik infratuzilmasini rivojlantirishni qo'llab-quvvatlashi mumkin:

infratuzilmaga sarmoya kiritish: infratuzilmaga sarmoya kiritish samarali transport, aloqa va energiya tizimlarini ta'minlash orqali biznes muhitini yaxshilashi mumkin;

inson kapitaliga investitsiyalar: mamlakat tadbirkorlar va ishchilarni iqtisodiyotni yaxshilash uchun zarur ko'nikmalar bilan ta'minlaydigan ta'lim va o'qitish dasturlarini taqdim etish orqali inson kapitalini rivojlantirishga sarmoya kiritishi mumkin;

moliya va bank tizimlari: kuchli va faoliyat yurituvchi moliya va bank tizimlari biznesning uzluksiz ishlashi uchun zarurdir. O'zbekiston biznesni qo'llab-quvvatlash uchun moliya institutlari va bank tizimini mustahkamlashi mumkin;

Qonunlar va loyihalar: biznesning oʻsishi va rivojlanishiga yordam beradigan qonunlar loyihalar qabul qilinishi va amalga oshirilishi kerak. Qulay ishbiarmonlik muhiti xorijiy sarmoyadorlarni jalb qiladi, startaplar uchun imkoniyatlar yaratadi va mahalliy biznesning rivojlanishiga turtki beradi;

texnologiya va innovatsiyalar: Oʻzbekiston oʻzining texnologik va innovatsion imkoniyatlarini rivojlantirishga eʼtibor qaratishi mumkin, bu esa kelajakda biznesning oʻsishiga yordam beradi;

pirovardida, biznes infratuzilmasini rivojlantirish strategik rejalashtirish, investitsiyalar va davlat tomonidan qoʻllab-quvvatlashni oʻz ichiga olgan koʻp qirrali yondashuvni talab qiladi. Korxonalarini innovatsiyalar yaratish, mahsuldorlik va sifatni oshirish hamda jahon bozorida raqobatlashishga undash Oʻzbekiston uchun uzoq muddatli iqtisodiy foyda keltirishi mumkin.

### **III bob bo'yicha hulosa**

Tadqiqot natijalariga asosan O'zbekiston hududlarida ichki resurslarga asoslangan infratuzilmani oshirgan holda kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari yuzasidan quyidagicha xulosalar kelib chiqadi:

- O'zbekiston eksportga yo'naltirilgan tadbirkorlikni rivojlantirishda transport koridorlari yuzasidan hamkor va qo'shni davlatlar bilan munosabatlarni yanada mustahkamlash uchun yangi tranzit kanallarini topishi zarur;
- tadbirkorlikni boshlash uchun yaratilgan shart-sharoitlar e'tiborga molik, ammo uni davom ettirish va yoki yanada rivojlantirishda hududlar bo'yicha ularning ichki imkoniyatlarini inobatga olgan holda yondashish;
- tadbirkorlik sub'yektlari sonidan kelib chiqib hududlarni toifalarga ajratgan holda kichik biznes va tadbirkorlikka infratuzilma omillari ta'sirini baholash.

Tadqiqotimiz natijalari asosida keltirilgan ushbu tavsiyalardan O'zbekistonning birlamchi hududiy birliklarida kichik biznes va tadbirkorlikning rivojiga ichki resurlarga asoslangan infratuzilmaning ta'sirini prognozlashni osonlashtirish va turli xil kutilmalarga tezda javob berish imkoniyatini yaratadi.

### **XULOSA**

Ilmiy ishda kichik biznes va tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishda ichki resurslarga asoslangan hududiy infratuzilmasini takomillashtirish yuzasidan olib borilgan tadqiqot natijalariga asoslanib quyidagi xulosalarga ega bo'lish mumkin:

1. Infratuzilma bo'yicha yuritilgan fikr va mulohazalardan kelib chiqib aytish mumkinki, ushbu termin uchun aniq bir qoida sifatida keltirilgan ta'rif mavjud emas. Yuqoridagi qarashlardan kelib chiqib infratuzilma uchun quyidagicha ta'rif berishimiz mumkin: infratuzilma – bu ijtimoiy-iqtisodiy hayot rivojlanishi va farovonligi uchun xizmat qiluvchi shart-sharoitlar yig'indisidir.

2. Hududlarda tadbirkorlik infratuzilmasini rivojlantirish murakkab jarayon hisoblanib, hududlar kesimida infratuzilmani rivojlantirish bo'yicha mutanosiblik ta'minlanishi zarur. Aks holda, hududlarda kapital to'planishiga va buning oqibatida turli xil ijtimoiy-iqtisodiy muammolar yuzaga kelishiga sabab bo'lishi mumkin.

3. Tahlil etilgan fikr va mulohazalardan keyin hududiy jihatdan kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirishdagi ahamiyatidan kelib chiqib hududiy infratuzilmaning hududlarda samarali ishlab chiqarishni va sifatli ijtimoiy hayotni ta'minlash, ishlab chiqarish kuchlarini bir-biri bilan samarali bog'lash, ishlab chiqarish samaradorligiga ijobiy ta'sir etgan holda, kapital aylanishini tezlashtirish kabi vazifalarini farqlash mumkin.

4. Hududlarda kichik biznes va tadbirkorlik uchun infratuzilmani rivojlantirishda ichki resurslarga tayanish hududlar iqtisodiyotining bir-biriga bosimini va ular o'rtasidagi nomutanosibliklarning oldini olish imkoniyatini yaratadi.

5. Davlat tomonidan energetika sohasidagi belgilab olingan maqsadlarga ko'ra, energiya infratuzilmasini tejamkor va yashil energiya tomon yo'naltirish bo'yicha sezilarli ishlar ko'zga tashlanmayapti. Qayta tiklanuvchi energiya manbalariga investitsiyalar kam kiritilmoqda, loyihalarning ko'pchilik qismini gaz va neft sohalari tashkil etmoqda;

6. Hududlarda tadbirkorlik sub'yektlari uchun zarur infratuzilmani shakllantirish, moliyaviy xizmatlarni yaxshilash, ishbilarmonlik muhitini qulaylashtirish borasida qilinayotgan amaliy ishlar natijasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning soni so'nggi dekadada 31 foizdan 57,5 foizga yoki 1,8 barobarga oshdi.

7. O'zbekiston iqtisodiyoti tarmoqlarida doimiy unumdorlikka erishish uchun hududlarda yetarlicha infratuzilma sig'imi mavjud. Shuningdek, xorijiy tajriba asosida hududlarda tadbirkorlik infastrukturasini rivojlantirish uchun ularning xarakteristikasidan kelib chiqish va moliyaviy resurslarni o'zlashtirishning samarali va ta'sirchan mehanizmlarini yaratishga zarurat tug'iladi.

8. Tadbirkorlikni boshlash uchun yaratilgan shart-sharoitlar e'tiborga molik, uni davom ettirish va yoki yanada rivojlantirishda hududlar bo'yicha ularning ichki imkoniyatlarini inobatga olgan holda yondashmaslik mazkur muammoni surunkaliga aylantirishi mumkin.

9. Tadqiqotimiz natijalari tadbirkorlik sub'yektlari sonidan kelib chiqib, hududlarni toifalarga ajratgan holda kichik biznes va tadbirkorlikka infratuzilma omillari ta'sirini baholash imkonini beradi.

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAP PO'YXATI**

### **I. Nopmativ-huquqiy hujjatlar va metodologik ahamiyatga molik nashrlar.**

1. O'zbekiston Pespublikasi Konstitutsiyasi.–T.: Adolat, 1992. (Qo'shimcha va o'zgarishlar).

2. O'zbekiston Pespublikasining "Davlat statistikasi to'g'risida"gi qonuni.–T.: Xalq so'zi, 2002-yil 12-dekabr, 441-II-son. (Qo'shimcha va o'zgarishlar).

3. O'zbekiston Pespublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016-yil 24-avgustdagi "Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o'tish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 275-sonli qarori. O'zbekiston Pespublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2016-yil, 34-con (405).

4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-sonli farmoni. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017-yil, 6-son (70).

5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 31-iyuldagi "O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3165-sonli qarori. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017-yil, 31-son (771).

6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 5-oktyabrdagi "Tadbirkorlik faoliyatining jadal rivojlanishini ta'minlashga, xususiy mulkni har tomonlama himoya qilishga va ishbilarmonlik muhitini sifat jihatidan yaxshilashga doir qo'shimsha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-4848 sonli farmoni.

7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni, 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-son.

8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasida raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2018-yil 3-iyuldagi PQ 3832 sonli qarori.

9. 2017-yil 6-maydagi “O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi tadbirkorlik sub’ektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo‘yicha vakili institutini ta’ sis etish to‘g‘risida”gi PF - 5037 Farmoni.

10. 2017-yil 19-iyundagi “Biznesning qonuniy manfaatlari davlat tomonidan muhofaza qilinishi va tadbirkorlik faoliyatini yanada rivojlantirish tizimini tubdan takomillashtirishga doir chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF - 5087 Farmoni.

11. 2017-yil 23-oktyabrdagi “Tadbirkorlik sub’ektlariga “Yagona darcha” tamoyili bo‘yicha yagona markazlar orqali ko‘rsatiladigan davlat xizmatlari ro‘yxatiga qo‘shimsha kiritish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar maxkamasining 864-sonli qarori.

12. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 22-yanvardagi PF-5308-son “Faol tadbirkorlik, innovatsion g‘oyalar va texnologiyalarni qo‘llab-quvvatlash yili”da amalga oshirishga oid Davlat dasturi to‘g‘risida”gi Farmoni.

13. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 3-iyuldagi PQ-3832-son “O‘zbekiston Respublikasida raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori.

14. O‘zbekiston Respublikasi Rrezidentining 2018-yil 7-iyundagi PQ-3777-son “Har bir oila-tadbirkor” dasturini amalga oshirish to‘g‘risida”gi Qarori.

15. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 14-maydagi “Tadbirkorlik faoliyatini qo‘llab-quvvatlash va himoya qilish tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni.

16. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 19-martdagi “Koronavirus pandemiyasi va global inqiroz holatlarining iqtisodiyot tarmoqlariga salbiy ta’sirini yumshatish bo‘yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-5969-sonli Farmoni.

17. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Koronavirus pandemiyasi davrida aholi, iqtisodiyot tarmoqlari va tadbirkorlik sub’ektlarini qo‘llab-

quvvatlashga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 2020 yil 4 apreldagi PF-5978-sonli Farmoni.

18. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Koronavirus pandemiyasi davrida aholi va tadbirkorlik sub’yektlarini qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 2020 yil 27 apreldagi PF-5986-sonli Farmoni.

19. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 17 yanvardagi “2017–2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha harakatlar strategiyasini “Faol investitsiyalar va ijtimoiy rivojlanish yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida”gi PF–5635-sonli farmoni. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2019-yil, 3-son (41).

## **II. Monografiya, ilmiy maqola, patent, ilmiy to‘plamlar**

20. Xabibullayev I., Saidova M. O‘zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning rivojlanish ko‘rsatkichlarini ekonometrik modellashtirish elektron dasturi // Elektron hisoblash mashinalari uchun yaratilgan dasturning rasmiy ro‘yxatdan o‘tkazilganligi to‘g‘risida guvohnoma, DGU 06107, 23.01.2019. Talabnoma raqami DGU 2019 0054.

21. Гулямов С.С., Абдуллаев А.М. и др. Прогнозирование и моделирование национальной экономики. / Под ред. акад. С.С. Гулямова. - Т.: Fan va texnologiya, 2007 - 242b.

22. R.Alimov, U.Otajonov, A.Ishnazarov, I.Xabibullayev, M.Saidova. “Ekonometrika asoslari”. O‘quv qo‘llanma. Ro‘yxatga olish raqami 237 - 471. T.2021-y 31-may.

23. Дегтярева, Н.А.Эконометрические модели анализа и прогнозирования : монография / Н.А. Дегтярева. – Челябинск: Цицеро, 2017. – 170 б.

24. Дубина, И.Н. Математико-статистические методы в эмпирических социально-экономических исследованиях / И.Н. Дубина. – М.: Финансы и статистика, Инфра, 2010. – 416 с.



25. Cobb C.W., Douglas P.H. Theory of production // American Economic Review. Supplement, 1928, March.
26. Shodiyev X., Xabibullayev I. Statistika. Darslik. – T.: Iqtisod-Moliya. 2018, – 484 b.
27. Shodmonov Sh.Sh., B.E.Mamaraximov “Iqtisodiyot nazariyasi”. – T.: Iqtisod-moliya, 2016. – 65-b.
28. O‘lmasov A., Vahobov A. “Iqtisodiyot nazariyasi” Toshkent “Iqtisod-moliya”, 2014. 32-b.

## **II.Foydalanilgan boshqa adabiyotlar**

29. Drogendijk Rian, Martin Oscar “Relevant dimensions and contextual weights of distance in international business decisions: Evidence from Spanish and Chinese outward FDI”. 2015\_ International BusinessReview,24(1),133-147.<https://doi.org/10.1016/j.ibusrev.2014.07.003>.
30. Nabamita Dutta, Russell S. Sobel. “Entrepreneurship and human capital: the role of financial development: The role of financial development” International Review of Economics and Finance. 2018, doi: 10.1016/ j. iref.2018.01.020.
31. Zeevik Greenberga, Yanay Farjab, Eli Gimmon “Embeddedness and growth of small businesses in rural regions”.2018
32. Constantinos N. Leonidous, Magnus Hultman “Global marketing in business-to-business contexts: Challenges, developments, and opportunities”. 2018 journal homepage: [www.elsevier.com/locate/indmarman](http://www.elsevier.com/locate/indmarman).
33. Michael C. Ehrhardt and Eugene F. Brigham. “Financial Management: Theory and Practice”, Thirteen Edition.South-Western Education. 2011 year. 1181p. [www.CengageBrain.com](http://www.CengageBrain.com).
34. Bradley R. Schiller, Karen Gebhardt “Essentials of Economics” Tenth Edition. Published by McGraw-Hill Education, 2 Penn Plaza, New York, NY 10121. McGraw-Hill Education. 2017. 470 pages.
35. David M. Levine, David F. Stephan, Kathryn A. Szabat “Statistics for Managers Using Microsoft Excel”. 8th Edition Global Edition. Pearson Education Limited Edinburgh Gate Harlow Essex CM20 2JE England.2017.721 pages.

36. Stephen P. Robbins, Timothy A. Judge “Organizational Behavior” 17 edition. Pearson Education Limited Edinburgh Gate Harlow Essex CM20 2JE England. PearsonEducationLimited 2017. 725 pages.

37. Хечиев Е.В. Типология инфраструктурных ограничений развития бизнеса // *Via in tempore. История. Политология.* 2009. №1 (56). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/tipologiya-infrastrukturnyh-ogranicheniy-razvitiya-biznesa> (дата обращения: 18.07.2022).

38. Геец В. М. Общество, государство, экономика: феноменология взаимодействия и развития [монография] / В. М. Геец. - К.: НАН Украины, 2009. - 864 с.

39. Torrance, M., 2009. The rise of a global infrastructure market through relational investing. *Econ. Geogr.* 85 (1), 75–97.

40. Bryson, J. R., Mulhall, R. A., Song, M., Loo, B. P. Y., Dawson, R. J., & Rogers, C. D. F. (2018). Alternative-substitute business models and the provision of local infrastructure: Alterity as a solution to financialization and public-sector failure. *Geoforum*, 95, 25–34. doi:10.1016/j.geoforum.2018.06.022.

41. E. Aykana, S. Aksoylu, and E. Sönmez, “Effects of Support Programs on Corporate Strategies of Small and Medium-Sized Enterprises”, in *Procedia - Social and Behavioral Sciences*, iss. 99, pp. 938-946, 2013.

42. S. Cakula, A. Jakobson, and Jiří Motejlek, “Virtual Business Support Infrastructure for Entrepreneurs”, in *Procedia Computer Science*, iss. 25, pp. 281-288, 2013.

43. K. Kristianovaa, K. Gecovaa, and E. Putrova, “Old Industrial Sites – Conversion to Parks: Potential of Bratislava”, in *Procedia Engineering*, iss. 161, pp. 1858-1862, 2016.

44. Brenes, E., & Haar, J. (Eds.). (2012). *The Future of Entrepreneurship in Latin America*. London, UK: Palgrave Macmillan. Marke, D. and Markley, D. 2006. *Entrepreneurship and rural America*. Rural Research Report, 17 (4): 1–6.

45. A.Coskun Samli “From Imagination to Innovation” DOI<https://doi.org/10.1007/978-1-4614-0854-3>, Springer Science+Business Media, LLC 2011, ISBN978-1-4899-8965-9, Edition Number1, Number of Pages XX, 131.

46. Hew, Khe & Kale, Ugur & Kim, Nari. (2007). Past Research in Instructional Technology: Results of a Content Analysis of Empirical Studies Published in Three Prominent Instructional Technology Journals From the Year 2000 Through 2004. *Journal of Educational Computing Research*. 36. 269-300. 10.2190/K3P8-8164-L56J-33W4.

47. David B. Audretsch • Diana Heger • Tobias Veith (2014). Infrastructure and entrepreneurship. *Small Bus Econ* (2015) 44:219–230 DOI 10.1007/s11187-014-9600-6.

48. Audretsch, D. B., & Keilbach, M. (2007). The theory of knowledge spillover entrepreneurship. *Journal of Management Studies*, 44, 124.

49. Woolley, J.L., (2013). The creation and configuration of infrastructure for entrepreneurship in emerging domains of activity. *Entrepreneurship Theory and Practice*, 38(4), 1042–2587.

50. Nkechi, A., Emeh Ikechukwu, E. J., & Okechukwu, U. F. (2012). Entrepreneurship development and employment generation in Nigeria: problems and prospects. *Journal of Education and General Studies*, 1(4), 088-102.

51. Shaks, S., & Barnes, P. (2008). Econometric Modeling of Infrastructure and Australia's Productivity. Research Memorandum, Australia Productivity Commission, Retrieved from <https://www.google.com/search?>

52. Kessides, "The Contributions of Infrastructure to Economic Development," A Review of Experience and Policy Implications, Washington, DC: The World Bank, Discussion Paper No. 213, 1993.

53. Adikwe, P.K. (2012). Project finance for Small and Medium Scale Enterprises (SMES) in Nigeria. *An International Multidisciplinary Journal, Ethiopia*, 6(1), 91-100.

54. Osoba, A. M. (2003). Towards the Development of Small Scale Industries in Nigeria.

55. Мокрецова А. И. Теоретико-методический подход к управлению развитием ресурсного потенциала региона // Вестник Брянского государственного университета. 2013. № 3. С. 78–81.

56. Ломовцева О. А. Совокупный ресурсный потенциал региона: методология определения и измерения // Научные ведомости Белгородского государственного университета. 2012. № 1. С. 61–67.

57. Якушкина Т. А. Роль оценки ресурсного потенциала в развитии региона // Вестник Брянского государственного университета. 2012. № 3. С. 308–312.

58. Кулиш С. М. Ресурсный потенциал обеспечения инновационного социально ориентированного развития региона // Казанский педагогический журнал. 2015. № 3. URL: <http://cyberleninka.ru/article/n/resursnyy-potentsial-obespecheniya-innovatsionnogo-sotsialno-orientirovannogo-razvitiya-regiona> (дата обращения: 10.12.2017).

59. Kovács, György. (2016). Logistics and production processes today and tomorrow. *Acta logistica*. 3. 1-5. 10.22306/al.v3i4.71.

60. Rong, K., Liu, Z. and Shi, Y. (2011), "Reshaping the business ecosystem in China: case studies and implications", *Journal of Science and Technology Policy in China*, Vol. 2 No. 2, pp. 171-192. <https://doi.org/10.1108/17585521111155228>.

61. Li, H. (2012). History and Development of Entrepreneurship in China. *Entrepreneurship and Economic Growth in China*, 13-34. doi:10.1142/9789814273374\_0002.

62. Douglas Zhihua Zeng (2012) "China's Special Economic Zones and Industrial Clusters: Success and Challenges" Lincoln Institute of Land Policy Working Paper, [help@lincolninst.edu](mailto:help@lincolninst.edu).

63. A.K. Abotsi, "Power Outages and Production Efficiency of Firms in Africa," *International Journal of Energy Economics and Policy*, vol. 6, no. 1, 2016.

64. A. Fakh, P. Ghazalian, and N. Ghazzawi, "The Effects of Power Outages on the Performance of Manufacturing Firms in the MENA Region," *Review of Middle East Economics and Finance*, vol. 16, no. 3, Dec. 2020, doi: 10.1515/rmeef-2020-0011.

65. A.B. Abeberese, C.G. Ackah, and P.O. Asuming, "Productivity Losses and Firm Responses to Electricity Shortages: Evidence from Ghana," *The World Bank Economic Review*, vol. 35, no. 1, pp. 1–18, Feb. 2021, doi: 10.1093/wber/lhz027.

66. Yoshino, Naoyuki, and Umid Abidhadjaev (2015). *An Impact Evaluation of Investment in Infrastructure: The Case of the Railway Connection in Uzbekistan*. Retrieved from <https://www.adb.org/sites/default/files/publication/175724/adbi-wp548.pdf>. Accessed on 12.07.2021.

67. R.X.Karlibaeva, M.M.Tashxodjayev, Z.A.Ashurov. Ishlab chiqarish infratuzilmasi: darslik / O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi. — Toshkent: O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2014.- 160 б.,

68. Habibullo Hasanov, “Economic effects of business infrastructure digitalization” march 2021, Conference: Development issues of innovative economy in the agricultural sector, Samarkand.,

69. Yoshino, Naoyuki, and Umid Abidhadjaev (2015). *An Impact Evaluation of Investment in Infrastructure: The Case of the Railway Connection in Uzbekistan*. Retrieved from <https://www.adb.org/sites/default/files/publication/175724/adbi-wp548.pdf>. Accessed on 12.07.2021.,

70. Juraev, Farrukh (2021). *Key priorities of Uzbekistan for the comprehensive development of transport corridors in Central Asia*. Retrieved from <http://isrs.uz/en/maqolalar/klucevye-prioritety-uzbekistana-povsestoronnemurazvitiu-transportnyh-koridorov-v-centralnoj-azii>. Accessed on 12.07.2021.

71. Xalqaro Mehnat Tashkilotining, “Local Resource-Based Approaches for Infrastructure Investment – source book” International Labour Office Sub-Regional Office for Southern Africa Harare, Zimbabwe 2010

72. Репин, В. В. Бизнес-процессы. Моделирование, внедрение, управление / Владимир Репин. - 2- е изд. - М.: Манн, Иванов и Фербер, 2014. -512 ст.

73. Михаил Рыбаков Юрьевич. Бизнес-процессы. Как их описать, отладить и внедрить. Практикум.- М.: Жураковская, 2016-2019.- 590 стр.

74. Елиферов В.Г.Бизнес процессы.Регламентация и управления. / В.Г.Елиферов, В.В.Репин. - М: Инфра-М.2004.-320 ст.;

75. Андерсен Бьёрн. Бизнес-процессы. Инструменты совершенствования / Андерсен Бьёрн.- М.: РИА, Стандарты и качество, 2008.- 272 ст.

76. Шеер А.В. Моделирование бизнес-процессов. - М: Весть-Мета Технология, 2000.-206 ст.
77. Калянов Г.Н. Моделирование бизнес процессов//Практики управления. -2006.-302 ст.
78. SALAYEV S.K. “KICHIK BIZNES RIVOJLANISH TENDENSIYALARINI MODELLASHTIRISH VA BASHORATLASH”. DOKTORLIK DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI. -T.: 2008 Y.
79. Rahmonov H.O. “Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini ekonometrik modellashtirish”. Doktorlik dissertatsiyasi avtoreferati. Toshkent. 2010 y.
80. Abdullayeva I.M. “Эконометрический анализ хозяйственной деятельности фирмы (на примере АООТ “Рохат” Наманганской области). Doktorlik dissertatsiyasi avtoreferati. - T.: 2008 y.
81. Djalilov X. “Iste’mol sarflari va YIM o’rtasidagi bog‘lanishning statistik tadqiqot usullarini takomillashtirish” (MHTasosida). Doktorlik dissertatsiyasi avtoreferati. - T.: 2004 y.
82. Rixsimboyev O.Q. “O‘zbekiston Respublikasida kichik va o‘rta biznesning ustivor yo‘nalishlarini ekonometrik bashoratlash”. Doktorlik disseptatsiyasi avtoreferati. - T.: 2002 y.
83. Xodiyev B.Y. “O‘zbekiston iqtisodiyotida tadbirkorlik rivojini ekonometrik modellashtirish”. Doktorlik dissertatsiyasi avtoreferati. –T.: 2000 y.
84. Soy M.P. “Ekonometpicheckiy analiz biznes strategii promyShlenno ppedppiyatiya”. Doktoplik dicceptatsiyaci avtopefepati. - T.: 2000 y.
85. Pashitova N.X. Agpap cektopda tuzilmaviy ciljishlapni ctatictik o‘pganish ucullari. Iqt. fan. nom. ilm. dap. olish uchun yozil. dicc.. - T.: 2010.-159 b.
86. Saidova M.X. O‘zbekistonda biznes sohasini barqaror rivojlantirish// “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali №3. - T.: TDIU, 2021 yil may-iyun.- B.284 - 294.
87. Saidova M.X. Improvement of methods of econometric modeling of business processes//Indo – Asian Journal of Multidisciplinary Research (IAJMR)

ISSN: 2454-1370 8(2): 2216 - 2225. ISI Impact Factor - 3.652, Global Impact Factor - 0.454. DOI: 10.22192/iajmr.2021.8.2.

88. O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi “Yillik statistik to‘plam.” T.: 2010-2018.

89. O‘zbekistonda kichik tadbirkorlik. Statistik to‘plam. Toshkent 17.10.2019. -187 b.

90. <http://m.minjust.uz> - O‘zbekiston Respublikasi Adliya Vazirligi

91. [www.stat.uz](http://www.stat.uz) - O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi.

92. [www.norma.uz](http://www.norma.uz) - O‘zbekiston Respublikasi huquqiy me‘yoriy xujjatlar to‘plami.

93. [www.lex.uz](http://www.lex.uz) - O‘zbekiston Respublikasi huquqiy me‘yoriy xujjatlar to‘plami.

94. <http://www.natlib.uz/> - Alisher Navoiy nomidagi milliy kutubxona

95. <http://oak.uz/>-O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi.

96. <http://www.dissertat.com> - dissertatsiyalar elektron kutubxonasi.

<http://www.cbu.uz> - O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki rasmiy veb-sayti.